



FARG'ONA DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
MINTAQAVIY MARKAZI



**“ARGUMENTLASH NAZARIYASI VA  
MANTIQUIY TAFAKKURNI  
RIVOJLANISHI”  
MODULI BO‘YICHA  
O‘QUV –USLUBIY MAJMUA**



**2024**

Modulning ishchi dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25 avgustdagi 391-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:**

**I.Siddiqov** - FarDU Falsafa kafedrası dotsenti, Falsafa kafedrası mudiri falsafa fanlari doktori (DSc)

**Taqrizchilar:**

**I.M.Arzimatova** -FarDU, dotsent, falsafa fanlari nomzodi

**D.E.Normatova** - Falsafa kafedrası dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

## MUNDARIJA

|      |   |     |
|------|---|-----|
| I.   | ISHCHI DASTUR .....   | 4   |
| II.  | MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL<br>TA’LIM METODLARI ..... | 11  |
| III. | NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....                                   | 14  |
| IV   | AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....                                    | 55  |
| V.   | GLOSSARIY .....   | 85  |
| VI.  | FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....                                | 102 |

# I. ISHCHI O‘QUV DASTURI

## KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlarida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamdainnovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

### I. Modulning maqsadi va vazifalari

**“Hozirgi zamon falsafaning dolzarb muammolari” modulining maqsadi:** pedagog kadrlarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta’minlashlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam yangilash, malaka talablari, o‘quv reja va dasturlari asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

### **“Zamonaviy falsafaning dolzarb muammolari” modulining vazifalari:**

- “Falsafa” yo‘nalishidagi pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma hamda malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;
- zamonaviy talablarga mos holda oliy ta’limning sifatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- “Falsafa” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta’minlash.

**Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo‘yiladigan talablar:**

### **“Argumentlash nazariyasi va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi**

”moduli bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

#### **Tinglovchi:**

- **“Argumentlash (dalillash) asoslangan fikrlarni”** modulining umumnazariy

masalalarini;

- Argumentlash nazariyasining jamiyat ma'naviy hayotidagi ahamiyatini;
- Fikrlar chinligini asoslashning mantiqiy usullarini o'rganuvchi mantiq fanining maxsus bo'limi argumentlash (dalil keltirish) nazariyasini yuritiladi.

### Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

|    |   | Tinglovchilaning o'quv yuklamasi, soat |                            |          |                   |                    | Mustaqil ta'lim |
|----|---|--|----------------------------|----------|-------------------|--------------------|-----------------|
|    |   | Hammasi                                | Auditoriya o'quv yuklamasi |          |                   |                    |                 |
|    |   |  | jami                       | jumladan |                   |                    |                 |
|    |   |  |                            | Nazariy  | Amaliy mashg'ulot | Ko'chma mashg'ulot |                 |
| 1. | Argumentlash va ishonch e'tiqodning shakllanish.  |  |                            | 2        |                   |                    |                 |
| 2. | Isbotlash tushunchasi, isbotlash turlari, isbotlash va rad etish qoidalari              |  |                            | 2        |                   |                    |                 |
| 3. | Formal mantiq to'g'ri tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan sifatida.       |  |                            | 2        |                   |                    |                 |
| 4. | Tafakkur qonunlari tushunchasi.   |  |                            | 2        |                   |                    |                 |
| 5. | Dalillarga tayangan holda fikr yuritish – ilmiy bilishning mantiqiy asosi               |  |                            |          | 2                 |                    |                 |
| 6. | Isbotlashning tuzulishi: tezis, asoslar (argumentlar), demonstratsiya (isbotlash usuli) |  |                            |          | 2                 |                    |                 |
| 7. | Isbotlash turlari   |  |                            |          | 2                 |                    |                 |
| 8. | Mantiqiy paradoks. Ilmiy muammo tushunchasi   |  |                            |          | 2                 |                    |                 |
|    | <b>Jami:</b>  |  |                            | <b>8</b> | <b>8</b>          |                    |                 |

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### **1-mavzu: Argumentlash va ishonch e‘tiqodning shakllanishi. (2 soat)**

#### **Reja:**

1. Argumentlash (dalillash) asoslangan fikrlar.
2. Argumentlash (dalillash) jarayonlari.
3. Dalillashning o‘ziga xos tuzilishi.

### **2-mavzu: Isbotlash tushunchasi, isbotlash turlari, isbotlash va rad etish qoidalari (2 soat)**

#### **Reja:**

1. Isbotlash va rad etishning umumiy tavsifi.
2. Isbotlash va rad etishning turlari.
3. Fikrni asoslashda uchraydigan xatolar.

### **3-mavzu: Formal mantiq to‘g‘ri tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fan sifatida. (2 soat)**

#### **Reja:**

1. Mantiq fanining predmeti
2. Formal mantiq to‘g‘ri tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fan sifatida
3. Mantiq turlari

### **4-mavzu: Tafakkur qonunlari tushunchasi. (2 soat)**

#### **Reja:**

1. Ayniyat qonuni
2. Nozidlik qonuni
3. Uchinchi – istisno qonuni
4. Etarli asos qonuni

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR

### **1-mavzu: Dalillarga tayangan holda fikr yuritish – ilmiy bilishning mantiqiy asosi (2 soat)**

#### **Reja:**

1. Dalil tushunchasi va mantiqiy dalillash
2. Dalillarning turlari
3. Dalilash va faktlar – ilmiy bilishning muhim shartining muhim belgilari.

**2-mavzu: Isbotlashning tuzulishi: tezis, asoslar (argumentlar), demonstratsiya (isbotlash usuli) (2 soat)**

***Reja:***

1. Isbotlash va rad etishning umumiy tavsifi.
2. Isbotlash va rad etishning turlari.
3. Fikrni asoslashda uchraydigan xatolar.

**3-mavzu: Isbotlash turlari (2 soat)**

***Reja:***

1. Bevosita isbotlash.
2. Bilvosita isbotlash.
3. Rad etishi.

**4-mavzu: Mantiqiy paradoks. Ilmiy muammo tushunchasi (2 soat)**

***Reja:***

1. Mantiqiy paradoks tushunchasi
2. Mantiqiy tahlil va uning strukturasi
3. Ilmiy muammo tushunchasi

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2019.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ – 637- sonli Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4732-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar:**

8. Falsafa. Axmedova M. Taxriri ostida. -T.: UFMJ, 2006.

9. Mamashokirov S. Tahriri ostida. Falsafa. -T.: Sharq, 2005.

10. A. Mamanov. Milliy mentalitet: xususiyatlar va omillar, S.: «Zarafshon» - 2015.- 155 b.

11. Abdulla Sher. Axloqshunoslik / Darslik. -Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010 y.



12. Abdulla Sher. Estetika. / Darslik. - Toshkent: O'zbekiston, 2015 y.
13. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. - T.: Yangi asr avlodi, 2016. - 318 b
14. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniye obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
15. B. Husanov. Boshqaruv etikasi. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2017.
16. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
17. Bozarov D. Sinergetik paradigma. - T.: Tafakkur, 2010. - 1606.
18. Gulobod Qudratullo qizi, R. Ishmuhamedov, M. Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
19. J. Rumi. Ichingdagi ichingdudur. - T.: Yangi asr avlodi, 2016. - 272 b.
20. Ibraymov A.YE. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/ tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
21. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s.
22. Izzetova E., Pulatova D. Filosofiya. - T.: Sharkshunoslik, 2012. 340-6
23. Ishmuhamedov R.J., M. Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
24. L.A. Muhammadjonova, D.O. Ortiqova, F.A. Abidjanova, G.K. Masharipova. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018 y.
25. L. Muhammadjonova, F. Abidjanova. Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018 y.
26. M. Kaxxarova, N. Agzamova. Etika Uchebnoye posobiye. Rizograf imeni Nizami. 2018 g.
27. Muslimov N. Ava boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
28. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. O'quv qo'llanma - T.: Universitet, 2017.
29. Oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida. [https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3.\\_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf](https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf)
30. Otamurodav S. Globallashuv va millat. - T.: Yangi asr avlodi. 2008.
31. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. – T.: “TKTI” nashriyoti, 2019 y.
32. Xayitov Sh., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. - T.:

Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.

33.Shermuxamedova H.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.

34.Shermuxamedova N.A. Borlik va rivojlanish falsafasi.-T.: Noshir, 2013,720 6

35.Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2017. 460-6.

36.Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.

37.Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: Moliya, 2003.

#### **IV. Internet saytlar**

40.<http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

41.<http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

42.<http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

43.<http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet

44.<https://philpapers.org/> - mejdunarodnaya filosofskaya poiskovaya sistema po knigam, statyam, jurnalam, naxodyashimsya v otkritom dostupe

45.<https://plato.stanford.edu/> - Stenfordskaya ensiklopediya filosofii.

46.<https://elibrary.ru/> - krupneyshiy rossiyskiy informatsionno-analiticheskiy portal (v tom chisle) v oblasti filosofii

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

“Argumentlash nazariyasi va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi” fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning fan xususiyatidan kelib chiqqan holda deyarli barchasi tadbiq etilishi mumkin. Xususan, ma’ruza va seminarlar “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bumerang”, “Menyu”, “B/B/B”, “Munozara”, “Rezyume” singari metodlar, slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o‘tkaziladi. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini tulakonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq ukish maksadlaridan kelib chikkap xolda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Shaxsga yunaltirilgan ta’lim.** Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chikkan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha buginlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini akllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgannatijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta’lim. Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilishorqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash.

O‘qishning usullari va texnikasi. Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O‘qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o‘zaro o‘rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O‘qitish vositalari:** o‘qishning an’anaviy shakllari (darslik, ma’ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari** va vositalari: kuzatish, blits-so‘rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini taqdili asosida o‘qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baxolash:** o‘quv mashg‘ulotida ham butun kurs davomida ham o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs ohirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. Zamonaviy falsafaning dolzarb muammolari” fanini o‘qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, "Excel" elektron jadvallar dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo‘yicha tinglovchilar bilimni baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmog‘idagi rasmiy iqtisodiyko‘rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so‘z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o‘tkaziladi

“Argumentlash nazariyasi va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi” darslari qiziqarli va tinglovchiga boy axborot beradigan bo‘lishiga yordam beradigan ulublar juda ko‘p. Lekin ular orasida falsafaning eng sinalgan va eng qadimiy uslubi bo‘lgan “suqrotcha baxs”ga hech qaysi uslub yeta olmaydi. Zero aynan shu uslub dialektik fikrlash uslubidir va aynan shu uslub dunyoga Suqrot, Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino kabi ko‘plab mutafakkirlarni yetishtirgan. Ayni shu uslub Platon dialoglarida aks etgan va hozirgacha insoniyat yetuk mutafakkirlarini kamolotga yetkazishda davom etmoqda. Bu uslubni yaxshi bilish uchun mazkur dialoglarni chuqur o‘rganish kerak. Bugungi kunda ularning o‘zbek tilidagi tarjimasini amalga oshirilgani esa ishimizni yanada yengillashtirdi. Bu uslub seminarda emas, balki faqat ma’ruzalar vaqtida o‘kaziladi. Bunda o‘qituvchi Suqrotning, tinglovchilar esa Suqrotning suhbatdoshi rollarini o‘ynaydilar. Mazkur metodni mashq orqaligina namoyish etish mumkin. Shuning uchun bu yerda ushbu uslubga boshqa to‘xtalmaymiz. Lekin metodikadan o‘tkazadigan seminarlarimizda bu metodni maxsus mashq qilib ko‘ra olamiz. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu uslubni falsafani chuqurroq biladiganlar o‘zlashtirishi mumkin va maqsadga muvofiqdir. Falsafa darslarining xajmi juda qisqa bo‘lgan nofalsafa mutaxassisliklari darslarida esa uni qo‘llash uchun yetarli vaqt topib bo‘lmaydi. Ammo bu uslub masalaning javobi baxs

qatnashchilaridan biriga ayon bo‘ladigan platoncha (suqrotcha) dialog emas, albatta. Bu savollar va ularga javoblar to‘qnashuvi jarayonida kelib chiqadigan o‘z o‘zidan tashkillanishi kutiladigan nochiziqli kognitiv-kommunikativ muhitdir.

**“Argumentlash nazariyasi va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi”** ni o‘rganishga endigina kirishganlar esa avval osonroq uslublar asosida o‘z tafakkurlarini rivojlantiradigan uslublar asosida ishlashlari maqsadga muvofiq. Shunday uslublar qatoriga “insert” uslubi turadi.

### III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

#### 1-mavzu: Argumentlash va ishonch e‘tiqodning shakllanishi. (2 soat)

##### Reja:

1. *Argumentlash (dalillash) asoslangan fikrlar.*
2. *Argumentlash (dalillash) jarayonlari.*
3. *Dalillash o‘ziga xos tuzilishi.*

Argumentlash (dalillash) asoslangan fikrlarni, chin bilimlarni hosil qilish usuli bo‘lib hisoblanadi. Argumentlash (dalillash) lotincha «argumetatio» so‘zidan olingan bo‘lib, ni asoslash uchun qo‘llanadigan fikrlarga nisbatan ishlatiladi. Fikrlar chinligini asoslashning mantiqiy usullarini o‘rganuvchi mantiq fanining maxsus bo‘limi argumentlash (dalil keltirish) nazariyasi deb yuritiladi.

Argumentlash (dalillash) jarayoni olamni bilishda ilmiy tafakkurda, ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim ahamiyatga ega. Dalillash jarayonida mantiqiy fikrlashga bo‘lgan eng muhim talablardan biri-yetarli asosga ega bo‘lish, asosli fikr yuritishamalga oshadi. Hayotda, ilm-fan, bilishning turli sohalarida asoslash, dalillash jarayoni o‘ziga xos shakllarda kechadi. Dalillash o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lishi, muayyan maqsadlarga xizmat qilishi mumkin. Lekin dalillash maqsadlari, qo‘llanishi qanchalik xilma-xil bo‘lmasin, ular inson tafakkurining eng muhim xislati bo‘lib hisoblanadi va mantiq qoidalariga bo‘ysunadi.

Biz u yoki bu fikrni, nazariyani, ta‘limotni haqiqiy, chin bilim sifatida shunchaki qabul qila olmaymiz. Uning chin bilim, haqiqatligiga ishonganimiz taqdiridagina, uning asoslari, dalillari bizda shubha qoldirmagan taqdiridagina to‘g‘ri fikr nazariya, deb hisoblaymiz.

Insonning olam haqidagi bilimlari turli-tuman bo‘ladi. Ularni shakllanish xususiyatlari va anglatgan mazmunlariga ko‘ra nazariy va amaliy bilimlarga bo‘lish mumkin. Nazariy bilimlar ilmiy bilish natijalari hisoblanadi va ularning haqiqiy bilim ekanligi mantiqiy asoslanganligida namoyon bo‘ladi. Kundalik amaliy faoliyat jarayonida amaliy bilimlar shakllanadi. Ularning qay darajada chinligi. hayotdan olingan dalillar bilan asoslanadi yoki inkor etiladi.

Shunga ko‘ra dalillash (asoslash) ikki usulda namoyon bo‘ladi: a) nazariyalar, ta‘limotlar, ilmiy bilimlarga nisbat, dalillash (asoslash), isbot va raddiya shaklida namoyon bo‘ladi; b) kundalik hayot jarayonida fikrlar hayotiy faktlar orqali tasdiqlanadi yoki ular tanqid qilinadi (qisman rad qilinadi).

Dalillash (asoslash) murakkab jarayon bo‘lib, unga xilma-xil omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Bu omillarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

Argumentlashning mantiqiy asoslari.

Argumentlashning ijtimoiy-psixologik asoslari.

Dalillash (argumentlash) xilma-xil shakllarda namoyon bo‘ladi. Uning dastlabki

eng oddiy shakllari deganda a) isbotlash va rad etish; b) tasdiqlash va shubha ostiga olish (uni tanqid qilish) nazarda tutiladi. Shu bilan bir qatorda uning nisbatan murakkab shakllari ham borki, bularga suhbat, bahs-munozara kabilarni kiritish mumkin.

Dalillash yuzaki qaraganda kishilar tafakkuridagi chin bilan yolg'on, yaxshilik (ezgulik) bilan yomonlik orasidagi ziddiyatni bartaraf qilishdek bo'lib ko'rinadi. Lekin aslida argumentlar (dalillar) hayotning o'zidan kelib chiqadi va unda nimaga xizmat qilishidan qat'iy nazar ishontirish va ishonish muhim o'rin tutadi. Argumentlash (dalillash, asoslash) shunday mantiqiy usulki, uning natijasida muayyan fikr, qarash, nazariyaning chinligi yoki xatoligi asoslab beriladi.

Isbotlash, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, argumentlashning eng oddiy mantiqiy usuli hisoblanadi. Isbotlash va uning tarkibi. isbotlash turlari.

Kishilarning amaliy faoliyatdagi muvaffaqiyatlari ular qo'llayotgan bilimlarning kay darajada chin bulishiga, ya'ni bu bilimlarning voqelikni qanchalik to'g'ri aks ettirishiga bog'liq. Xato fikrlar predmetlarning real aloqalari va munosabatlarini buzib ko'rsatadi, bilishda ko'p chalkashliklarga olib keladi. Shuning uchun ham bilish jarayonida xar bir fikrni to'g'ri qurishga erishish, uning chinligini dalillar bilan ko'rsata olish, xato fikrlarni esa rad kila bilish muhim ahamiyatga ega. Fikrning chinligini tasdiqlash uchun uni xodisaning (faktning) o'zi bilan solishtirish mumkin. Lekin ko'p hollarda bilish jarayonida natijalarning

chinligi ularni ilgari vujudga kelgan bilimlar bilan bog'lash orqali aniqlanadi. Buni amalga oshirishning mantiqiy usuli isbotlashdir. Isbotlash bir xukmning chinligini u bilan bog'langan boshqa chin xukmlar yordamida asoslashdan iborat bo'lgan mantiqiy amaldir. Uning tarkibi uch elementdan tashkil topgan: tezis, argumentlar (asoslar), isbotlash usuli - demonstratsiya.

Tezis - chinligi asoslanishi lozim bulgan xukm, u isbotlashning markaziy figurasi xisoblanadi; butun diqqat- e'tibor uning chinligini ko'rsatishga karatiladi. Tezis bir muloxazaning o'zidan, yoki muloxazalar tizimidan, yoki teoremalardan, yoki aniq, faktlarni umumlashtirish natijalaridan, yoki xodisalarning sababini ko'rsatuvchi muloxazalardan va shu kabilardan iborat buladi.

Argumentlar - tezisning chinligini asoslash uchun keltirilgan xukmlar. Argumentlar bulib faktlarni qayd qiluvchi xukmlar, ta'riflar, aksiomalar, teoremlar, qonunlar xamda boshka empirik va nazariy umumlashmalar xizmat kiladi. Argument sifatida keltirilgan faktlar, albatta, o'zaro bog'langan va tezisning moxiyatiga aloqador bo'lishi lozim. Ta'riflar xam chin xukmlar bulib, ulardan argument sifatida foydalanish mumkin. Masalan, "Xarakat - bu har kandy o'zgarishdan iborat", degan ta'rif chin xukmdir. Aksiomalar chinligi o'z-o'zidan ravshan bo'lgan, isbotlashni talab qilmaydigan fikrlardir. Inson tajribasida ko'p martalab takrorlanganligi uchun xam ularni isbotlash zarur emas. Teoremlar va qonunlarning chinligi isbotlangan bo'ladi, ularni xech ikkilanmasdan argument qilib olish mumkin. Isbotlash usuli - demonstratsiya tezis bilan argumentlar

o'rtasidagi mantikdy aloqadan iborat. U xulosa chikarish shaklida buladi, ya'ni tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqdan keltirib chikariladi. Isbotlashning ikki turi mavjud: bevosita isbotlash, bavirusita isbotlash. Bevosita isbotlashda tezisning chinligi to'g'ridan-to'g'ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bulgan xukmlardan foydalanilmaydi. Tezis ko'p xollarda yakka xodisani ifoda kilib keladi va ma'lum bir umumiy bilimdan, masalan, qonundan argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi.

Masalan, "O'zbekiston - mustaqil davlatdir", degan xukm (tezis)ning chinligi "O'zbekistonning mustaqil davlat deb, e'lon qilinishi, uning xalqaro miqyosda e'tirof etilishi" kabi asoslar yordamida isbotlanadi. Bavirusita isbotlashda esa tezisning chinligi unga zid bo'lgan xukmning (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Antitezis qanday shaklda ifodalangan bo'lishiga qarab apagogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash farq qilinadi.

Apagogik isbotlashda tezis (a) va antitezis (a) o'rtasidagi munosabatga asoslaniladi. Masalan, "Materiya xarakatsiz mavjud emas", degan xukmning chinligini asoslash uchun unga zid bulgan "Materiya harakatsiz mavjud", degan xukm olinadi. Apagogik isbotlashda antitezis topilib (1-bosqich),

vaqtincha chin deb qabul qilinadi va undan ma'lum bir natijalar keltirib chiqariladi (2-bosqich), so'ngra bu natijalarning xatoligi kursatiladi (3-bosqich) va demak, tezisning chinligi isbotlanadi. Masalan, "Materiya harakatsiz mavjud", degan xukm chin bulsa, "Moddiy predmetlar strukturasiz mavjud", degan fikr (antitezisdan kelib chiqqan natija) ham chin buladi. Bizga ma'lumki, moddiy predmetlar tarkibsiz (uni tashkil qiluvchi elementlar va ularning o'zaro aloqasisiz) mavjud emas. Demak, "Materiya xarakatsiz mavjud", degan fikr xato, shu tarika "Materiya xara-katsiz mavjud emas", degan fikrning chinlish asoslanadi. Ayiruvchi isbotlashda tezis sof ayiruvchi xukmning (kuchli diz'yunksiyaning) bir a'zosi bulib, uning chinligi boshka a'zolarining (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orkali asoslanadi. Masalan, "Jinoyatni yo A, yo V, yo S

shaxslar sodir etgan", degan fikr tekshirilib, "Jinoyatni V shaxs xam, S shaxsxam sodir etmagan"ligi aniqlanadi va shu tarika "Jinoyatni A shaxs sodir kilgan", degan xukmning chinligi asoslanadi. Bu misolda ayiruvchi

isbotlash ayiruvchi - qatiy sillogizmning inkor etib, tasdiklovchi modusi buyicha qurilgan:

Raddiya - isbotni buzishga qaratilgan mantikly amaldir. Birorta fikrning chinligini rad etish ayni paytda unga zid bulgan fikrning xatoligi ko'rsatishdan iborat bo'lganligi uchun raddiyani isbotlashning xususiy ko'rinishi, deb hisoblash mumkin. Raddiya ham isbotlash kabi tezis (rad qilinishi lozim bulgan hukm), argumentlar (tezisni rad qiluvchi xukmlar) va demonstratsiyadan (rad etish usuli) dan tashkil topgan bo'ladi. Raddiya birorta masalani muhokama qilish, ya'ni baxs, munozara jarayonida uchraydi. Bahs qatnashchilaridan biri malum bir tezisni ilgari surib, uni ximoya kilsa (proponent),



boshqasi unga qarshi chikadi (opponent). Hal qilinmagan, munozarali masalalar buyicha olib boriladigan bahslar polemika hisoblanib, unda qarama-karshi tezislar asoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi.

Raddiya uch xil usul bilan amalga oshiriladi:

tezisni rad etish;

argumentlarni rad etish;

demonstratsiyani rad etish.

Tezisni rad etish.

Tezisni rad etishning quyidagi usullari mavjud:

Faktlar orkali rad etish. Bu eng ishonchli va samarali usuldir. Bunda bulib o'tgan voqealarga, statistik ma'lumotlarga asoslanib tezis rad etiladi. Masalan, "Sovet davrida O'zbekiston to'laqonli mustaqil respublika bo'lgan", degan tezisni rad etish, ya'ni uning noto'g'ri ekanligini isbotlash uchun tarixiy faktlarga asoslanamiz. O'sha davrda respublika rahbariyati birorta muhim masalan Moskvaning ruxsatisiz hal qila olmaganligiga dalillar keltirib, tezisni rad etamiz.

Tezisdan kelib chikadigan natijalarning xatoligini (yoki ziddiyatli ekanligini) ko'rsatish orkali rad etish. Bunda tezisdan kelib chikadigan natijalarning chin emasligi asoslab beriladi. Bu usul "bema'nilikka olib kelish", deb ataladi. Rad etilayotgan tezis vaqtincha chin deb tan olinadi, undan kelib chiqadigan natijalar aniqlanib, bu natijalarning xaqiqatga zid, noto'g'ri ekanligi isbotlanadi. Chin asosdan xato natija kelib chiqmaydi, aks xolda bu bema'nilik buladi. "Bema'nilikka olib kelish" usulining formulasi quyidagicha:

$$(a \rightarrow ) \rightarrow ((a \rightarrow I) \rightarrow a)$$

Tezisni antitezisni isbotlash orkali rad etish. Rad etilayotgan tezisga zid bulgan yangi tezis (antitezis) olinadi va isbotlanadi. Uchinchisi istisno konuniga muvofik, antitezisning chinligidan tezisning xatoligi keltirib chikariladi. Darhaqiqat, Soxibqiron Amir Temur xomiyligida, uning ko'rsatmasiga binoan yaratilgan bog'lar, qurilgan imoratlar uning bunyodkor shaxs ekanligini yaqqol isbotlaydi.

Argumentlarni rad etish.

Tezisni isbotlash uchun opponent tomonidan keltirilgan argumentlar tanqid kilinib, ularning xatoligi yoki tezisni isbotlash uchun etarli emasligi aniqlanadi. Argumentlarning xatoligi tezisning xam xato ekanligini isbotlamaydi, bunda tezis chin bulishi xam mumkin:

$$R \rightarrow Q, P$$

Isbotlash usulini tanqid qilish orqali rad etish.

Rad etishning bu usulida isbotlashda yul qo'yilgan xatolar aniqlanadi. Bunda rad etilayotgan tezis chinligining uning asoslash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chikmasligi asoslab beriladi. Isbotlash usulida yo'l qo'yilgan xato aniqlanganda tezis rad etilmaydi, uni qayta isbotlash talab kilinadi. Rad etishning yuqorida ko'rsatilgan

usullari ko‘pincha birgalikda, bir-birini to‘ldirgan holda qo‘llaniladi.

Fikrni asoslashda uchraydigan xatolar.

Tezisga aloqador qoidalar:

Tezis mantiqan aniq, va ravshan bo‘lishi kerak. Bu qoida buzilsa, isbotlash yoki rad etish o‘zining aniq predmetiga ega bo‘lmay qoladi, uni amalga oshirishga urinish bexuda ish xisoblanadi.

Tezis isbotlash yoki rad etishning boshidan oxirigacha o‘zgartirilmasligi kerak. Bu qoida buzilsa, “tezisni almashtirish” degan xato kelib chikadi.

Argumentlarga nisbatan koidalar:

Tezisni asoslash uchun keltirilgan argumentlar chin Xukmlar bulishi va bir-biriga zid bulmasligi lozim.

Argumentlar tezisni asoslash uchun etarli bulishi kerak.

Argumentlar tezisdan mustaqil holda chinligi isbotlangan xukmlar bulishi lozim.

Isbotlash usulining qoidasi:

1. Tezis argumentlardan mantiqiy tarzda kelib chikadigan xulosa bo‘lishi lozim. Buning uchun isbotlash yoki rad etishda xulosa chikarish koidalariga rioya kilish zarur.

Isbotlash va rad etish koidalarining buzilishi mantikiy xatolarsh olib keladi. Bu xatoliklar uch turga bo‘linadi:

1. Isbotlanayotgan tezisga aloqador xatoliklar:

Tezisni almashtirish. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida o‘zgarmasligi shart, degan qoidaning buzilishi tezisning almashtirilishiga sabab buladi. Tezis ataylab yoki bilmasdan boshka tezis bilan almashtiriladi va bunda yangi tezis isbotlanadi yoki rad etiladi. Tezis mazmunining toraytirilishi yoki kengaytirilishi xam baxs jarayonida tezisning o‘zgarishiga olib keladi. Masalan, respublikamiz taraqqiyoti uchun milliy mafkura, milliy g‘oyaning ahamiyati tug‘risidagi tezisni isbotlash davomida umuman jamiyatga mafkura kerakmi yoki yo‘qmi, degan masalani isbot etishga harakat kilinsa, unda tezisning mazmuni kengayib ketadi va tezis almashinadi.

Insonning shaxsiy sifatini bahona kilib tezisni almashtirish. Baxs jarayonida mavzudan chetga chikib, opponenning shaxsiy, ijtimoiy xayoti, yaxshi fazilatlari yoki kamchiliklari xususida fikr yuritib, shu asosda tezisni isbotlangan yoki rad etilgan, deb ta’kidlash tezisning almashinishiga sabab buladi. Bunday xatoga ataylab yul qo‘yiladi. Tinglovchilarning xis-tuyg‘ulariga ta’sir qilish orqali isbotlanmagan tezisning chin deb kabul kilinishiga urinish xam tezisni almashtirish xisoblanadi.

Ortiqcha yoki kam isbotlashga urinish natijasida tezisning almashinishi. Fikr ortiqcha isbotlansa, berilgan tezis o‘rniga undan kuchlirok tezisni isbotlashga xarakat kilinadi. Agar A xodisadan V kelib chiksa, lekin V xodisadan A kelib chikmasa, unda A xodisani ifodalovchi tezis V xodisani ifodalovchi tezisdan kuchlirok, buladi. Masalan, “A shaxs birinchi bo‘lib janjalni boshlamagan” degan tezis (V) o‘rniga, “A shaxs umuman janjal bo‘lgan erda yuq edi” degan tezisni (A) isbotlashga xarakat kilinadi.

Ikkinchi tezisni isbotlab bulmaydi, chunki A shaxsning janjalda qatnashganligini ko‘rgan guvohlar bor.

Argument (asos)larga taalluqli xatolar:

Asoslarning xatoligi. Tezis isbotlanganda yoki rad etilganda xato argumentlarga chin deb asoslanish natijasida atashib yoki bilmasdan mantiqiy xatoga yul qo‘yiladi. Masalan, Qadimgi grek faylasufi Fales o‘z talimotini hamma narsa suvdan paydo bo‘lgan, degan fikrga asoslanib yaratgan.

Asoslarni avvaldan taxminlash shaklidagi xato. Tezis isbotlanmagan argumentlarga asoslansa, bunday argumentlar tezisning chinligini isbotlamaydi, balki tezisning chinligi taxminlanadi, xolos.

“Aylanma isbot etish”deb nomlanuvchi xato. Tezisning chinligi argumentlar orqali, argumentlarning chinligi tezis orkali isbotlansa mantiqiy xatoga yul qo‘yiladi. Masalan, “So‘zning qudrati fikr bilan o‘lchanadi”, degan tezisni “Fikrning qudrati so‘z bilan o‘lchanadi”, deb isbotlasak, yuqorida aytilgan xatoga yo‘l qo‘yiladi.

Isbotlash usuli (demonstratsiya) bilan bog‘liq, xatolar.

1. “Yolgon (soxta) isbotlash”. Agar tezis uni isbotlash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasa, mantiqiy xatoga yul kuyiladi. Bunda tezisga aloqador bo‘lmagan argumentlarga asoslaniladi. Masalan, “A shaxs yomon odam”, degan tezis “Tunda yomon odamlargina ko‘chada yuradi”, “A shaxs ko‘chada tunda yuribdi” degan argumentlar bilan asoslansa, fikr yuzaki (soxta) isbotlangan bo‘ladi. Argumentlashning mantiqiy asoslarini bilish va baxs yuritish koidalari amal qilish tafakkur madaniyatini yukori darajaga ko‘tarish imkonini beradi. Bilishning maqsadi qayd kilingan hodisalarning mohiyatini tushuntirishdan iborat. Buni hamma vakt ham mavjud tasavvurlar, prinsiplar yordamida amalga oshirib bulmaydi. Bilish jarayonida ma‘lum bir ziddiyatlar, birinchi navbatda, mavjud bilimlarimizning erishgan darajasi bilan yangi bilish vazifalarini xal qilish zaruriyati o‘rtasida ziddiyat kelib chiqadi, muammoli vaziyat paydo buladi. Bunday ziddiyatlar, ayniksa, kundalik hayotimizda murakkab vazifalarni hal qilishda, fanda esa tub burilishlar davrida yaqqol namoyon bo‘ladi. Mana shunday vaziyat, masalan, tabiatshunoslikda XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida radioaktivlik hodisasiing kayd kilinishi, elektronning kashf etilishi, nurlanishning kvant xususiyatga egaligining asoslanishi va shu kabi kashfiyotlar natijasida vujudga kelgan. Uning mohiyatini tabiatshunoslikning, birinchi navbatda, fizikaning mavjud qonunlari va prinsiplarining yangi qayd kilingan xodisalarni tushuntirish uchun etarli emasligida, deb bilmok zarur.

Shuni ham aytish kerakki, ilmiy bilishda muammoli vaziyatni fan tarakkiyotining ichki ehtiyojlari ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, hozirgi paytda fanda sinergetika g‘oyalari va metodlarini tushuntirish, matematikada aksiomatikaning imkoniyatlari va qo‘llanish sohalarini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalarni hal qilish zaruriyati yangi vaziyatni yaratadi.

Bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari: muammo, gipoteza, nazariya

Muammo - javobi bevosita mavjud bilimda bo'lmagan va echish usuli noma'lum bulgan savoldir. SHuning uchun xam muammoni qo'yish va hal qilish mavjud bilimlarni qayta ishlash, ba'zi hollarda esa, xatto, ular doirasidan chetga chiqishni, yangicha echish usuli, metodlarini qidirishni taqozo etadi. Qanday muammolarni ilgari surishni, uni muxokama kilishning xususiyatini amaliy faoliyatimiz va bilishimiz extiyojlari belgilab beradi.

Muammoni muvaffaqiyatli hal qilishning zarur shartlaridan biri uni tug'ri qo'yish va anik bayon kilishdan iborat. To'g'ri ko'yilgan savol, V.Geyzenberg aytganidek, muammoni echishning yarmidan ko'prog'ini tashkil etadi. Muammoni to'g'ri quyish uchun muammoli vaziyatni aniq tasavvur kilishning o'zi etarli emas. Buning uchun muammoni xal kilishning turli xil usullari va vositalarini xam oldindan ko'ra bilish kerak. Gipoteza - o'rganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli taxmin tarzidagi bilim shaklidir. Gipotezani, avvalambor, bilimlarning mavjud bo'lish shakli sifatida olib qarash zarur. CHin, ishonchli bilimlar hosil bo'lgunga qadar qo'yilgan muammolar, masalalar haqidagi fikr-muloxazalar kuzatish, eksperiment natijalarini taxlil kilish va umumlashtirishga asoslangan bo'lib, ular turli xil taxminlar, farazlar shaklida quriladi va mavjud bo'ladi. Masalan, Levkipp va Demokritning jismlarning atomlardan tashkil topganligi xakida bildirgan fikrlari dastlab gipotetik shaklda bulib, eng oddiy, kundalik tajribada minglab marta kuzatiladigan hodisalar: qattiq jismning suyuklikka aylanishi, hidning tarqalishi va shu kabilarni tahlil qilishga asoslangan, ularning sababini tushuntirishga qaratilgan. "Jismlar mayda, bo'linmas zarrachalardan tashkil topmaganda bunday xodisalar bo'lmas edi", degan fikr o'zining ma'lum bir mantiqiy kuchiga ega.

Umumiy gipoteza deb tabiat, jamiyat, bilish hodisalarining qonuniyatlari haqida bildirilgan asosli taxminga aytiladi. Bunga misol kilib neft kelib chiqishining organik va noorganik tabiati haqidagi gipotezalarni, yerda hayotning paydo bo'lishi, ongning kelib chikishi, ijtimoiy profess haqidagi farazlarni ko'rsatish mumkin. Juz'iy (xususiy) gipoteza ayrim faktlar, konkret predmet va xodisalarning kelib chikishi, xususiyatlari haqidagi bildirilgan asosli taxminiy fikrdan iborat.

Nazariya ma'lum bir predmet soxasiga oid tushunchalar, qonunlar, gipotezalar, g'oyalarni sistemaga solib, u haqida yaxlit tasavvur hosil qiladigan, yangi fundamental umumlashmalar yaratishga olib keladigan, shu soxadagi xodisalarni tushuntirish, oldindan kurish imkonini beradigan ishonchli bilimdan iborat.

Ilmiy nazariya quyidagi tarkibiy kislardan tashkil topadi: 1) empirik asos: nazariyaga aloqador faktlar, ularga mantiqiy ishlov berish natijalari; 2) boshlang'ich nazariy asos: nazariyaning asosiy tushunchalari, postulatlar (aksiomalari), fundamental qonunlar (prinsiplar); 3) nazariyaning mantikiy apparati: tushunchalarni xosil qilish va ta'riflash qoidalari, xulosa chiqarish (isbotlash) qoidalari; 4) olingan natijalar (xulosalar).

Inson atrof-olam (narsa, hodisalar, insonlarni) va o'zini turli xil faoliyatlarni

bajarish va bu ob'ektlarga ta'sir ko'rsatgan holda ma'lum bir ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga molik maqsadlarga erishish uchun o'rganadi. Sezgi, idrok va tasavvurlar ixtiyorsiz diqqat va ko'rgazma-obrazli xotira bilan hamkorlikda insonga aniq bir ob'ektlar va ularning bevosita o'rganiladigan xossalari haqida ma'lumot beradilar. Psixik aks ettirishning bu shakllari inson tomonidan ob'ektiv reallikni bilishning hissiyotli asoslaridir. Lekin alohida jismlar va real olam hodisalarini bilish istalgan amaliy vazifani hal etishda yuzaga keladigan uch ahamiyatga ega bo'lgan savolga javob topish uchun etarli emas. Bu savollar: «yuuga kelgan vaziyatda nimani, qay tarzda bajarish mumkin, va bu harakat natijasida nima hosil bo'ladi?»dan iborat.

Bu savollarga javob izlashda bizlarga tafakkur yordam beradi. Avvalambor, tafakkur yuksak darajadagi bilish psixik jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayonning mohiyati inson tomonidan voqelikning faol ijodiy aks ettirish va o'zgartirishdan iborat. Tafakkur bevosita idrokda anglaymaydiganlarni ochib beradi; u olamni ahamiyatli aloqalar va munosabatlarda, uning turli xildagi vositalarida aks ettiradi. Tafakkurning asosiy vazifasi real bog'liqliklarga asoslangan zarur aloqalarni vaqt va fazodagi tasodifiy mos kelishlardan ajratgan holda aniqlashdan iborat. Tafakkur jarayonida tasodifiydan zaruratga, ayrimlikdan umumiylikka o'tish sodir bo'ladi.

Shunday qilib, *tafakkurni* voqelikni umumlashtirilgan va vositalangan aks ettirish sifatida ta'riflash mumkin. Bundan tafakkurning muhim belgilaridan biri *umumlashtirish*dan iboratligi kelib chiqadi. Voqelikni umumlashtirgan holda aks ettirish birgina odam va zamondoshlarining emas, balki, o'tmish avlodlarining ham tajribasini qayta ishlab chiqish natijasidir. Bu tajriba til yordamida og'zaki va yozma nutqda (o'qituvchilar ma'ruzalarida, kitob, darsliklarda va h.k.) ifodalangan. Shuning uchun tafakkur ko'plab odamlar bilimlarini umumlashtiradi.

Tafakkur jarayonida inson amaliy faoliyat, obrazlar va tasavvurlar, modellar, chizmalar, belgilar, til kabi jismlar va ijtimoiy olamning ahamiyatli aloqa va munosabatlariga kirib borish maqsadida, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan turli xildagi vositalardan foydalanadi.

Tafakkurning ikkinchi muhim belgisi voqelikni analizatorga bevosita ta'sir ko'rsatmay, ko'pchilik hollarda asboblar ko'magida olingan qo'shimcha belgilar yordamida anglanadiganlarni tushunish va namoyon qilish imkonini yaratuvchi *vositali tarzda aks ettirish*dir. Hodisalarning qonuniyatlari, ichki aloqalari bizning ongimizda hodisalarning tashqi belgilarida vositali tarzda namoyon bo'lishi bilan inson ichki, barqaror o'zaro aloqalarning belgilarini aniqlab oladi.

Tafakkurning o'ziga xos xususiyati bilish yoki amaliy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan u yoki bu vazifani bajarish bilan bog'liqligidan iborat. Tafakkur muammoli vaziyatdan, tafakkurning maqsadi bo'lgan savolga javobdan boshlanadi.

Tafakkur muammosini ko'rib chiqqan a.a.smirnov tafakkur va *aqliy jarayonlarning assotsiativ tarzda kechishini* tafovutlash zaruriyati haqida ogohlantirgan edi. Gap

shundaki, aqliy faoliyatda biz assotsiatsiyalardan keng foydalanamiz, chunki ular tafakkur masalalarini echishda ahamiyatli yordam ko'rsatadi. Aqliy jarayonlarning assotsiativ kechishida holat o'zgacha bo'ladi. Muhim tafovut shundan iboratki, bu vaziyatda o'z oldimizga hech qanday maqsad qo'yamaymiz, chunki hech qanday vazifani bajarmaymiz. Bunda bir jarayon ikkinchisi bilan almashadi, chunki ular bir-biri bilan assotsiativ tarzda bog'langan bo'ladi. Tafakkur jarayonlarining assotsiativ tarzda kechishi ko'p hollarda inson toliqqan bo'lib, hordiq olishni xohlayotganida kuzatiladi. Uyquga ketishdan oldin xayolingizdan ketma-ket turli xildagi o'ylar o'tishini kuzatgansiz. Mana shu o'ylar ma'lum assotsiatsiyalarga kiradi.

Tafakkurning alohida muhim o'ziga xos xususiyati – bu uning nutq bilan uzluksiz aloqasi. Tafakkur va nutqning bunday aloqasi, avvalambor, fikrlarning, hatto, nutq tovush shakliga ega bo'lmagan holat, masalan, kar-soqov odamlarda ham nutq shakliga mujassamlashtirilishida o'z ifodasini topadi. Biz doimo so'zlar orqali fikr yuritamiz.

Qisqartirilganlik, muxtasarlik, ixchamlilik xususiyatiga ega bo'lgan yashirin, tovushsiz, ichki nutq insonning tafakkur mexanizmi bo'lib hisoblanadi.

Nutq tafakkur quolidir. Ma'lum fikr so'zlar bilan ifoda etilganida tafakkur jarayoni amalga oshiriladi. Fikrni so'z bilan ifoda etish – ifodalash motivi (nutqiy maqsad), ichki nutq, fikrni tashqi tomondan nutqiy ifodalash kabi bosqichlaridan iborat bo'lgan murakkab jarayon.

Tafakkur – bu narsalar mohiyatini ochib beruvchi g'oyalar harakati. Uning natijasi obraz emas, balki ma'lum bir fikrdir. Tafakkur – bu kiritilgan yo'nalishli-tadqiqiy, qayta o'zgarishli va bilish xususiyatiga ega bo'lgan harakatlar va muolajalar tizimini taxminlovchi alohida turga ega bo'lgan nazariy va amaliy faoliyat.

Tafakkur moddiy olam qonuniyatlari, tabiat va ijtimoiy-tarixiy hayotdagi sababiy-oqibat aloqalari, insonlar psixikasi qonuniyatlarini tushunish imkonini beradi. Aqliy faoliyat natijalarini qo'llash sohasi bo'lgan amaliyot tafakkur faoliyatining manbai bo'lib xizmat qiladi.

Tafakkur psixik faoliyat sifatida miyaning vazifasi hisoblanadi. Oddiy psixik jarayonlar, masalan, sezgilar uchun asos vazifasini o'taydigan yuqoriroq darajadagi miya jarayonlari tafakkurning fiziologik asosini tashkil etadi. Lekin hozirda tafakkur jarayonini ta'minlovchi barcha fiziologik tuzilmalarning o'zaro ta'sir etish tartibi va ahamiyati haqida aniq fikr mavjud emas. Tafakkur faoliyatida miya peshona qismlari alohida ahamiyatga ega ekanligi shubhasizdir. Bundan tashqari, bosh miya po'stlog'ining tafakkurni gnostik (bilish) vazifasi bilan ta'minlovchi doirasi, shuningdek, tafakkur jarayonini ta'minlovchi miya nutq markazlari ham katta ahamiyatga ega.

### **Blits-so'rov savollari**

1. Tafakkurning asosiy xususiyatlarini aytib bering.
2. Tafakkur va nutqning o'zaro aloqasi nimada ifodalanadi?
3. Tafakkurning qanday turlari va shakllarini bilasiz? ular haqida gapirib bering.

4. Fikrlash operatsiyalarining xususiyatlari haqida gapirib bering.
5. Tafakkur qonuniyatlari haqida gapirib bering.
6. Aql nima? qanday intellektual testlarni bilasiz?
7. Ijodkorlik va ijodkorlik tafakkuri xususiyatlari haqida gapirib bering.
8. Tafakkurning qanday psixologik nazariyalarini bilasiz?
9. Tafakkurning individual xususiyatlari va rivojlanishi haqida gapirib bering.
10. Tafakkur rivojlanishining asosiy bosqichlari nimalardan iborat?

## **2-mavzu: Isbotlash tushunchasi, isbotlash turlari, isbotlash va rad etish qoidalari (2 soat)**

### **Reja:**

1. *Isbotlash va rad etishning umumiy tavsifi.*
2. *Isbotlash va rad etishning turlari.*
3. *Fikrni asoslashda uchraydigan xatolar.*

### **Isbotlash va uning tarkibi. Isbotlash turlari.**

**Isbotlash** bir hukmning chinligini u bilan bog'langan boshqa chin hukmlar yordamida asoslashdan iborat bo'lgan mantiqiy amaldir. Uning tarkibi uch elementdan tashkil topgan: tezis, argumentlar (asoslar), isbotlash usuli – demonstratsiya.

Tezis – chinligi asoslanishi lozim bo'lgan hukm, u isbotlashning markaziy figurasi hisoblanadi; butun diqqat-e'tibor uning chinligini ko'rsatishga qaratiladi. Tezis bir mulohazaning o'zidan, yoki mulohazalar tizimidan, yoki teoremlardan, yoki aniq faktlarni umumlashtirish natijalaridan, yoki hodisalarning sababini ko'rsatuvchi mulohazalardan va shu kabilardan iborat bo'ladi.

Argumentlar – tezisning chinligini asoslash uchun keltirilgan hukmlar. Argumentlar bo'lib faktlarni qayd qiluvchi hukmlar, ta'riflar, aksiomalar, teoremlar, qonunlar hamda boshqa empirik va nazariy umumlashmalar xizmat qiladi. Argument sifatida keltirilgan faktlar, albatta, o'zaro bog'langan va tezisning mohiyatiga aloqador bo'lishi lozim.

Ta'riflar ham chin hukmlar bo'lib, ulardan argument sifatida foydalanish mumkin. Masalan, «Harakat – bu har qanday o'zgarishdan iborat», degan ta'rif chin hukmdir.

Aksiomalar chinligi o'z-o'zidan ravshan bo'lgan, isbotlashni talab qilmaydigan fikrlardir. Inson tajribasida ko'p martalab takrorlanganligi uchun ham ularni isbotlash zarur emas.

Teoremlar va qonunlarning chinligi isbotlangan bo'ladi, ularni hech ikkilanmasdan argument qilib olish mumkin.

Isbotlash usuli – demonstratsiya tezis bilan argumentlar o'rtasidagi mantiqiy aloqadan iborat. U xulosa chiqarish shaklida bo'ladi, ya'ni tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqan keltirib chiqariladi.

Isbotlashning ikki turi mavjud: bevosita isbotlash, bivosita isbotlash. Bevosita isbotlashda tezisning chinligi to'g'ridan-to'g'ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bo'lgan hukmlardan foydalanilmaydi. Tezis ko'p hollarda yakka hodisani ifoda qilib keladi va ma'lum bir umumiy bilimdan, masalan, qonundan argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi. Masalan, «O'zbekiston – mustaqil davlatdir», degan hukm (tezis)ning chinligi «O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi, uning xalqaro miqyosda e'tirof etilishi» kabi asoslar yordamida isbotlanadi.

Bivosita isbotlashda esa tezisning chinligi unga zid bo'lgan hukmning (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Antitezis qanday shaklda ifodalangan bo'lishiga qarab apagogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash farq qilinadi. Apagogik isbotlashda tezis (a) va antitezis ( $\bar{a}$ ) o'rtasidagi munosabatga asoslaniladi. Masalan, «Materiya harakatsiz mavjud emas», degan hukmning chinligini asoslash uchun unga zid bo'lgan «Materiya harakatsiz mavjud», degan hukm olinadi.

Apagogik isbotlashda antitezis topilib (1-bosqich), vaqtincha chin deb qabul qilinadi va undan ma'lum bir natijalar keltirib chiqariladi (2-bosqich), so'ngra bu natijalarning xatoligi ko'rsatiladi (3-bosqich) va demak, tezisning chinligi isbotlanadi. Masalan, «Materiya harakatsiz mavjud», degan hukm chin bo'lsa, «Moddiy predmetlar strukturatsiz mavjud», degan fikr (antitezisdan kelib chiqqan natija) ham chin bo'ladi. Bizga ma'lumki, moddiy predmetlar tarkibsiz (uni tashkil qiluvchi elementlar va ularning o'zaro aloqasiz) mavjud emas. Demak, «Materiya harakatsiz mavjud», degan fikr xato, shu tariqa «Materiya harakatsiz mavjud emas», degan fikrning chinligi asoslanadi.

Ayiruvchi isbotlashda tezis sof ayiruvchi hukmning (kuchli diz'yunksiyaning) bir a'zosi bo'lib, uning chinligi boshqa a'zolarining (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Masalan, «Jinoyatni yo A, yo V, yo S shaxslar sodir etgan», degan fikr tekshirilib, «Jinoyatni V shaxs ham, S shaxs ham sodir etmagan»ligi aniqlanadi va shu tariqa «Jinoyatni A shaxs sodir qilgan», degan hukmning chinligi asoslanadi. Bu misolda ayiruvchi isbotlash ayiruvchi – qat'iy sillogizmning inkor etib, tasdiqlovchi modusi bo'yicha qurilgan. Ayiruvchi isbotlashda barcha muqobil variantlar to'liq olingandagina xulosa chin bo'ladi, ya'ni tezis isbotlanadi.

### ***Raddiya. Rad etish usullari.***

**Raddiya** – isbotni buzishga qaratilgan mantiqiy amaldir.



Birorta fikrning chinligini rad etish ayni paytda unga zid bo'lgan fikrning xatoligini ko'rsatishdan iborat bo'lganligi uchun raddiyani isbotlashning xususiy ko'rinishi, deb hisoblash mumkin. Raddiya ham isbotlash kabi tezis (rad qilinishi lozim bo'lgan hukm), argumentlar (tezisni rad qiluvchi hukmlar) va demonstratsiya (rad etish usuli) dan tashkil topgan bo'ladi. Raddiya birorta masalani muhokama qilish, ya'ni bahs, munozara jarayonida uchraydi. Bahs qatnashchilaridan biri ma'lum bir tezisni ilgari surib, uni himoya qilsa (proponent), boshqasi unga qarshi chiqadi (opponent). Hal qilinmagan, Munozarali masalalar bo'yicha olib boriladigan bahslar polemika hisoblanib, unda qarama-qarshi tezislari asoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi.

Raddiya uch xil usul bilan amalga oshiriladi:

- I) Tezisni rad etish;
- II) Argumentlarni rad etish;
- III) Demonstratsiyani rad etish.

#### *I. Tezisni rad etish.*

Tezisni rad etishning quyidagi usullari mavjud:

1. Faktlar orqali rad etish. Bu eng ishonchli va samarali usuldir. Bunda bo'lib o'tgan voqealarga, statistik ma'lumotlarga asoslanib tezis rad etiladi. Masalan, «Sovet davrida O'zbekiston to'laqonli mustaqil respublika bo'lgan», degan tezisni rad etish, ya'ni uning noto'g'ri ekanligini isbotlash uchun tarixiy faktlarga asoslanamiz. O'sha davrda respublika rahbariyati birorta muhim masalani Moskvaning ruxsatisiz hal qila olmaganligiga dalillar keltirib, tezisni rad etamiz.

2. Tezisdan kelib chiqadigan natijalarning xatoligini (yoki ziddiyatli ekanligini) ko'rsatish orqali rad etish. Bunda tezisdan kelib chiqadigan natijalarning chin emasligi asoslab beriladi. Bu usul «bema'nilikka olib kelish», deb ataladi. Rad etilayotgan tezis vaqtincha chin deb tan olinadi, undan kelib chiqadigan natijalar aniqlanib, bu natijalarning haqiqatga zid, noto'g'ri ekanligi isbotlanadi. CHin asosdan xato natija kelib chiqmaydi, aks holda bu bema'nilik bo'ladi. «Bema'nilikka olib kelish» usulining formulasi quyidagicha  $(a \rightarrow b) \rightarrow ((a \rightarrow b) \rightarrow a)$

3. Tezisni antitezisni isbotlash orqali rad etish. Rad etilayotgan tezisga zid bo'lgan yangi tezis (antitezis) olinadi va isbotlanadi. Uchinchi istisno qonuniga muvofiq, antitezisning chinligidan tezisning xatoligi keltirib chiqariladi.

#### *II. Argumentlarni rad etish.*

Tezisni isbotlash uchun opponent tomonidan keltirilgan argumentlar tanqid qilinib, ularning xatoligi yoki tezisni isbotlash uchun yetarli emasligi aniqlanadi.

Argumentlarning xatoligi tezisning ham xato ekanligini isbotlamaydi, bunda tezis chin bo'lishi ham mumkin:

Argumentlarni rad etish orqali tezisning isbotlanmaganligi asoslab beriladi.

### *III. Isbotlash usulini tanqid qilish orqali rad etish.*

Rad etishning bu usulida isbotlashda yo'l qo'yilgan xatolar aniqlanadi. Bunda rad etilayotgan tezisning chinligi uni asoslash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasligi asoslab beriladi. Isbotlash usulida yo'l qo'yilgan xato aniqlanganda tezis rad etilmaydi, uni qayta isbotlash talab qilinadi.

Rad etishning yuqorida ko'rsatilgan usullari ko'pincha birgalikda, bir-birini to'ldirgan holda qo'llaniladi.

### *Isbotlash va rad etish qoidalari, ularni buzganda kelib chiqadigan mantiqiy xatolar*

#### **Tezisga aloqador qoidalar:**

1. Tezis mantiqan aniq va ravshan bo'lishi kerak. Bu qoida buzilsa, isbotlash yoki rad etish o'zining aniq predmetiga ega bo'lmay qoladi, uni amalga oshirishga urinish behuda ish hisoblanadi.

2. Tezis isbotlash yoki rad etishning boshidan oxirigacha o'zgarmasligi kerak. Bu qoida buzilsa, «tezisni almashtirish» degan xato kelib chiqadi.

#### **Argumentlarga nisbatan qoidalar:**

1. Tezisni asoslash uchun keltirilgan argumentlar chin hukmlar bo'lishi va bir-biriga zid bo'lmasligi lozim.

2. Argumentlar tezisni asoslash uchun yetarli bo'lishi kerak.

3. Argumentlar tezisdan mustaqil holda chinligi isbotlangan hukmlar bo'lishi lozim.

#### **Isbotlash usulining qoidasi:**

1. Tezis argumentlardan mantiqiy tarzda kelib chiqadigan xulosa bo'lishi lozim. Buning uchun isbotlash yoki rad etishda xulosa chiqarish qoidalariga rioya qilish zarur.

Isbotlash va rad etish qoidalarining buzilishi mantiqiy xatolarga olib keladi. Bu xatoliklar uch turga bo'linadi:

#### **I. Isbotlanayotgan tezisga aloqador xatoliklar:**

1. Tezisni almashtirish. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida o'zgarmasligi shart, degan qoidaning buzilishi tezisning almashtirilishiga sabab bo'ladi. Tezis ataylab yoki bilmasdan boshqa tezis bilan almashtiriladi va bunda yangi tezis isbotlanadi yoki rad etiladi. Tezis mazmunining toraytirilishi yoki kengaytirilishi ham bahs jarayonida

tezisning o'zgarishiga olib keladi. Masalan, respublikamiz taraqqiyoti uchun milliy mafkura, milliy g'oyaning ahamiyati to'g'risidagi tezisni isbotlash davomida umuman jamiyatga mafkura kerakmi yoki yo'qmi, degan masalani isbot etishga harakat qilinsa, unda tezisning mazmuni kengayib ketadi va tezis almashinadi.

2. Insonning shaxsiy sifatini bahona qilib tezisni almashtirish. Bahs jarayonida mavzudan chetga chiqib, opponentning shaxsiy, ijtimoiy hayoti, yaxshi fazilatlari yoki kamchiliklari xususida fikr yuritib, shu asosda tezisni isbotlangan yoki rad etilgan, deb ta'kidlash tezisning almashinishiga sabab bo'ladi. Bunday xatoga ataylab yo'l qo'yiladi. Tinglovchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir qilish orqali isbotlanmagan tezisning chin deb qabul qilinishiga urinish ham tezisni almashtirish hisoblanadi.

3. Ortiqcha yoki kam isbotlashga urinish natijasida tezisning almashinishi. Fikr ortiqcha isbotlansa, berilgan tezis o'rniga undan kuchliroq tezisni isbotlashga harakat qilinadi. Agar A hodisadan V kelib chiqsa, lekin V hodisadan A kelib chiqmasa, unda A hodisani ifodalovchi tezis V hodisani ifodalovchi tezisdan kuchliroq bo'ladi. Masalan, «A shaxs birinchi bo'lib janjalni boshlamagan» degan tezis (V) o'rniga, «A shaxs umuman janjal bo'lgan yerda yo'q edi» degan tezisni (A) isbotlashga harakat qilinadi. Ikkinchi tezisni isbotlab bo'lmaydi, chunki A shaxsning janjalda qatnashganligini ko'rgan guvohlar bor.

## **II. Argument (asos)larga taalluqli xatolar:**

1. Asoslarning xatoligi. Tezis isbotlanganda yoki rad etilganda xato argumentlarga chin deb asoslanish natijasida ataylab yoki bilmasdan mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, Qadimgi grek faylasufi Fales o'z ta'limotini hamma narsa suvdan paydo bo'lgan, degan fikrga asoslanib yaratgan.

2. Asoslarni avvaldan taxminlash shaklidagi xato. Tezis isbotlanmagan argumentlarga asoslansa, bunday argumentlar tezisning chinligini isbotlamaydi, balki tezisning chinligi taxminlanadi, xolos.

3. «Aylanma isbot etish» deb nomlanuvchi xato. Tezisning chinligi argumentlar orqali, argumentlarning chinligi tezis orqali isbotlansa mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, «So'zning qudrati fikr bilan o'lchanadi», degan tezisni «Fikrning qudrati so'z bilan o'lchanadi», deb isbotlasak, yuqorida aytilgan xatoga yo'l qo'yiladi.

## **III. Isbotlash usuli (demonstratsiya) bilan bog'liq xatolar.**

1. «Yolg'on (soxta) isbotlash». Agar tezis uni isbotlash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasa, mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Bunda tezisga aloqador bo'lmagan argumentlarga asoslaniladi. Masalan, «A shaxs yomon odam», degan tezis «Tunda yomon odamlargina ko'chada yuradi», «A shaxs ko'chada tunda yuribdi» degan argumentlar bilan asoslansa, fikr yuzaki (soxta) isbotlangan bo'ladi.

2. SHartlangan fikrdan shartlanmagan fikrga o'tish. Muayyan vaqt, munosabat doirasida chin bo'lgan (shartlangan) fikrni, doimiy, o'zgarmas chin fikr deb qabul qilish natijasida mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi.

3. Xulosa chiqarish qoidalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan xatolar:

a) deduktiv xulosa chiqarishda uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bu haqda deduktiv xulosa chiqarish mavzusida batafsil ma'lumot berilgan;

b) induktiv xulosa chiqarishda uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bular «shoshib umumlashtirish» va «undan keyin, demak, shuning uchun», deb ataluvchi xatoliklardir. Masalan, bir-ikki talabaning darsga mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lishini umumlashtirib, «hamma talabalar mas'uliyatsiz», deb ta'kidlash xatodir;

v) analogiyada uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bular «yolg'on analogiya» bilan bog'liq xatolardir. Unda tasodifiy belgining zaruriy deb olinishi, faqat birgina o'xshash belgiga asoslanishi yoki mutlaqo taqqoslab bo'lmaydigan hodisalarning o'zaro taqqoslanishi natijasida fikrda chalkashliklar yuzaga keladi.

Mantiqiy xatolar tafakkur qonunlarini buzish, xulosa chiqarish qoidalariga amal qilmaslik natijasida yuzaga keladi. Mantiq tarixida isbotlash jarayonida ataylab (qasddan) xatoga yo'l qo'yuvchilar – sofistlar deb, ularning ta'limoti esa sofizm (grek. – ayyorlik) deb ataladi. Fikr yuritish jarayonida bilmasdan mantiqiy xatoga yo'l qo'yilsa, paralogizm deyiladi. CHinligini ham, xatoligini ham birday isbotlash mumkin bo'lgan fikrlar esa paradoks deb ataladi.

Bahs yuritish san'ati (eristika) o'ziga xos qonun-qoidalarga amal qilishni talab etadi.

Bularga asosan quyidagilar kiradi:

– zaruriyatsiz bahslashmaslik;

– mavzusiz bahs yuritmaslik va bahs davomida mavzudan chetga chiqmaslik yoki mavzuni o'zgartirmaslik;

– bahs mavzusi yuzasidan o'zaro zid yoki qarama-qarshi fikrlar bo'lmasa, bahsni to'xtatish;

– mavzuni yaxshi biladigan, aqlli odamlar bilangina bahslashish;

– bahs yuritishda mantiqiy qonun-qoidalarga amal qilish, o'zining va muxolifining fikrlaridan xulosa chiqara olish, mantiqiy ziddiyatlarni aniqlash va bartaraf etish, asoslar to'g'ri bo'lsa, isbotlashning ham to'g'riligini e'tirof etish va h.k.;

– bir bahs doirasida bahslashish usullarini aralashtirib yubormaslik.

Argumentlashning mantiqiy asoslarini bilish va bahs yuritish qoidalariga amal qilish tafakkur madaniyatini yuqori darajaga ko'tarish imkonini beradi.

### ***Mashqlar***

1. Quyidagi muhokamalarni argumentlashning tarkibi va turlari nuqtai nazaridan tahlil qiling:

1.1. Sokin kabinetlarda tug'iladigan bir mafkurani o'z-o'zidan hayotga, uning barcha qatlamlariga singib ketadi, deb o'ylash xom xayoldan boshqa narsa emas.

Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizga xos bo'lgan eng muqaddas tuyg'u va tushunchalarning mujassam ifodasi bo'lishi kerak.

1.2. Hali geliotsentrizm sharpasi yo'q zamonda al-Farg'oniy, Yer eng kichik yulduzdan ham kichikdir, degan fikr bilan maydonga chiqdi va unga asos qilib, Yer radiusi Osmon radiusidan juda ozligini aytdi. (O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar Akademik M.M.Xayrullaev tahriri ostida. – T.: "O'zbekiston", 1995, 34-bet).

2. Quyidagi misollarning qaysi birining bevosita isbotlashga, qaysinisining vosita isbotlashga oid ekanligini aniqlang:

2.1. Barcha kishilar o'z tabiatiga ko'ra bilim olishga intiladi. Buning isboti quyidagicha: odamlar hissiy qabullash xususiyatiga ega; hissiyotlarning foydasi bo'lish-bo'lmasligidan qat'i nazar, ularni va, ayniqsa, hammadan ko'proq ko'rish sezgisini qadrlashadi; chunki ko'rishni, aytish mumkinki, boshqa sezgilardan afzalroq deb bilamiz; bu xatti-harakat sodir qilish uchun zarur bo'lgandagina emas, balki hech narsa qilmoqchi emas paytimizda ham shundaydir. Buning sababi shundaki, ko'rish boshqa sezgilarimizga qaraganda ko'proq bilishimizga turtki beradi va buyumlardagi ko'p tafovutlarni aniqlaydi (Arastu. Sochineniya v 4-x t. T.1, M., 1976, s.65).

2.2. Samolyotning avariya uchrash sababini o'rganish jarayonida ilgari surilgan versiyalar tahlil qilinib, bir qanchasining xato ekanligi ma'lum bo'lgach, ikkita versiya qoldi: 1) samolyot texnik jihatdan nosoz; 2) ekipaj xatoga yo'l qo'ygan. Keyingi tekshirishlar davomida samolyotning texnik jihatdan soz ekanligi tasdiqlandi. SHu asosda, samolyotning avariya uchrashiga sabab ekipajning xatoga yo'l qo'yganligidir, degan xulosaga kelindi.

2.3. Sillogizmning 2-figurasida asoslardan biri inkor hukm bo'lishi kerak. Bu qoidaning chinligi quyidagicha isbotlanadi: har ikkala asosni ham tasdiq hukm deb faraz qilaylik. U holda asoslarda predikat o'rnini egallab turgan o'rta termin ikkalasida ham to'liqsiz hajmda bo'lib qolishi mumkin. Bu esa sillogizm umumiy qoidalaridan biriga, ya'ni o'rta termin hech bo'lmaganda bir asosda to'la hajmda bo'lishi zarur, degan qoidaga

zid. Demak, sillogizm 2-figurasi asoslaridan biri, albatta, inkor hukm bo'lishi kerak, chunki faqat inkor hukmlardagina predikat doimo to'la hajmda bo'ladi.

3. Quyidagi misollarda bayon qilingan raddiyalarning tarkibi va turlarini aniqlang:

3.1.«Odam bo'yining kichikligi sababli Yerning sharligi sezilmaydi, degan so'z to'g'ri emas. Chunki odam bo'yi baland tog' qadar bo'lsa ham bir joyda turib, yer ustiga qarasa-yu, joydan joyga ko'chib, yerdagi bor turli holatlarni bir-biriga solishtirib qaray olmasa, unday uzun bo'y yerning sharligini bilishga ham, uning chegarasini aniqlashga ham foyda keltirmaydi» (Abu Rayhon Beruniy asarlaridan olingan o'ylar va hikmatlar. Aziz Qayumov. Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali ibn Sino. T., 1987, 233-bet).

3.2.Demokritning, atomlar sifatga ega emas va ularga ega bo'la olmaydi, degan fikrining rad etilishi: «Issiqlik qayoqdan paydo bo'lgan va u atomlarga qanday o'tgan: axir atomlar dastlab issiqlikka ega bo'lmagan va bir-biri bilan o'zaro to'qnashib turganda ham issiqlikni keltirib chiqarmagan. Haqiqatan ham ular avval-boshdanoq issiq bo'lganlarida sifatga ega bo'lur edi; agar issiqlikka ega bo'lib qolganday bo'lsa, bu ularning o'z tabiatiga ko'ra birorta kuch ta'siri ostida bo'lishi mumkinligini bildiradi. Lekin siz o'zingiz, atomlarga, ular bo'linmas bo'lganligi uchun har ikkala xususiyat xos emas, deb aytyapsiz». (Svidetel'stvo Plutarxa. Fragment 216 \\\ Lur'e S.Ya. Demokrit. Teksty. Perevod. Issledovaniya. L., 1970, s.256–257).

3.3. «Kommunistik jamiyat va davlat totalitarlikka da'vo qiladi. Bu asosiy xatodir. Faqat ilohiy olamgina totalitar bo'lishi mumkin, inson olami doimo juz'iydir. Kommunizm g'oyasida inson olami ilohiy olamga aylanib qolgan» (Berdyayev N.A. Istoki i smysl russkogo kommunizma. M., 1990, s.125).

4. Quyidagi isbotlash va rad etish hollarida qanday xatolarga yo'l qo'yilganligini ko'rsating:

4.1.Tafakkur tabiatdan farqli o'laroq, ob'ektiv qonuniyatlar asosida rivojlanmaydi, chunki u turli xil xohish-irodaga ega va shundan kelib chiqib faoliyat yuritadigan insonga xos xususiyatdir.

4.2.Bu kishi, shubhasiz, ichuvchidir: burniga qarang, qip-qizil.

4.3.XVI asrda Luven universiteti professori Fruadmon Kopernikka qarshi chiqadi. «Er, uning fikricha, planeta bo'la olmaydi, Quyosh atrofida aylanishi mumkin emas, chunki Yerning markazida do'zax joylashgan bo'lib, u osmondan iloji boricha uzoqroqda turishi kerak. Demak, Yer samoviy fazo markazida bo'lishi kerak» (Kumpan F.Istoriya chisla A. - M., 1971, s.37).

4.4.«Antisfenning ta'kidlashicha, sog'lom fikr yurita olish darajasiga yetgan kishi, boshqalar izidan borib, to'g'ri yo'ldan chiqib ketmasligi uchun mavjud so'z boyligini

o'rganishi kerak emas» (Diogen Laertskiy. O jizni ucheniyax i izrecheniyax znamenitых filosofov. M., 1986, s.246).

4.5. O'zi odamlarni uzoq vaqt tarbiyalash shart bo'lar ekan, davlat, so'zsiz, yoshlar tarbiyasi to'g'risida qayg'uradi. Chunki mazkur tarbiya vositasida kelajakda unga tayanch bo'la oladigan kishilar shakllanadi (K.Yaspers. Смысл i naznachenie istorii. M., 1991, s.354).

5. Quyidagi sofizmlarni mantiqiy tahlil qiling:

5.1. Bir daryoga ikki marta tushib bo'lmaydi. Tushib borayotganingizda daryodagi suv o'zgaradi, demak, daryo o'zgaradi, ya'ni u avvalgi daryo bo'lmay qoladi.

5.2. O'tirgan kishi o'rnidan turdi. U endi turgan kishi bo'lib qoldi. Demak, o'tirish ham, turish ham – bir narsa.

5.3. Chavandoz otdan tushishi mumkin emas. Chunki otdan tushgan kishi chavandoz bo'lmay qoladi. Demak, otdan tushgan kishi chavandoz emas, balki piyodadir.

5.4. Men kimningdir portretini ko'rdim. Unda kimningdir g'ildirakni kashf qilganligi tasvirlangan. Demak, men g'ildirak ixtirochisining portretini ko'rdim.

6. Quyidagi mantiqiy paradokslarni tahlil qiling:

6.1. «Aldoqchi» paradoksi. Aldoqchi, «hozir men bildiradigan mulohaza xato», desa, bir vaqtda u ham aldayotgan, ham rostini gapirayotgan bo'ladi. Haqiqatan ham, u rostini gapirayotgan bo'lsa, bildirilgan mulohaza xato bo'ladi; agar aldayotgan bo'lsa, bildirilayotgan mulohazaning xatoligi haqidagi fikr xato bo'ladi, ya'ni u mulohaza chin bo'ladi.

Eslatib o'tamiz: qadimda «aldogchi» paradoksi fikrning ikki xil ma'noga ega bo'lishiga misol sifatida olib qaralgan. O'rta asrlarda esa «hal qilib bo'lmaydigan gaplar» qatoriga qo'shilgan. Hozirgi paytda u «mantiqiy paradokslarning shohi» deb sanaladi. Mazkur paradoksni yechishning o'nlab variantlari taklif qilingan, lekin hozirgacha uning negizida qanday muammolar yashirinib yotganligi sir bo'lib qolmoqda.

6.2. Eramizgacha V asrda yashab, ijod qilgan taniqli mutafakkir-sofist Protogor Yevatl ismli shogirdiga huquq asoslarini o'rgatadi. Ular o'rtasida quyidagicha kelishuv bo'lgan: Yevatl ustoziga uning saboq berganligi uchun haqni birinchi sud jarayonini yutib chiqqan holdagina to'laydi. Lekin o'qishini tugatgandan keyin Yevatl sud jarayonlarida qatnashgani yo'q. Bu hol uzoq vaqt davom etgach, ustozning toqati toq bo'lib, o'z shogirdini sudga beradi. Bunda u: agar yutib chiqsam, mehnat haqimni sud qarori bo'yicha olaman; agar shogirdim yutsa, unda o'zaro kelishuvimizga muvofiq Yevatl o'zining birinchi yutib chiqqan sud jarayoni bo'lgani uchun to'lashga majbur, deb o'ylaydi.

O'ta qobiliyatli bo'lgan Yevatl ustoziga quyidagicha javob beradi: haqiqatan ham men sud jarayonini yo yutaman, yo yutqazaman. Agar yutsam, sud qarori meni to'lovdan ozod qiladi; agar yutqazsam, o'zaro kelishuvimizga binoan to'lamayman.

Ishning bunday tus olganligidan boshi qotib, Protagor o'zining Yevatl bilan bo'lgan bahsiga «To'lovga oid qiyinchilik» asarini bag'ishlaydi va unda mazkur muammoning maxsus tadqiq qilinishga loyiq ekanligini alohida ta'kidlaydi. (Misollar «A.A.Ivin. Iskusstvo pravil'no myslyt'. M., 1990»dan olingan. 193 –196-betlar).

7. Quyidagi muhokamalarda mantiqiy paradokslarning bor-yo'qligini aniqlang. Agar paradoks mavjud, deb hisoblasangiz, uning kelib chiqish sababini topishga harakat qiling.

7.1.Qadimgi grek faylasufi Sokrat, «Men hech narsani bilmas ekanligimni bilaman», deb aytgan. Bu fikrda ichki ziddiyat yo'qmi? Axir «hech narsani bilmas ekanligi»ni anglash ham bilishdan iborat emasmi?

7.2.«Isbotlashning yo'q ekanligi isbotlandi», degan mulohazada ichki ziddiyat borgan o'xshaydi: bir tomondan unda isbotlashning yo'q ekanligi ta'kidlanadi, ikkinchi tomondan esa, bu fikrning isbotlanganligi ma'lum qilinadi va bu bilan isbotlashning mavjudligi tan olinadi.

Qadimgi dunyoning taniqli skeptiklaridan biri Sekst Empirik uning quyidagicha yechimini taklif qiladi: «Bundan boshqa isbotning mavjud emasligi isbotlangan». Bu yechim to'g'rimi? Axir unda bitta isbotning borligi aytilgan?! Faqat bir marta qo'llanishi mumkin bo'lgan isbotni qanday tasavvur qilish mumkin? (Misollar A.A.Ivinning yuqorida qo'rsatilgan kitobidan olindi. 200–201-betlar).

8. Quyidagi bahsni mantiqiy tahlil qiling. «Mahmud G'aznaviy Xorazmni egallagan (1017) yil. Beruniy va uning hamkasbi olim Abdusamad Avvalni podshoh o'z huzuriga da'vat qilayotganini xabar qildilar.

Podshoh Mahmud G'aznaviy Beruniyning salomiga javoban bir bosh irg'itgan bo'ldi-da, Abdusamadni so'roq qilishda davom etdi:

– Musulmon dinining ashaddiy dushmanlari kofir karmatiylarni maqtab, ularning xudo yo'liga zid, shariatga xilof e'tiqodini targ'ib etuvchi kitobni sen yozganmisen?

– Men, taqsir. Ammo karmatiylarning e'tiqodi bu kitobda targ'ib etilgan emas, faqat bayon etilgan, – deb javob qildi Abdusamad. Uning ovozi parisonlik va xavotir sezilib turar edi.

– Islomga ixtilofli e'tiqodni bayon etmoq, uni targ'ib etmoq demakdir.

– Podshoh hazratlari, ilmlarni o'rganmoq har bir musulmon va musulmon ayolning vazifasidir, deganlar Rasulilloh, – odob va yovvoshlik bilan javob qildi Abdusamad. –



O'zga e'tiqodlarni o'rganmoq va tahlil etmoq shariatga xilof bo'lmas, bu ish ilm uchun darkordir.

– Qatl etilsin bu kofir! – deb buyurdi shoh.

Podshoh Beruniyga yuzlandi va undan so'radi:

– Karmatiylar to'g'risidagi kitobga sizning ham aloqang'iz bo'lganmi?

– Bo'lgan, podshohim. Men bu kitobning mualliflaridan birimen.

– Kofir karmatiylarning islom diniga dushmanlikdan iborat e'tiqodini ne vajdan targ'ib etadursiz?

– Har bir xalq va jamoa o'z e'tiqodiga ega bo'lish huquqiga molik. Olimning vazifasi ularni chuqur o'rganmoq, haqiqat qay biriga ko'proq oid ekanini aniqlamoqdir. Bu vazifaning ijrosi bilan e'tiqod targ'ibi orasida farq kattadir.

– Sizning bunday kajbahsligingiz boshingiz kesilishiga bois bo'lur, buni anglab yetasizmi?

– Taqdir bizga shunday qismatni nasib etgan bo'lsa, unga rizo bo'lmay ne choramiz bor.

Vazir turgan joyida yana bir bor seskanib tushdi». (Aziz Qayumov. Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali ibn Sino. T., 1987, 53–54 - betlar).

### ***Takrorlash uchun savollar***

1. Argumentlash nima?
2. Ishonch-e'tiqod qanday hosil bo'ladi?
3. Isbotlash qanday tarkibga ega?
4. Isbotlashning qanday usullari mavjud?
5. Rad etish isbotlash bilan qanday aloqada?
6. Rad etishning qanday usullarini bilasiz?
7. Isbotlash va rad etish qoidalarini buzganda qanday mantiqiy xatolar vujudga keladi?
8. Paralogizm, sofizm va mantiqiy paradokslarning mohiyati nimada?
9. Bahs nima? Bahs, munozara yuritishning qanday umumiy qoidalari bor?

### ***Tayanch tushunchalar***

Argumentlash, ishonch-e'tiqod, isbotlash, rad etish, baxs yuritish, munozara, polemika, paralogizm, sofizm, mantiqiy paradoks.

### **3-mavzu: Formal mantiq to'g'ri tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan sifatida. (2 soat)**

#### **Reja:**

*1. Mantiq fanining predmeti*

*2. Formal mantiq to'g'ri tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan sifatida*

*3. Mantiq turlari*

*Formal mantiq to'g'ri tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan sifatida*

Mantiq keng ma'noda olamdagi qonuniy, zaruriy bog'lanish va aloqalar, tartib va izchillik, tafakkurimizning ichki aloqadorligi, tadrijiy rivojlanishi, turli fikrlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni ifodalaydi. Tafakkur voqelikni umumlashtirib va mavhumlashtirib, muayyan mantiqiy shakllarda, ya'ni tushuncha, hukm va hulosalar chiqarish hamda ular o'rtasidagi aloqalar shaklida aks ettirib, ma'lum mantiqiy qonun – qoidalarni vujudga keltiradiki, to'g'ri, aniq, izchil, ziddiyatlardan holi fikrlash ana shu qonun – qoidalarga amal qilishni taqozo etadi. Bu qonun-qoidalar amaliyotda vujudga kelgan bilimlarni isbotlashga yoki rad etishga, ularning to'g'riligi yoki xatoligini tasdiqlashga yoki inkor etishga xizmat qiladi.

Tafakkurni mantiq fanidan tashqari falsafa, fiziologiya, psixologiya, dialektika, kibernetika fanlari ham o'z predmeti nuqtai nazaridan o'rganadi. Grammatika mantiq faniga yaqin. Tushuncha va hukmlarning ifodalanish strukturasi aniqlashda grammatikaning roli katta. Biroq yuqorida tilga olingan fanlarning har biri tafakkurga o'z nuqtai nazaridan yondoshadi, uning turli qirralarini ochib beradi. Hozirgi kunda mantiq ilmining o'zining ham turli yo'nalishlari, tarmoqlari mavjud, ular orasida inson tafakkurini eng oddiy qonun – qoidalar bilan qurollantiradigan, uni to'g'ri fikrlashning tamoyillari bilan tanishtiradigan muhim tarmog'i formal mantiq bo'lib, u tarixiy kelib chiqishini e'tiborga olgan holda an'anaviy mantiq, ommaviyligi nuqtai nazaridan esa, umumiy mantiq deb ham yuritiladi.

Mantiq fani inson tafakkurining eng umumiy shakllari, qonunlari va fikrlash usullarini o'rganadi. Mantiq fani tafakkurni rivojlantiradi, insonda umumiy tushunchalar, kategoriyalar bilan ish ko'rish ko'nikmalarini hosil qiladi. Bu esa, bugungi fan texnika rivoji jadallashgan sharoitda ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda ilmiy – nazariy ma'lumotlarni samarali tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi.

#### ***Formal va dialektik mantiq fanlari***

Falsafiy adabiyotlarda dialektik mantiq bilan formal mantiq mavjudligi ta'kidlanadi. Bularning birinchisi tafakkur shakllarini ularning rivojlanishida olib qarasa, ikkinchisi ularni shakllangan fikrlar sifatida o'rganadi. SHuningdek, dialektik mantiq

tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida olib o'rgansa, formal mantiq fikrning shaklini uning konkret mazmunidan chetlashgan hamda nisbatan mustaqil holda olib tadqiq etadi. SHuning uchun dialektik mantiq fikrlarimizning taraqqiyoti, rivojlanishini, formal mantiq esa nisbiy turg'unligini aks ettiradi. Dialektika fikrlashning formal mantiq qonun – qoidalariga amal qilishni taqazo etadi. Dialektika ham, formal mantiq ham hamma vaqt falsafa tarkibida rivojlanib kelgan.

Dialektika esa rivojlanish jarayonida aynanlik, tafovutlar va qarama – qarshiliklar darajasiga ko'tariladi, nozidlik taraqqiyot manbai bo'lmay, balki ular o'rtasidagi qarama – qarshilik taraqqiyotni ta'minlaydi, deb ko'rsatadi. Formal mantiq va dialektik mantiq bir – biriga muqobil metodlarga asoslanadi. Ular mustaqil ta'limot hisoblanadi. Dialektik mantiq falsafiy metod sifatida, falsafaning muhim tarkibiy qismi sifatida mavjud bo'lsa, formal mantiq mustaqil fan sifatida shakllangan ta'limotdir.

### ***Matematik mantiq fani***

Matematik mantiq – fikrlash jarayonini turli simvollar yordamida, matematik usul asosida o'rganadi. Bu ta'limot mantiq fanining rivojlanishidagi yangi bosqich hisoblanadi. Ammo matematik mantiqning matematikaning o'zidan ham, mantiq ilmidan ham farqli tomonlari bor. SHuning uchun matematikaning barcha tomonlarini bu mantiq qonunlari bilan izohlab bo'lmaydi. SHuningdek, mantiqiy qonun va shakllarining hammasini ham matematik usul bilan hal qilib bo'lmaydi. SHunga qaramasdan matematik usul mantiq faniga singib bormoqda, uning ajralmas qismi bo'lib takomillashmoqda.

Hozirgi zamon mantiq ilmini simvollarsiz, matematik mavhumiylisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. SHuning uchun mantiq ilmi mutaxassislari matematik mantiq asoslari bilan tanish bo'lishlari zarur.

Mantiq jarayonini turli simvollar bilan ifodalashga intilish Arastu asarlaridayoq ko'zga tashlanadi. XVI – XVII asrlarga kelib, mexanika va matematika fani rivojlanishi bilan matematik metodni mantiqqa tadbiiq etish imkoniyati kengaya bordi. Nemis faylasufi Leybnits har xil masalalarni yechishga imkon beruvchi mantiqiy matematik metod yaratishga intilib, mantiqni matematiklashtirishga asos soldi.

Mantiqiy jarayonni matematik usullar yordamida ifodalash asosan XIX asrlarga kelib rivojlana boshladi. Bu davrda yashagan rus olimi I. S. Poretskiy, nemis va ingliz olimlari J. Буль, Фуге, Morgan, SHryoder kabilar o'zlarining asarlarida bu masalaga oid muhim fikrlarni ilgari surishdi. Hozirgi vaqtda matematik mantiq metodlari fan va texnikada, kibernetikada tarjimon mashinalarda va boshqa ko'p halq xo'jaligi sohalarida qo'llanilmoqda.

### ***Mantiq fanining yo'nalishlari***

**Formal mantiq** - fikrlashning tuzilishi va uning qonunlari haqidagi fandır. Formal mantiq fikrlashning rivojlanishini, uning takomillashish jarayonini o'rganishni o'zidan

soqit qiladi. U fikrlashning mantiqiy tuzilishini, shaklini o'rganadi. Insonning fikrlash shakli, tuzilishi turli qonunlarga asoslanadi va ularni keltirib ham chiqaradi. Mantiqiy shakllarni simvollar yordamida ifoda etish mumkin. Masalan, «Hamma ziyolilar aqliy mehnat bilan shug'ullanadilar», «Hamma kapalaklar hasharotdir» degan fikrlarning mazmuni turlicha bo'lsada, ularning tuzilishi, shakli bir xildir. SHuning uchun ularni «Hamma S – R dir» yoki «Hamma a – v dir», deb ifodalash mumkin. Formal mantiq va klassik mantiq tushunchalari sinonim tushunchalar bo'lib, unda muloxazalar ikki qiymatli, ya'ni chin yoki xato bo'ladi.

Klassik mantiqdan farq qiluvchi hozirgi zamon mantig'i turli yo'nalishlardan iborat bo'lib, ular birgalikda noklassik mantiq deb nomlanadi.

**Ko'p ma'noli mantiq** hozirgi zamon noklassik mantig'ining bir tarmog'i bo'lib, fikrlashni «chin», «xato», «qisman chin», «qisman xato», kabi tushunchalar orqali ifodalaydi. Agar umumiy formal mantiqda mulohazalar ikki qiymatli (chin yoki xato) bo'lsa, ko'p ma'noli mantiqda mulohazalar uch va undan ortiq qiymatlidir. SHuning uchun bu mantiq «ko'p ma'noli mantiq» deb yuritiladi. Bu mantiqda eng oddiy sistema uch ma'nolidir. Masalan, Siz “inson huquqlari deklaratsiyasi”ni bilasizmi? -degan savolga “ha”, “yo'q”, “ozgina bilaman ” kabi javoblarni olish mumkin.

**Induktiv mantiq** (lot. **Intuitio** – diqqat bilan e'tibor berish, diqqat bilan kuzatish) – Hozirgi zamon noklassik mantig'i tarmog'i bo'lib, matematik intuitsiya printsiplaridan kelib chiqadi. Bu printsiplar XX asr olimlari L. E. Brauer va A. Geytinglar tomonidan ishlab chiqilgan. Ma'lumki, nemis olimi Kantor ishlab chiqqan to'plam nazariyasi bir necha hal qilib bo'lmaydigan paradokslarga uchragandan so'ng, bu krizisdan qutilish uchun logitsizm, formalizm, konstruktivizm, intuitsionizm kabi oqimlar paydo bo'ladi. Bular bunday ziddiyatni formal mantiq asosida hal qilishga harakat qildilar.

Klassik mantiqqa asoslangan matematikada  $\forall XA(x)$  ifoda quyidagicha o'qiladi: «Hamma  $X \in A$  xossasiga ega». Klassik mantikqa ko'ra, agar bu ifodalar arifmetika aksiomalariga mos kelsa, to'g'ri (chin) deb qabul qilinadi. Matematika uchta musbat sonlarning bir butuni h dan tuzilgan, uni

$A(h)$ ning tashkil topish usuli qiziqitirmaydi. Intuitiv mantiqda bu sonning tuzilish usuli ma'lum bo'lgandagina  $\exists x \in A(x)$  ifodasi chin (to'g'ri) hisoblanadi.  $A$  ning to'g'riligidan (chinligidan)  $V$  ning to'g'riligini bevosita keltirib chiqarish metodi ishlab chiqilgandagina, implikasiya ( $a \rightarrow v$ ) chin (to'g'ri) hisoblanadi.

**Konstruktiv mantiq** – hozirgi zamondagi matematik mantiqning asosiy oqimlaridan biri. Bu mantiq konstruktiv matematikaga asoslanib, intuitiv mantiq qoidalarini tanqidiy o'rganish asosida paydo bo'lgan. Mantiqdagi bu oqim ham Kantor to'plam nazariyasidagi paradoksni hal qilishga urinish asosida paydo bo'ldi. Konstruktiv mantiq real voqelikda mavjud bo'lmagan ham, lekin fikrda qurish mumkin bo'lgan ob'ektlarni mantiqiy taxlil qiladi. Xususan, Sokrat mayovtika usulini, Demokrit

“Kanon”da (kanon – mezon, qoida) tayyor bilimlarning chin yoki xatoligini aniqlaydigan usullarni ishlab chiqqan, Arastu “Organon”ida (organon – bilim quroli) fikrni mantiqan to’g’ri qo’rish va bilimlarni hosil qilish vositalarini tadqiq etadi. Keyinchalik mantiq kanonmi yoki organonmi? degan savol mantiqda keng muhokama kilingan.

**Logitsizm** – bu oqim ham Kantor to’plam nazariyasidagi paradokslarni hal qilishga intilish asosida vujudga kelgan. Logitsizm ham noklassik mantiqning tarmog’i bo’lib, mantiq ilmini matematikadan ustun qo’yishga intilgan oqimdir. Bu tarmoq vakillari matematika va mantiq ikki xil fan emas, balki bitta yagona fandır, deb ta’kidlaydilar. Matematikani mantiq doirasiga to’laligicha kiritish mumkin, buning uchun xech qanday qo’shimcha tushunchalar talab qilinmaydi deb ko’rsatadilar. Bu fikr matematik haqiqatni aniqlashda juda katta ahamiyatga ega edi. Matematika rivoji uchun boshqa fanlarga nisbatan mantiq juda katta ahamiyat kasb etadi. Undagi teoremlar, aksiomalar kuchli mantiqiy asosga ega. Matematika qadimdan mantiqan izchil fan deb hisoblangan. Biroq matematikani mantiq ilmi bilangina izohlash mumkin emasligini ko’pchilik matematik va mantiqshunoslar tan olishadi.

Logitsizmni XVIII asr nemis faylasufi Leybnits boshlab bergan bo’lib, uni XX asr ingliz faylasufi B. Rassel nixoyasiga yetkazdi. G. Frege, D. A. Bochvar, A. CHyorch kabi matematik va mantiqshunoslar B. Rassel karashini keskin tanqid qildilar va noklassik mantiqni boshqa yo’nalishlarda rivojlantirdilar.

### ***Mantiq fani va ilmiy bilish metodologiyasi***

Mantiq bilish, to’g’ri fikrlash metodlarini o’rganuvchi fandır. Ilmiy bilish jarayonida metod muammosi qadimgi davr falsafasida qo’yilgan. Xususan, Sokrat mayevtika usulini, Demokrit “Kanon”larda (kanon-mezon, qoida) tayyor bilimlarning chin yoki xatoligini aniqlaydigan usullarni ishlab chiqqan. Aristotel “Organon”ida (organon-bilish quroli) fikrni mantiqan to’g’ri qurish va chin bilim hosil qilish vositalarini tadqiq etgan. Keyinchalik mantiq kanonmi yoki organonmi?, degan savol mantiqda keng muhokama qilingan.

Yangi davrda F. Bekon birinchilardan bo’lib metod muammosini mantiq fani doirasida taxlil qilgan. R. Dekart va I. Kantlar ham bu masalaga alohida e’tibor qaratganlar. Gegel metodologiya rivojiga muhim xissa qo’shdi. Albatta, ilmiy bilish jarayonida har bir fan konkret tadqiqot ob’ektiga ega ekan, o’zining maxsus tadqiqot usullarini ishlab chiqishi zarur. Masalan, fizikaga N. Bor qo’shimcha qilish printsipini kiritgan.

Ba’zi bir fanlar tadqiqot ob’ektlari bo’yicha bir – biriga yaqin bo’lgani uchun, ularning tushunchalari, qonunlari va metodlari ham bir – biriga yaqindir. Xususan, bilishda xususiylik va umumiylik vazifasini bajaruvchi usullar mavjuddir. Ko’pchilik fanlarda qo’llaniladigan usullar umumiy usul deyiladi. Umumiy usul qo’llanilishi doirasiga ko’ra umumiy bo’lgani bilan o’z maxsus vazifasiga ega. Bunga misol qilib

mantiq fanidagi tushuncha hosil bo'lishining analiz va sintez, umumlashtirish va mavhumlashtirish kabi usullarini, shuningdek induksiya va deduktiya, qiyoslash va modellashtirishni ko'rsatish mumkin. Bular bilishning umum mantiqiy metodlari bo'lib hisoblanadi Dialektika barcha fanlar uchun eng umumiy metod vazifasini bajaradi.

SHunday qilib, bilish jarayonida ilmiy tadqiqotning xususiy, umumiy va eng umumiy usullari mavjud bo'lib, ular o'zaro bir – biriga bog'liq.

Ilmiy bilish metodlarining nazariy asosi rivojlanib borayotgan fanning extiyojlari taqozasi bilan yuzaga kelgan bo'lib, u tabiat, jamiyat va inson ongining murakkab hodisalarini to'g'ri ob'ektiv talqin etishga, fanning tabiiy aloqalarini ochishga imkon beradi. Hozirgi davrda ilmiy bilish faoliyatining takomillashgan shakllari va usullari, tartib qoidalari, mantiq'i va tuzilmalari fanda yangi – yangi yutuqlarni qo'lga kiritish imkonini yaratmoqda.

### *Mantiq fanining vazifalari*

Tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganish, ulardan ongli ravishda foydalanish fikrlash madaniyatini o'stiradi, xususan, fikrni to'g'ri qurish malakasini rivojlantiradi, bahs yuritishda o'zining va boshqalarning fikriga tankidiy munosabatda bo'lishga, suhbatdoshining mulohazalaridagi xatolarni aniqlashga, argumentlashdagi zaif bo'g'inlarni ochib tashlashga yordam beradi.

Muhokamani to'g'ri qurish, formal ziddiyatlar, xatolarga yo'l qo'ymaslikka erishish, aytish mumkinki, o'ziga xos san'at-mantiq san'ati hisoblanadi. Bu san'atning nazariy asoslarini chuqur egallagan kishigina uning imkoniyatlarini amaliy muhokama yuritishda namoyish qila oladi. SHu o'rinda buyuk mutafakkir Farobiyning mantiq ilmining ahamiyati haqida bildirgan quyidagi fikrlarining alohida e'tiborga loyik ekanligini ta'kidlash zarur. U shunday yozadi: "Bizning maqsadimiz aqlni, xatoga yo'l qo'yish mumkin bo'lgan barcha xollarda, to'g'ri tafakkurga yetaklaydigan, uning yordamida har safar hulosa chikarayotganda adashishga qarshi ehtiyot choralarni ko'radigan san'atni-mantiq san'atini o'rganishdir. Uning asosiy qonun-qoidalarining aqlga bo'lgan munosabati grammatika san'ati qoidalarining tilga bo'lgan munosabatiga o'xshash; xuddi grammatika kishilarning tilini to'g'rilash ehtiyoji sababli yaratilgani, unga xizmat qilishi zarur bo'lgani singari, mantiq ham tafakkur jarayonini yaxshi amalga oshirish maqsadida xatoga yo'l qo'yish mumkin bo'lgan barcha hollarda aqlni to'g'rilab turadi"<sup>1</sup>.

Mantiq ilmining ta'lim sohasidagi vazifalari ham jiddiydir. O'quv jarayonining samaradorligi ma'lum bir darajada ishlatiladigan tushunchalarning, terminlarning aniq bo'lishiga, muammolarning mantiqan to'g'ri qo'yilishi va hal qilinishiga, mavjud gipotezalar strukturasi to'g'ri tahlil qila olishga, argumentlash qoidalaridan to'g'ri

---

<sup>1</sup> Аль-Фараби. Вводный трактат в логику. // Материалы по истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане. – Т.: «Фан», 1976, с. 128.

foydalanishga bog'liq.

Fan uchun formal mantiq murakkab muammolarni yechish vositasini beradi. Bunday vositalar, odatda, ilmiy nazariyaning strukturasi o'rganishda, unda ishlatiladigan formalizmning mohiyatini tushuntirib berishda, formal ziddiyatlar bo'lsa, ularni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

### ***Mantiq va insonparvarlik***

Zamonamiz fanlarining barchasiga inson qadr – qimmat, uning axloqi, madaniyati nuqtai nazaridan qarash kerak. Mantiq fani ham bundan istisno emas. Inson muammosining xal qilinishi, uning turmush tarzi, moddiy, ma'naviy, axloqiy nuqtai nazardan takomillashishiga bog'liq.

Insoniylik muammosini hal qilishda mantiq ilmi, ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida, alohida ahamiyat kasb etadi. CHunonchi, hozirgi zamon fanida yuksak kashfiyotlar, ijtimoiy hayotda murakkab munosabatlar yuz bermoqda, bularni tahlil qilish uchun esa mantiqiy fikrlash madaniyati kerak. Fan yordamida inson faoliyati rivojlandi, uning oyoq, qo'li va boshqa organlarining o'rnini bosadigan mashinalar paydo bo'ldi. Mantiq ilmini tadbiq etish natijasida inson intellektini rejalashtiruvchi «aqliy mashina» lar vujudga keldi, binobarin, sun'iy aql vujudga kelmoqda.

Bularning barchasi insonning aqliy va jismoniy mehnatini bajaradigan mashina yaratishning chegarasi bormi?, Agar chegarasi bo'lmasa, insonning o'zi kelajakda qanday axvolga tushib qoladi ?, kabi savollarni keltirib chiqarmoqda va ularga javob berishni taqozo etadi. Bu hozirgi davrda hal qilinishi zarur bo'lgan dolzarb muammolardan biridir. SHuning uchun har qanday fan, shu jumladan mantiq ilmi, inson hayotining tabiiy va ijtimoiy tomonlarini mutanosib saqlash va takomillashtirishga alohida ahamiyat berishi kerak.

### ***Mantiq fanining nazariy va amaliy ahamiyati***

#### ***Mantiq fanining ilmiy ishonch – e'tiqodning shakllanishida tutgan o'rni***

Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega bo'ladi, kishilarda ishonch-e'tikodni mustahkamlaydi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo'lgan e'tiqodni yaratishdan iborat. Ana shuning uchun ham yoshlarda ilmiy asosga ega ishonch-e'tiqodni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Argumentlash ishonch-e'tiqodni shakllantirish vositasidir. Ishonch-e'tiqod esa, insonning komillik mezonlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ishonch –e'tiqod- bu kishillarning xulq-atvori va hatti –harakatini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir.

Vatanimizning gullab-yashnashi, barqaror rivojlanishi ma'lum bir darajada yoshlarning chuqur bilimga, mustahkam ishonch-e'tiqodga va, umuman, komil inson bo'lishlariga bog'liq. Ongli, bilimli odamlarni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi.

U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi».<sup>2</sup>

CHuqur tahlilga, mantiqqa asoslanmagan bir yoqlama fikr odamlarni chalg'itadi. Faqat bahs-munozara, tahlilga asoslangan to'g'ri xulosalargina haqiqatni bilishga yo'l ochadi.

Bahs, munozara yuritishning, chin fikrlarni isbotlay bilishning, xato fikrlarni rad etishning o'ziga xos qonun-qoidalar mavjud. Bu qoidalarni bilish har bir insonga, shu jumladan, talabalarga chin fikrni xato fikrdan ajrata bilish, to'g'ri tafakkurlash madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

### ***Mantiq ilmining fan va texnika taraqqiyoti uchun ahamiyati***

Mantiqiy kategoriyalarning universal harakterga ega bo'lishi ularni bilishda, ishlab chiqarish jarayonlarida, texnika tarmoqlarida ixtisoslashtirilgan holda tadbiq etish imkoniyatini tug'diradi. Bu esa, mantiqdan turli fanlarning konkret masalalarini hal qilishda foydalanishning keng imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Fanning tobora rivojlanib borishi, borliqning murakkab qonunlarining kashf etilishi ilmiy bilish metodi va mantiq apparatini shunga moslashtirishni, tafakkurning har bir konkret masala xaqida aniq, xatosiz, tez hulosalar bera olishini talab qiladi.

Ilmiy va texnik jarayonning bunday talabi natijasida turli fanlarga ixtisoslashgan mantiq tarmoqlari vujudga keldi.

Fan qadriyatlar tizimida o'ziga xos o'ringa ega. U katta ilmiy saloxiyatni, ijodiy kuch – quvvatni birlashtiradi, millat dunyoqarashini shakllantiradi, ta'lim – tarbiya, axloq me'yorlarini vujudga keltiradi, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalaydi, mamlakatda qudratli ilmiy potentsialni yaratishga xizmat qiladi.

Mantiqni bilish, ayniqsa, ilm fan bilan shug'ullanish, ilmiy - tadqiqot ishlarini olib borish, borgan sari ko'payib borayotgan ilmiy axborotlarni tartibli ravishda o'zlashtirish, ilmiy masalalarning tuzilishini tez bilib olish uchun ham muhim rol o'ynaydi. Mantiqning ilmiy – nazariy ishlar hamda insonning amaliy faoliyati uchun bo'lgan ahamiyatini alohida uqtirish bilan birga, chin hulosa chiqarishning hal qiluvchi sharti – hayotni chuqur o'rganish, har bir voqelikdagi hollarni mantiq talablari asosida bilish zarur.

### ***Mantiq fanining fikr yuritish madaniyatini o'stirishdagi ahamiyati***

Mantiq inson tafakkuri madaniyatini ko'tarish va insoniyatning uzoq tajribasi natijasida takomillashgan tafakkur shakllari, qonunlari va qoidalarini bilish uchun xizmat qiladi. U inson fikrining ketma – ket, ziddiyatsiz va asosli bo'lishini ta'minlaydi. Mantiq fani mazmunini chuqurroq o'rganish kishilarning o'z tafakkuri va o'zgarlar tafakkuri natijalariga tanqidiy qarash xislatlarini rivojlantiradi. Tafakkurning bu sifatlari esa

---

<sup>2</sup> 1.Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўк. //Асарлар тўплами. 7 жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 1999, 134-бет.



insonning turli ilmiy va amaliy faoliyatlari sohasidagi ishi uchun katta ahamiyatga ega. Mantiqiy usullardan to'g'ri foydalana olish, ta'lim tarbiya jarayonida isbot va raddiyaning mantiqiy tomonlarini bilish talabalarda o'z nutqining asosli bo'lishini ta'minlaydi, fikrdagi ziddiyatlarni ochishga yordam beradi.

Mantiqni yaxshi bilish turli ilmiy uchrashuvlar, munozaralar, muhokamalarda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Xususan, bunday hollarda fikrlash sub'ekti haqiqatni aniqlash yoki uning sofligini saqlab qolish, asoslash uchun mantiqiy qonun – qoidalarni to'g'ri tadbiq eta bilishi, suxbatdoshining fikridagi xatolarni tez topa olishi, o'z fikrini dalilli qilib bayon etishi zarur. Bu esa uning mantiq fanini yaxshi bilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

### *Tafakkur to'g'risida bahs etadigan fanlar*

| Fanning nomi  | Tafakkurning qaysi tomoni o'rganadi   |
|---|---|
| Falsafa   | Tafakkur rivojlanishning eng umumiy qonuniyatlarini o'rganadi.  |
| Psixologiya   | Tafakkurning ruhiy jarayon sifatida normativ rivojlanishi, uning individda namoyon bo'lish xususiyatlari va vazifalarini o'rganadi. |
| Mantiq  | Tafakkur qonunlari va shakllarini o'rganadi.  |
| Grammatika  | Tafakkurning tilda ifodalanishini o'rganadi   |
| Fiziologiya<br>moddiy mexanizmini asosini – inson tekshiradi miya | Tafakkurning tabiiy faoliyatining   |

### **Mantiq ilmining yo'nalishlari**

| Yo'nalishlarning nomi                          | O'rganish ob'ekti  |
|--|--|
| 1. Klassik (ikki qiymatli) mantiq              | Tafakkur shakllari va qonuniyatlari. Fikrning chin bo'lishi shartlari.       |
| 2. Noklassik mantiq:<br>a) ko'p ma'noli mantiq | Fikrning chinligini ikki va undan ortiq qiymatda (chin, xato, noaniq, qisman |

|  |   |
|--|---|
| b) intuitiv mantiq<br>v) konstruktiv mantiq<br>g) modal mantiq<br>d) logitsizm | chin va h.k) o'rganadi.                                       |
| 3. Dialektik mantiq  | Fikrlash qonunlari va shakllarining rivojlanishini o'rgatadi. |

***Bilishning asosiy bosqichlari sxemasi***

| Bilish bosqichlari          | Bilish shakllari            | Muhim belgilari   |
|-----------------------------|-----------------------------|---|
| 1. Bosqich (hissiy bilish)  | Sezgi<br>Idrok<br>Tasavvur, | Bevosita sezgi organlariga ta'sir etish natijasida hosil bo'ladi, ob'ektiv borliqning sub'ektiv obrazidir.  |
| II. Bosqich. (aqliy bilish) | Tushuncha<br>Hukm<br>Hulosa | Umumlashtirish, zaruriy munosabatlar topish, haqiqat yoki nohaqiqat ekanligini aniqlash, bivosita bilish, til bilan bevosita bog'liqligi va shu kabilar |

***Tayanch tushunchalar***

Mantiq, tafakkur, tafakkur shakli, tafakkur qonuni, chin fikr, to'g'ri tafakkur.

***Takrorlash uchun savollar***

1. Tafakkurning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Tafakkur shakli nima?
3. Tafakkur qonuni nima?
4. Formal mantiq nimani o'rganadi?
5. Formal mantiq tafakkurni o'rganuvchi boshqa fanlar bilan qanday munosabatda?
6. Formal mantiqni o'rganish qanday ahamiyatga ega?

## ***Mashqlar***

1. Quyidagi mulohazalar asosida tafakkurning muhim xususiyatlarini tushuntirib bering:

1.1. Bizning butun qadr-qimmatimiz tafakkurda jamlangan (B.Paskalʼ).

1.2 Tafakkur sezgidan qandaydir dastlabki turtkini olmasa, hech qanday gʻoyalar, fikrlar, aqliy jarayonlar yuzaga kelmaydi (J.Edwards).

1.3. Hech nima inson tafakkuridek erkin boʻlmaydi (D.Yum).

1.4. Aqlni oʻstirmoq uchun hadeb oʻqiyvermay, koʻproq fikrlash kerak (R.Dekart).

1.5. Sivilizatsiyaning buyuk vazifasi – odamni fikrlashga oʻrgatishdir (T.Edison).

1.6. Aql hissiyotning koʻzini ochadi (R.Rollan).

1.7. Aql mulohaza yuritish, anglash xususiyatiga, yaʼni sabab va oqibatni uzviy bogʻlash, «nima uchun» degan savolga javob berish, tasodiflarni aniqlash, qonuniyatlarni ochish, yangi xususiyatlarning yangi sharoitlarga mosligini belgilash, voqealar zanjirining boshi va nihoyasini topish xususiyatiga ega (J.Fabr).

2. Quyidagi fikrlarning qanday mantiqiy shaklga ega ekanligini aniqlang:

2.1. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati, gʻoya, milliy istiqlol mafkurasi, mafkuraviy boʻshliq, siyosat va davlat qurilishi.

2.2. Insonga foyda keltirmaydigan inson – oʻlikdir (Yusuf Xos Hojib).

2.3. Juft sonlar ikkiga qoldiqsiz boʻlinadi.

Sakkiz – juft son.

2.4. Hozirgi paytda roʻy berayotgan ayrim salbiy holatlar, nojoʻya xatti-harakatlar, yovuz ishlar, avvalo, mafkuraviy boʻshliq tufayli sodir boʻlmoqda.

3. Quyidagi fikrlarning formal jihatdan toʻgʻri yoki xato qurilganini aniqlang:

3.1. «Saroybon chiqishi bilan Mirzo Abdullatif nam kipriklarini pirpiratib, Ali Qushchiga yuzlandi. Ovozi allaqanday nogiron titrab:

– Sohibi karam Mavlono! – dedi. – Men sizdan zoyicha koʻrmogʻingizni soʻragan edim. Koʻrdingizmu?..

– Kechirgaysiz, shahzoda, – dedi Ali Qushchi ohista. – Kamina tunov kuni iqrar boʻlgan edim: ilmi nujumdan bexabarmen...

– Yulduzlar holatini bilgan alloma ilmi nujumdan ham boxabar boʻlmogʻi darkor...

– Nadomatlar boʻlgʻaykim...

– Yo’q! Siz bilasiz! Manim peshanamga nelar yozilgan, saltanatning taqdiri ne bo’lur – barini bilasiz. Va lekin aytmog’ni istamaysiz (O.Yoqubov. Ulug’bek xazinası. 3-nashri. T., 1989, 398 – 399-betlar).

3.2.Aka-ukalar bir-birlarını hurmatlashı kerak.

N.va M. bir-bırını hurmatlaydı.

Demak, N. va M. – aka-ukalar.

3.3.Din qadriyatdır.

Zardushtiylik – din.

Demak, zardushtiylik qadriyatdır.

4. Quyıdagi mulohazalar asosıdā mantiq ilmining predmetını tushuntırıb berıng:

4.1. Mantiq insonning aqlıdā mavjud bo’lgan tushunchalardan u hosil qılmoqchi bo’lgan tushunchalarga o’tısh usullarını o’rganuvchi fandır (Ibn Sino).

4.2. Mantiqning chegaralari uning har qanday tafakkurning faqat formal qoidalarını bayon etuvchi va qat’iy ravıshdā isbotlovchi fan ekanlıgı bilan anıq belgilanadı (I.Kant. Soch.v shesti tomax, t.3. M., 1964, s.83).

4.3. Mantiqni tafakkur haqidagi, uning ta’riflari va qonunlari to’g’risıdagi fan deb aytıshımız mumkin, faqat bundā tafakkur eng umumiy mohiyat yoki stıxiya bo’lib, undā g’oya mantiqiy shakldā namoyon bo’ladı. G’oya formal tafakkur emas, balkı o’z ta’riflari va qonunlarını tayyor holdā topmaydigan, aksıncha, ularını o’zi yaratadigan va ularning taraqqiyotıdān tashkil topadigan yaxlitlik ko’rınışıdagi tafakkurdır (Gegel. Entsiklopediya filosofskix nauk. T.1. Nauka logiki. M., 1974, s.107).

4.4. Muhokamalarımızni yaxshılashning yagona vosıtasi ularını, xuddı matematiklardagi singari yaqqol his qılınadigan, xatolarımızni o’z ko’zımız bilan topadigan va odamlar o’rtasıdā bahs chiqıb qolsa, «Keling, hisoblab chıqamız», deb ayta oladigan ko’rınışga keltırışdır; ana shundā hech bir rasmiyatchılıksız kimning haq ekanlıgını ko’rış mumkin bo’ladı (G.V.Leybnits. TSıtata po: Styajkin N.I. Formirovanie matematicheskoy logiki. M., 1967, s. 217).

5. Quyıdagi mulohazalar asosıdā mantiq ilmining ahamiyatını tushuntırıb berıng:

5.1. Mantiq tafakkur kishılarıning tangrısi (L.Feyxtvanger).

5.2. Xato – bor-yo’g’ı noto’g’rı muhokama yuritishning oqıbatı, xolos (K.Bouvi).

5.3. Bizning butun fazilatımız fikrlash qobiliyatımız borlıgıdā. SHunday ekan, to’g’rı fikrlashga intılaylik (B.Paskal).

5.4. Haqiqatning nima ekani, ne narsaning haqiqatga yaqin ekanligi, nimaning yolg'onligi, haqiqat va yolg'onning qanday xillari borligi mantiq yordamida aniqlanadi (Ibn Sino).

5.5. Haqiqatni tanlagan zotlar:

O'lim bilmas, zavol topmasdir («Avesto»dan).

5.6. Eng ayanchli kishilar yanglish fikrlovchi kishilar emas, balki hech bir tayinli, izchil fikri yo'q, mulohazalari uzuq-yuluq, bir-biriga bog'lanmagan tushunchalarga ega bo'lgan odamlardir (N.G.Chernishevskiy).

#### **4-mavzu: Tafakkur qonunlari tushunchasi. (2 soat)**

##### **Reja:**

*1.Ayniyat qonuni*

*2.Noqidlik qonuni*

*3.Uchinchisi – istisno qonuni*

*4.Etarli asos qonuni*

Falsafada qonun tushunchasi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy barqaror munosabatlarini ifodalaydi. Mantiq ilmida qonun tushunchasi fikrlash elementlari o'rtasidagi ichki, muhim, zaruriy aloqadorlikni ifodalaydi.

Mantiqiy tafakkur ikki turdagi qonunlarga bo'ysunadi. Ular dialektika qonunlari va formal mantiq qonunlaridir. Dialektika qonunlari ob'ektiv olam va bilish jarayoniga xos bo'lgan eng umumiy qonunlar bo'lib, dialektik mantiqning o'rganish sohasi hisoblanadi. Formal mantiq qonunlari esa faqat tafakkurdagina amal qiladi. Dialektika qonunlari mantiqiy tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida olib o'rgansa, formal mantiq qonunlari esa, fikrning to'g'ri tuzilishini, uning aniq, izchil, ziddiyatsiz va asoslangan bo'lishini e'tiborga olgan holda o'rganadi.

Formal mantiq qonunlari (yoki tafakkur qonunlari) deyilganda fikrlashga xos muhim, zaruriy bog'lanishlar tushuniladi. Tafakkur qonunlari ob'ektiv voqelikning inson miyasida uzoq vaqt davomida aks etishi natijasida vujudga kelgan va shakllangan.

Bu qonunlar fikrlashning to'g'ri amalga oshishini ta'minlab turadi. Ular tafakkur shakllari bo'lgan tushunchalar, mulohazalar (hukmlar) hamda xulosa chiqarishning shakllanishi va o'zaro aloqalarini ifodalaydi.

Tafakkur qonunlariga amal qilish to'g'ri, tushunarli, aniq, izchil, ziddiyatsiz, asoslangan fikr yuritishga imkon beradi. Aniqlik, izchillik, ziddiyatlardan xoli bo'lish va isbotlilik (asoslanganlik) to'g'ri tafakkurlashning asosiy belgilaridir. Bular mantiqiy

qonunlarning asosini tashkil etuvchi belgilar bo'lganligi uchun, ularning har birini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

### *Ayniyat qonuni*

Biror buyum yoki hodisa haqida fikr yuritilganda, ularga xos bo'lgan barcha muhim belgilar, tomonlar qamrab olinadi. Predmet haqidagi fikr necha marta va qanday holatlarda takrorlanishiga qaramasdan doimiy, o'zgarmas va qat'iy mazmunga ega bo'ladi. Tafakkurga xos bo'lgan bu aniqlik xususiyati ayniyat qonunining mohiyatini tashkil etadi.

Ayniyat qonuniga ko'ra, ma'lum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtda o'z-o'ziga tengdir. Bu qonun formal mantiq ilmidagi «A–A» dir formulasi bilan ifodalanadi.

Ayniyat qonuni simvolik mantiq ilmidagi, ya'ni **mulohazalar** mantig'i va **predikatlar** mantig'ida o'ziga xos ko'rinishga ega.

Mulohazalar mantig'ida  $a \rightarrow a$  va  $a \leftrightarrow a$ . (Bunda,  $a$  – har qanday fikrni ifodalovchi belgi,  $\rightarrow$  implikasiya belgisi,  $\leftrightarrow$  ekvivalentlik belgisi.)

Predikatlar mantig'ida  $(x(R(x) \rightarrow R(x)))$ . Bu ifoda quyidagicha o'qiladi: har qanday  $X$  uchun, agar  $X$   $R$  belgiga ega bo'lsa,  $X$  shu belgiga ega, degan fikr to'g'ri bo'ladi.

Ayniyat qonunining asosiy talabi quyidagicha: fikrlash jarayonida turli fikrlarni aynanlashtirish va, aksincha, o'zaro aynan bo'lgan fikrlarga teng emas, deb qarash mumkin emas. Bu mantiqiy tafakkurning muhim shartlaridan biridir. Fikrlash jarayonida bu qonunni bilib yoki bilmasdan buzish holatlari uchraydi. Ba'zan bu holat bir fikrning tilda turli xil ifodalanishi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, «dialektika qonunlari» va «tabiat, jamiyat va inson tafakkurining eng umumiy qonunlari» tushunchalari shakliga ko'ra turlicha bo'lsa ham, mazmunan aynandir.

Ayniyat qonuni predmet va hodisalarning nisbiy barqarorligini ifoda etgan holda, tafakkurning rivojlanishini, tushunchalar va bilimimizning o'zgarib, boyib borishini inkor etmaydi. Bu qonun fikrning mazmuni predmet va hodisalarni to'laroq bilib borishimiz bilan o'zgarishini e'tirof etadi va uni hisobga olishni taqozo qiladi.

Ayniyat qonuni tafakkurga, uning barcha elementlari, shakllariga xos bo'lgan umumiy mantiqiy qonundir. Bu qonunning talablari tafakkurning har bir shakliga xos bo'lgan konkret qoidalarda aniq ifodalanadi. Tafakkurning tushuncha, mulohaza (hukm), xulosa chiqarish shakllari, ular o'rtasidagi munosabatlar shu qonunga asoslangan holda amalga oshadi.

### ***Nozidlik qonuni***

Inson tafakkuri aniq, ravshan bo'libgina qolmasdan, ziddiyatsiz bo'lishi ham zarur. Ziddiyatsizlik inson tafakkuriga xos bo'lgan eng muhim xislatlardan biridir. Ma'lumki, ob'ektiv voqelikdagi buyum va hodisalar bir vaqtda, bir xil sharoitda biror xususiyatga ham ega bo'lishi, ham ega bo'lmasligi mumkin emas. Masalan, bir vaqtning o'zida, bir xil sharoitda inson ham axloqli, ham axloqsiz bo'lishi mumkin emas. U yo axloqli, yo axloqsiz bo'ladi.

Bir vaqtning o'zida bir predmetga ikki zid xususiyatning taalluqli bo'lmasligi tafakkurda nozidlik qonuni sifatida shakllanib qolgan. Bu qonun fikrlash jarayonida ziddiyatga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi va tafakkurning ziddiyatsiz hamda izchil bo'lishini ta'minlaydi.

Nozidlik qonuni ayni bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ikki o'zaro bir-birini istisno qiluvchi (qarama qarshi yoki zid) fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda birdaniga chin bo'lishi mumkin emasligini, hech bo'lmaganda ulardan biri, albatta, xato bo'lishini ifodalaydi. Bu qonun «A ham V, ham V emas bo'la olmaydi» formulasi orqali beriladi. Mulohazalar mantig'ida bu qonun quyidagi formula orqali yoziladi  $\forall x(P(x)*P(x))$ , ya'ni har qanday (x) mulohaza uchun r(x) va uning inkori birgalikda chin bo'lmasligi to'g'ridir.

Nozidlik qonuni qarama-qarshi va zid mulohazalarga nisbatan qo'llaniladi. Bunda qarama-qarshi mulohazalarning har ikkalasi ham bir vaqtda xato bo'lishi mumkin; o'zaro zid mulohazalar esa, bir vaqtda xato bo'lmaydi, ulardan biri xato bo'lsa, ikkinchisi albatta chin bo'ladi. Qarama-qarshi mulohazalarda esa, bunday bo'lmaydi, ya'ni ulardan birining xatoligidan ikkinchisining chinligi kelib chiqmaydi. Masalan: “Arastu — mantiq fanining asoschisi” va “Arastu — mantiq fanining asoschisi emas” — bu o'zaro zid mulohazalardir. Bu zid mulohazalarning har ikkalasi bir vaqtda xato bo'lmaydi. Ulardan birinchisi chin bo'lganligi uchun, ikkinchisi xato bo'ladi. O'zaro qarama-qarshi bo'lgan “Bu dori shirin” va “Bu dori achchiq” mulohazalarining esa ikkalasi bir vaqtda, bir xil nisbatda xato bo'lishi mumkin.

### ***Uchinchisi – istisno qonuni***

Bu qonun fikrlar o'rtasidagi zid munosabatlarni ifodalaydi. Agarda zid munosabatlar fikrning to'liq mazmunini qamrab olmasa, ikki zid belgidan boshqa belgilarning ham mavjudligi ma'lum bo'lsa, unda uchinchisi istisno qonuni amal qilmaydi.

Masalan:

Talaba imtihonda «a'lo» baho oldi.

Talaba imtihonda «ikki» baho oldi.

Bu mulohazalar munosabatida nozidlik qonuni amal qiladi. CHunki bu mulohazalarning har ikkisi ham xato bo'lishi va talaba imtihonda «o'rta» yoki «yaxshi» baho olishi mumkin.

Agar, «Talaba imtihonda «a'lo» baho oldi» va «Talaba imtihonda «a'lo» baho olmadi» mulohazalarini tahlil qilsak, unda bu mulohazalardan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga o'rin yo'q ekanligi ma'lum bo'ladi. CHunki «yaxshi», «o'rta» va «ikki» baholar – «a'lo» baho emas.

Uchinchisi istisno qonuni quyidagi holatlarda qo'llaniladi:

1. Alohida olingan yakka buyumga nisbatan bir xil vaqt va munosabat doirasida o'zaro zid fikr bildirilganda. Masalan:

Toshkent – O'zbekistonning poytaxti.

Toshkent – O'zbekistonning poytaxti emas.

Bu mulohazalar birgalikda chin ham, xato ham bo'la olmaydi. Ulardan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchi mulohazaga o'rin yo'q. Uchinchisi istisno qonuni o'zaro zid umumiy mulohazalar doirasida amal qilmaydi. CHunki umumiy mulohazalarda buyumlar sinfiga va shu sinfga mansub har bir buyumga nisbatan fikr bildiriladi.

Masalan:

Hamma faylasuflar notiqdir.

Hech bir faylasuf notiq emas.

Bu mulohazalardan birining xatoligidan ikkinchisining chinligi haqida xulosa chiqarib bo'lmaydi. Bunday holatda «Ba'zi faylasuflar notiqdir» degan uchinchi bir mulohaza chin hisoblanadi.

Uchinchisi – istisno qonuni:

1. Ikki zid yakka mulohazalarga nisbatan.

2. Umumiy tasdiq va juz'iy inkor mulohazalarga nisbatan.

3. Umumiy inkor va juz'iy tasdiq mulohazalarga nisbatan qo'llaniladi.

Uchinchisi – istisno qonunining amal qilishi uchun olingan zid munosabatlarni ifodalovchi mulohazalardan biri tasdiq, ikkinchisi inkor bo'lishi yoki tushunchalardan biri ijobiy va boshqasi salbiy bo'lishi shart emas. Olingan ikki tushuncha yoki mulohazaning bir-birini hajm jihatdan to'liq inkor etishi kifoya. Masalan, erkak va ayol tushunchalarining har ikkisi ijobiy bo'lib, inson tushunchasining to'liq mazmunini qamrab oluvchi zid belgilarni ifodalaydi.



Uchinchi – istisno qonunida ham, nozidlik qonunidagi kabi vaqt, munosabat, ob’ekt aynanligiga rioya etish shart, aks holda bu qonun o’z kuchini yo’qotadi, fikrning izchilligiga zarar yetadi va mantiqsizlikka yo’l qo’yiladi.

Uchinchi – istisno qonuni, boshqa mantiqiy qonunlar singari, ziddiyatli mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlab berolmaydi. Buning uchun voqea va hodisalarni, ularning rivojlanish qonuniyatlarini bilish talab qilinadi. Inson o’z bilimlariga asoslangan holda o’zaro zid mulohazalardan qaysi biri chin yoki xato ekanligini aniqlaydi. Bu qonun o’zaro zid mulohazalar bir vaqtda chin bo’lmasligini tasdiqlaydi.

Uchinchi – istisno qonunini bilish, muhokama yuritishda to’g’ri xulosa chiqarish uchun muhim bo’lib, o’zaro zid qarashlarni aralashtirib yuborishga yo’l qo’ymaydi.

### ***Etarli asos qonuni***

To’g’ri fikrlashga xos bo’lgan muhim xususiyatlardan biri isbotlilik, ishonchlilikdir. Fikrlash jarayonida buyum va hodisalar haqida chin muhokama yuritibgina qolmasdan, bu muhokamaning chinligiga hech qanday shubha bo’lmasligi uchun uni isbotlashga, asoslashga harakat qilinadi. Bunda chinligi avvaldan ma’lum bo’lgan va o’zaro mantiqiy bog’langan mulohazalarga asoslaniladi, ya’ni bayon qilingan fikrning chinligi avvaldan ma’lum bo’lgan, chinligi tasdiqlangan boshqa bir fikr, mulohaza bilan taqqoslanadi. Tafakkurning bu xususiyati yetarli asos qonuni orqali ifodalanadi.

Inson tafakkuriga xos bo’lgan bu qonunni birinchi marta nemis faylasufi va matematigi G. Leybnits ta’riflab bergan. Uning ta’kidlashicha, barcha mavjud narsalar o’zining mavjudligi uchun yetarli asosga ega. **Har bir buyum va hodisaning real asosi bo’lgani kabi, ularning in’ikosi bo’lgan fikr-mulohazalar ham asoslangan bo’lishi kerak.** Yetarli asos qonunining bu talabi quyidagi formula orqali ifodalanadi: «Agar V mavjud bo’lsa, uning asosi sifatida A ham mavjud».

Etarli asos qonunida to’g’ri tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo’lgan fikrlarning izchillik bilan muayyan tartibda bog’lanib kelish xususiyati ifodalanadi. Bu qonun avvalgi ko’rib o’tilgan qonunlar bilan o’zaro bog’liq holda amal qiladi. Fikrlash jarayonida berilgan mulohazaning chinligini asoslash uchun keltirilgan chin mulohazalar mantiqiy asos deb, berilgan mulohazaning o’zi esa mantiqiy natija deb yuritiladi.

Mantiqiy asos bilan ob’ektiv, haqiqiy real asosni aralashtirib yuborish mumkin emas. Asos va natija orasidagi mantiqiy bog’liqlikni sabab va oqibat aloqadorligidan farqlash zarur. Masalan, «Bu kishi bemor», degan mulohazani «U shifoxonada davolanyapti», degan fikr bilan asoslash mumkin. Aslida shifoxonada davolanish dastlabki mulohazaning sababi emas, balki oqibatidir. Ko’rinib turibdiki, mantiqiy asos hamma vaqt ham hodisaning sababi bilan mos kelmaydi. Fikrlarning yetarli asosga ega bo’lishligining ob’ektiv manbai faqat sabab-oqibat munosabatiningina emas, shuningdek,

fikrning izchilligi, asoslanganligini, isbotlangan bo'lish xususiyatlarini ham, ya'ni ob'ektiv mazmuni sabab-oqibat munosabatlaridan tashqarida bo'lgan boshqa munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Fikr-mulohazalarni asoslash murakkab mantiqiy jarayon bo'lib, unda bir yoki undan ortiq o'zaro bog'langan muhokamalar tizimidan foydalaniladi. Keng ma'noda biror mulohazani asoslash deganda, shu mulohazaning chinligini tasdiqlovchi ishonchli va yetarli dalillarning mavjudligini aniqlash tushuniladi. Bu ishonchli va yetarli dalillarni shartli ravishda ikki guruhga: empirik va nazariy asoslarga bo'lish mumkin. Bulardan birinchisi asosan hissiy bilish, tajribaga asoslansa, ikkinchisi aqliy bilish, tafakkurga tayanadi. Empirik va nazariy bilimlarning chegarasi nisbiy bo'lgani kabi, empirik va nazariy asoslar o'rtasidagi farq ham nisbiydir.

Insonning shaxsiy tajribasi fazo va zamonda chegaralangan bo'lib, sezgilari bergan ma'lumot esa hamma vaqt ham to'g'ri bo'lmaydi. SHunga qaramasdan, mulohazalarni empirik asoslashning ahamiyati katta, chunki bilish jonli hissiy mushohadadan, bevosita kuzatishdan boshlanadi. Hissiy tajriba insonni tashqi olam bilan bog'lab turadi. Nazariy bilim esa empirik bazisning ustqurmasi hisoblanadi.

Umumiy-chin mulohazalar sifatida fanlarning qonun-qoidalaridan, tushunchalarning ta'riflaridan, shuningdek, aksiomalardan foydalaniladi. Bularning barchasi nazariy asoslashning ratsional yoki demonstrativ usullari bo'lib, ular umumilmiy ahamiyatga ega bo'lgan isbotlash metodlarining asosini tashkil etadi.

SHuningdek, asoslashning sub'ektiv xarakterda bo'lgan va bevosita tajriba natijalariga yoki nazariy fikr yuritishga taalluqli bo'lmagan usullari mavjud. Intuitsiyaga, e'tiqodga, avtoritetlarga va urf-odatlariga asoslanish shunday usullar jumlasiga kiradi. Bu usullardan ko'proq kundalik ong darajasida foydalaniladi.

Intuitsiya hech qanday muhokama va isbotlarsiz to'g'ridan-to'g'ri haqiqatga erishish qobiliyatini ifodalaydi. Intuitsiya – lotincha intuitio so'zidan olingan bo'lib, «diqqat bilan tikilib qarayman», degan ma'noni bildiradi. Intuitsiya bilish jarayonida sezilarli ahamiyatga ega bo'lib, hissiy va aqliy bilishdan o'zgacha bir ko'rinishni tashkil etmaydi; o'ziga xos fikr yuritish, tafakkur qilish usulini ifodalaydi. Intuitsiya orqali inson murakkab hodisalarning mohiyatini, uning turli qismlariga e'tibor bermagan holda, fikran yaxlit qamrab, tushunib oladi. Bunda tafakkur jarayonining alohida qismlari u yoki bu darajada anglanmaydi va asosan fikr yuritish natijasi – haqiqatgina anglangan holda aniq, ravshan qayd etiladi. Intuitsiya haqiqatni aniqlashda yetarli asos hisoblansada, lekin bu haqiqatga boshqalarni ishontirish uchun yetarli hisoblanmaydi.

E'tiqod – kishining ishonchini qozongan va shuning uchun ham uning faoliyatida xatti-harakatlarini belgilab beradigan, uning dasturi bo'lib xizmat qiladigan qarashlarning majmuasidan iborat. E'tiqod chinligi isbotlangan mulohazalarga yoki tanqidiy tahlil qilib

ko'rilmagan, chinligi noma'lum boshlang'ich bilimlarga asoslangan bo'lishi mumkin. Intuitsiya kabi e'tiqod ham sub'ektiv xarakterda bo'lib, davr o'tishi bilan o'zgarib turadi. «Anglash uchun e'tiqod qilaman», degan edi Avliyo Avgustin va Anselm Kenterberiyuskiylar (1033–1109 y.y.).

Frantsuz faylasufi va teologi P'yer Abelyar (1079–1142 y.y.) esa aql va e'tiqodning o'zaro nisbatini haqqoniy ko'rsatgan holda «E'tiqod qilish uchun tushunaman», deydi. Albatta, e'tiqod haqida fikr yuritganda ko'r-ko'rona e'tiqod bilan tarixiy va hayotiy tajriba natijasi bo'lgan, bilimga asoslangan e'tiqodni farqlash zarur. Faqat ilmiy bilimga asoslangan e'tiqodgina fikr va mulohazalarning chinligini aniqlashda yetarli asos bo'ladi. SHuning uchun ham ular inson qalbida mustahkam o'rnashib qoladi.

Avtoritet (autoritas – hokimiyat, ta'sir) – keng ma'noda ijtimoiy hayotning turli sohalarida biror shaxsning yoki tashkilotning ko'pchilik tomonidan tan olingan norasmiy ta'siridir. Yetarli asos qonuni bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal qilishda avtoritet tushunchasi obro'li, e'tiborli, nufuzli manba ma'nosida qo'llaniladi. Avtoritetlarga asoslanish deganda esa, biror fikr, mulohazaning chinligini asoslashda obro'li, e'tiborli, nufuzli manbalarga murojaat qilish tushuniladi. Nufuzli manba sifatida alohida shaxslarning fikr va mulohazalari, muqaddas diniy kitoblardagi bitiklar, xususan Qur'onda yozilgan sura va oyatlar, xalq maqollari va hikmatli so'zlaridan foydalaniladi.

Avtoritetlarning amal qilish doirasi va davomiyligi turli xil bo'ladi. Tor doirada amal qiladigan, qisqa muddatli avtoritetlardan fikr-mulohazalarni asoslashda hamma vaqt ham foydalanib bo'lmaydi. CHunki vaqt o'tishi yoki amal qilish doirasining o'zgarishi bu avtoritetlarning mavqeini tushirib yuborishi mumkin.

Keng doirada amal qiladigan va doimiy, muntazam bo'lgan avtoritetlarga fikr-mulohazalarning chinligini aniqlash uchun yetarli asos bo'ladi. Bunday avtoritetlar tarixiy sharoitning, siyosiy o'zgarishlarning ta'sirida o'z qadr-qimmatlarini yo'qotmaydilar, vaqt sinoviga bardoshli bo'ladilar. Umuminsoniy ma'naviy madaniyat xazinasidan joy olgan buyuk mutafakkirlarning hikmatli so'zlari, umuminsoniy-axloqiy qadriyatlar, xalqlarning ijtimoiy-tarixiy tajribasini aks ettirgan maqollar fikr-mulohazalarning chinligini asoslashda yetarli dalil hisoblanadi. Masalan, «Ilm olish uchun tinimsiz izlanish zarur» ekanligi haqidagi fikrni hazrat Mir Alisher Navoiyning «Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim» so'zlari bilan, shuningdek, hadislarda keltirilgan «Beshikdan to qabrgacha ilm izla» kabi fikr-mulohazalar yordamida asoslash mumkin.

Avtoritetlarga asoslanish bilan avtoritar tafakkurni o'zaro farqlash zarur. Avtoritarlik – asoslanganlikning o'zgargan, buzilgan ko'rinishi bo'lib, unda mulohaza yuritish va uning chinligini aniqlash vazifasi avtoritetlar zimmasiga yuklanadi.

Avtoritar tafakkur yuritayotgan kishi biror muammoni o'rganishdan avval o'zini «asosiy mulohazalar yig'indisi» bilan cheklab qo'yadi. Bu mulohazalar yig'indisi

tadqiqotning asosiy yo'nalishini belgilab beradi va ko'pincha avvaldan ma'lum bo'lgan natijani keltirib chiqaradi. Dastlabki asos bo'lgan fikrlar sistemasi namuna sifatida qabul qilinadi va boshqa fikrlar unga bo'ysundiriladi. Agar asosiy mulohazalarning deyarli barchasi avtoritetlar tomonidan aytilgan bo'lsa, uning davomchilariga bu fikrlarni tushuntirish va izohlash qoladi, xolos. Bu yangiliklardan va ijodiylikdan mahrum bo'lgan fikr yuritish usuli bo'lib, dialektik tafakkurga ziddir. Avtoritetlar, nufuzli manbalar, jamiyat a'zolari, xususan, yoshlarda milliy mafkura va milliy g'oyani shakllantirishda asosiy omillardan biridir. SHu o'rinda matbuotning, ayniqsa, radio va televideniening u yoki bu manbaning avtoritet deb tan olinishidagi roli e'tiborlidir. Muayyan masalada turli fikrlarni berish, bahs orqali haqiqat oydinlashuviga erishish lozim», deb ta'kidlagan.

Avtoritetlar masalasi murakkab va ko'p qirralidir. SHu sababdan fikr-mulohazalarning chinligini asoslashda avtoritet hisoblangan fikrlardan konkret sharoitga mos ravishda, me'yorga amal qilgan holda foydalanish zarur.

Urf-odat avloddan avlodga meros bo'lib o'tadigan va muayyan jamiyat yoki ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilingan bir xil shakldagi xatti-harakat, xulq-atvor usuli bo'lib, kishilarning turmush tarzi va fikr yuritishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Urf-odatlariga asoslangan holda fikr yuritish va harakat qilish ko'pincha kishilarning turmushi, axloqiy me'yorlar va xalq marosimlari doirasida namoyon bo'ladi. Milliy g'oya va milliy mafkura urf-odatlar orqali ham jamiyat a'zolarining ongiga singib boradi. Jamiyat yoki ijtimoiy guruh tomonidan biror shaxs yoki voqea-hodisaga nisbatan bo'lgan munosabat muayyan urf-odatlar bilan asoslanadi. Bunda biror xatti-harakatni asoslash uchun «urf-odatlarimizga ko'ra...», deb fikr yuritiladi.

Fikr-mulohazalarni asoslash murakkab mantiqiy jarayon bo'lib, unda bir yoki undan ortiq o'zaro bog'langan muhokamalar sistemasidan foydalaniladi. Mulohazalarning chinligini asoslash tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, fikrlarimizning mantiqli, tartibli, ishonarli bo'lishini ta'minlaydi.

SHunday qilib, to'g'ri tafakkurning yuqorida ko'rib o'tilgan qonunlarining har biri chin bilimga erishish uchun xizmat qiladi. Bu qonunlar tafakkur jarayonida alohida-alohida yoki birin-ketin emas, balki bir vaqtda, birgalikda fikrlar bog'lanishining xarakteriga qarab amal qiladi. Ayniyat qonuniga ko'ra, fikrlash jarayonida har bir mulohaza qat'iy mazmunga ega bo'lishi, aynan shu fikr doirasida o'zgarmasligi talab qilinadi. Bu talabning buzilishi fikrda mantiqiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Zid mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlash ularni mantiqiy asoslashni taqozo etadi.

Demak, bu qonunlarning talablari bir-birini to'ldirgan holda yaxlit mantiqiy tafakkurning chin bo'lishini ta'minlaydi.

## *Mashqlar*

1. Quyidagi mulohazalardan foydalanib, tafakkur qonunlarining tabiatini tushuntirib bering:

1.1. Qonun umumiylikdan iborat. U yakka predmetlar substansiyasidir (Gegelʼ).

1.2. Mantiqiy zaruriyat mantiqan toʻgʻri boʻlishni anglatadi (R. Karnap).

2. Quyidagi gaplar ularda kursiv bilan ajratilgan soʻzlarni qavs ichidagi soʻzlar bilan almashtirganda aynanligini (oʻz mazmunini) saqlab qoladimi?

2.1. Oʻzbekiston *Respublikasi* islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasida zarur tadbirlarni amalga oshirmoqda (mamlakati, davlati, jumhuriyati).

2.2. Masalani muhokama qilish jarayonida turli *fikrlar* bildirildi (mulohazalar, qarashlar, nuqtai nazar, koʻzqarashlar).

3. Quyidagi fikrlarning noaniq boʻlishini, yaʼni ayniyat qonuniga zid ekanligini tushuntirib bering:

3.1. Karim ingliz tilini yaxshi bilmaydi.

3.2. Ayblanuvchi qonunni inkor etgan.

3.3. U foyda ketidan quvib, odamgarchilikni yoʻqotish darajasiga yetdi.

4. Quyidagi mulohazalar juftliklarining chin-xatoligini aniqlash asosida nozidlik qonuni va uchinchi – istisno qonuni talablarini tushuntirib bering:

4.1. Barcha siyosiy partiyalar oʻz dasturiga ega.

Hech bir siyosiy partiya oʻz dasturiga ega emas.

4.2. Baʼzi abituriyentlar test sinovlaridan muvaffaqiyatli oʻtdilar. Baʼzi abituriyentlar test sinovlaridan muvaffaqiyatli oʻta olmadilar.

4.3. Barcha metallar qattiq jismlardir. Baʼzi metallar qattiq jismlar emas.

5. Quyidagi muhokamada asoslanayotgan fikrni va uning mantiqiy asoslarini ajrating, ularning oʻzaro uzviy bogʻliqligini koʻrsating:

6. Quyidagi muhokamalarni tafakkur qonunlari talablaridan kelib chiqib tahlil qiling:

6.1. «Qachonlardir yunon muarrixining «Harbiy hiylalar» risolasida yozib qoldirgan shu bir tarixiy voqea: oddiy choʻpon SHiroqning butun boshli qoʻshin ustidan qozongan favqulodda gʻalabasi, tabiiyki, har xil past-baland gaplarga sabab boʻldi.

–Oʻsha, Shiroq deganlari oppoq sak emas, qip-qizil sak ekan! Butun boshli lashkarning boshiga bitta oʻzi yetibdi-ya, bu itdan tarqagan sak! – xunob boʻlishdi bir toifa eronliklar.

–O‘z elinigina emas, bizni ham shu «Doro» degan zolimdan, nihoyat, qutqaribdi-ya! Ammo-lekin, boplabdi, azamat, chinakam elchi ekan! – qoyil qolishdi boshqa bir toifa eronliklar.

Ko‘pchilik turonliklar esa ham quvonib, ham tashvishlandi:

–Tangri taologa shukr, chetdan kelayotgan bir baloga balogardon topilibdi. Biroq o‘zingdan chiqqan balolarga balogardon qani?!» (R.Otaev. Elchi. Doston. T.1999, 114–115-betlar.)

6.2. Amaliy mashg‘ulot paytida talaba o‘qituvchidan: «Kishini qilmagan ishi uchun jazolab bo‘ladimi», deb so‘radi. O‘qituvchi: «Yo‘q, jazolab bo‘lmaydi», deb javob berdi. SHunda talaba: «Unday bo‘lsa jazolamang, uyga berilgan vazifani qilmadim», dedi.

### ***Takrorlash uchun savollar***

1. Tafakkur qonunlari nimalarni aks ettiradi?
2. Tafakkur qonunlarining ob‘ektivligi va universalligi nimada?
3. Ayniyat qonunidan kelib chiqadigan asosiy talab nimadan iborat?
4. Nozidlik qonunining mohiyati nimada? Uning ob‘ektiv ziddiyatlarga bo‘lgan munosabati qanday?
5. Uchinchisi – istisno qonuni fikr yurituvchi sub‘ekt oldiga qanday talabni qo‘yadi? Bu qonun qanday hukmlarga nisbatan amal qiladi?
6. Yetarli asos qonuni o‘zida to‘g‘ri muhokama yuritish uchun zarur bo‘lgan qanday talabni ifoda etadi? U xulosa chiqarish, argumentlashda qanday ahamiyatga ega?

### ***Tayanch tushunchalar***

Fikrning aniqligi, fikrning izchilligi, fikrning asoslanganligi, ayniyat qonuni, nozidlik qonuni, uchinchisi - istisno qonuni, etarli asos qonuni.

## AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

### 1-mavzu: Dalillarga tayangan holda fikr yuritish – ilmiy bilishning mantiqiy asosi (2 soat)

#### AMALIY MASHG‘ULOTDA TA‘LIM TEXNOLOGIYASI

|   |  |
|---|--|
| <i>Tinglovchilar soni:</i>  | Vaqt: 2 soat.  |
| <i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>   | Kirish – mavzu bo‘yicha vizuallashtirilgan ma‘ruza   |
| <i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi</i>  | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Dalil tushunchasi va mantiqiy dalillash</li> <li>2. Dalillarning turlari</li> <li>3. Dalillash va faktlar – ilmiy bilishning muhim shartining muhim belgilari.</li> </ol>  |
| An‘anaviy falsafada, turli g‘oyaviy tizimlarga bo‘linishiga qaramay, muhim muammolarni hal etishda ma‘lum bir umumiylik mavjud edi. Hozirgi zamon falsafasida aksincha, falsafiy muammolarning ko‘p xilligi va o‘ziga xosligi, turli-tumanligi, ular asosida falsafiy oqimlarning mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. | <p><i>O‘quv faoliyatining natijasi:</i></p> <p>« Argumentlash (dalillash) asoslangan fikrlarni, chin bilimlarni hosil qilish usuli bo‘lib hisoblanadi. Argumentlash (dalillash) lotincha «argumetatio» so‘zidan olingan bo‘lib, ni asoslash uchun qo‘llanadigan fikrlarga nisbatan ishlatiladi. Fikrlar chinligini asoslashning mantiqiy usullarini o‘rganuvchi mantiq fanining maxsus bo‘limi argumentlash (dalil keltirish) nazariyasi deb yuritiladi;</p> |
| <i>O‘qitish usullarivatenika</i>  | Ma‘ruza, namoyish, blits-so‘rov, pinbord texnikasi, aqliy hujum.   |
| <i>O‘qitish vositalari</i>  | Ma‘ruza matni, kompyuter texnologiyasi («Falsafa» fanidan elektron o‘quv-uslubiy majmua), slaydlar.  |
| <i>O‘qitish shakli</i>  | Frontal, kollektiv ish   |
| <i>O‘qitish shart-sharoitlari</i>   | Guruhiy, yakka tartib qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘quv xona.  |
| <i>Monitoring va baholash</i>   | Og‘zaki nazorat, yozma nazorat.  |

## Amaaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

| Ish jarayonlari vaqti                       | Faoliyatning mazmuni  |   |
|---|---|---|
|   | o'qituvchi  | tinglovchi  |
| 1 bosqich.<br>Kirish<br>(15 daqiqa)         | <p>1.1. O'quv fanining nomini aytadi, predmetning dastlabki umumiy tasavvurini beradi. Uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlarini va fan strukturasi tanishtiradi. (1-ilova)</p> <p>1.2. Mazkur fanning o'rganiladigan mavzulari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi. (2-ilova)</p> <p>O'quv dasturini tinglovchilarga tanishtiradi.</p> <p>1.3. Ma'ruza darsining maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. Tinglovchilarni suhbat tortish uchun jonlantiruvchi savollar beradi. (3-ilova).</p> |   |
| 2 bosqich.<br>Asosiy jarayon<br>(55 daqiqa) | <p>2.1. Ma'ruza rejasining barcha savollari bo'yicha vizual materialni namoyish qiladi. (4-ilova)</p> <p>Mavzuning asosiy joylarini yozib olishlarini so'raydi.</p> <p>Tayanch bilimlarini tekshirish maqsadida faollashtiruvchi savol-javob o'tkazadi. (5-ilova)</p> <p>Javoblarni to'g'rilaydi va xulosalaydi.</p> <p>2.2. Mavzuning tayanch iboralari Pinbord usulida o'rganiladi. Mavzuga oid bo'lmagan iboralar olib tashlanib, kerakli tushuncha va iboralar qo'shiladi. Berilgan javoblarni to'g'rilaydi, doskaga yozib beradi va xulosalaydi. (6-ilova)</p> <p>2.3. To'g'ri javob bergan tinglovchilarni rag'batlantiradi.</p>                  | <p>Tinglaydi, o'rganadi, Yozadi, aniqlaydi, savollar beradi. Asosiy joylarini yozadi</p> <p>Savollarga javob beradi</p> <p>Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladi.</p> |



|   |   | Yozadi.<br>Javob beradi  |
|---|---|--|
| 3<br>bosqich.<br>Yakuniy<br>bosqich (10<br>daqiqqa) | <p>Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qiladi.</p> <p>Faol ishtirok etgan tala-balarning bilim va ko'nikmalarini baxolaydi.</p> <p>3.3. Navbatdagi mashg'ulotda ko'rildigan masalani e'lon qiladi, va mustaqil tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi.</p> <p>3.4. Tinglovchilarga uyga vazifa qilib:</p> <p>(1). "Falsafa va fikr" mavzusida esse yozib kelish; (7-ilova)</p> <p>(2). Ma'ruza anjuman darsining dokladlar mavzusi beriladi. (8-ilova)</p> <p>(3). Kelgusi mavzu e'lon kilinadi va seminarga tayyorlanib kelishni aytadi.</p> <p>(4). O'z-o'zini nazorat yuzasidan savollar bilan tanishadi. (9- ilova).</p> <p>(5). Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishadi.</p> | <p>Tinglaydi</p> <p>faol tinglovchilar baholanadi</p> <p>Mustaqil ishlash uchun topshiriqni yozib oladi</p> <p>Dokladlar mavzusiga tayyorlanadi.</p> <p>O'UMga qarang</p> <p>O'UMga qarang</p> |

#### REJA:

1. Dalillashtirish va ishonch-e'tiqodning shakllanish jarayoni
2. Isbotlash, uning tarkibi va turlari.
3. Raddiya. Rad etish usullari.

Mantiqiy bog'liqlik. Dalillashtirish va ishonch-e'tiqodning shakllanish jarayoni Mantiq fani to'g'ri fikr yuritish qonun-qoidalari, shakllari bilan birgalikda fikrning asoslanilgan bo'lishligi masalasi bilan ham shug'ullanadi. Shunga ko'ra mantiq fanida fikrning asoslanilishi, dalillash maxsus mavzui hisoblaniladi. Dalillash to'g'ri fikr yuritish va shu orqali chin bilim, haqiqatga erishishning muhim qonuniyatidir. Oddiy muhokama yuritishdan tortib ilmiy - nazariy bilimlarga erishish mana shu qonuniyat, tamoyillarga rioya qilishni talab etadi. Dalillash quyidagi bir-biri bilan bog'liq vazifalarni bajaradi: 1) fikrning xato va chinligini asoslash ; 2) haqiqatga erishish; 3) e'tiqodni shakllantirish; 4) kishilarning ijtimoiy faolligini oshirish. Dalillash chin bilimlarga erishish, ilmiy nazariyalarni shakllantirishning usuli bo'lish bilan birgalikda muayyan qarash, g'oyalarni kishilar e'tiqodi, faoliyatlari motiviga aylantirishning muhim vositasi bo'lib hisoblanadi. Shunga ko'ra dalillash jarayonida ijtimoiy, psixologik lingivistik omillar muhim rol'

o'ynaydi. Dalillashda tafakkurning qonun-qoidalari va shakllarining tamoyillari o'zaro birlikda qo'llaniladi va bu asosan fikrning chin yoki xatoligini asoslashga qaratilgan bo'ladi.

Dalillash deb muhokama, ilmiy taxmin, qarashlarni bevosita va vositali asoslovchi mantiqiy usulga aytiladi. Dalillash yangi nazariy bilimlarning hosil qilinishi hamda kishilarda iymone'tiqod, dunyoqarashning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Darhaqiqat, har qanday ilmiy nazariyalar asoslanilgan bilimlar tizimidir. Shuningdek, hech bir e'tiqod, dunyoqarash yo'qki, u dalillashni taqozo etmagan bo'lsin. Ma'lumki, har qanday nazariy bilimlar tizimi- fanlar tekshirilayotgan narsa, hodisaning sababini aniqlash orqali yuzaga keladi. Abu Nasr Forobiy o'zining «Ixso al-ulum» («Ilmlarning kelib chiqishi») nomli risolasida har bir fan sohasi, ilmiy bilimlar olamdagi substantsiya (javhar) va (oraz) sabablarini dalillash ehtiyoji yuzaga kelgandan keyin shakllanishligini ta'kidlaydi. 39 Dalillash, ayniqsa, kishilarda iymon-e'tiqod, dunyoqarashini shakllantirishda belgilovchi rol o'ynaydi. E'tiqod -bu kishilarning u yoki bu g'oya, qarashlar haqidagi tasavvurlari, faoliyatlarining ichki motiviga, tuyg'usiga aylangan, botinlashgan bilimlaridir. . E'tiqod kishilarning or-nomusi, iymoni bilan bog'liqdir. Shuning uchun ko'plab kishilar o'z e'tiqodlari yo'lida qurbon bo'lishni sharaf deb biladilar. E'tiqod asosini tashkil etuvchi qarash, g'oyalar shunchalik chin va xatolik mezoni bilan o'lchanmaydi, chunki ular kishilar uchun qadriyatli ahamiyatga molik bo'ladi. Shunga ko'ra ular kishilar tomonidan hissiy bilish xamda ongi, tafakkuri o'z-o'ziga qaratilishi darajasida idrok etiladi. E'tiqod har qanday dunyoqarashning negizi hisoblanadi. Shunga ko'ra u diniy, falsafiy va nazariy e'tiqodlarga ajraladi. Lekin e'tiqod qanday shakl, ko'rinishda bo'lmasin, uning shakllanishi bevosita mantiqiy omil bilan shartlangan bo'ladi. Kommunistik mafkura homiylari uzoq yillar mobaynida diniy e'tiqodga qarshi kurash olib bordilar va bunda unga fan, ilmni qarshi qo'yidilar. Aniqrog'i, fandan xudoning yo'qligini asoslovchi vosita sifatida foydalanishga urinadilar. 39 Қаранг: «Форобий Абу Наср. Илмларнинг келиб чиқиши тўғрисида. //Фозил одамлар шахри. Тошкент, Абдулла Қодирий номли халқ мероси нашриёти. 1993, 175-бет.

Lekin kishilik tarixida fan dinga zid bo'lmagan, balki o'zaro dialektik birlikda rivojlangan, shakllangan. Germaniyalik olim Dinard insoniyat madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan 290 nafar olimning fikrini o'rganib chiqib, quyidagini aniqlagan: 290 kishidan 20 kishi hech bir aniq e'tiqodga erishmagan, 242 kishi xudoga ishonuvchi, faqat ularning 20 tasi din bilan qiziqmaganlar. Hozirgi zamon fani mikro va makroolam sarhadiga qanchalik chuqur kirib borar ekan, uning mo''jizalariga yanada ko'proq duch kelmokda. Ba'zi ilm ahllari bunday mo''jizalar oldida lol qolganlari holda, o'zlarining e'tiqodlarini ham o'zgartiradilar-dahriylikdan qaytib Xudoning barahaqligiga iymon keltiradilar. Bu o'rinda insoniyat tarixida birinchi bo'lib Oy sathiga qadam qo'ygan amerikalik astronomt

Neyl Armstrangning nasroniylikdan kechib musulmonlikni qabul qilganini ko'rsatish xarakterlidir. (Bu haqida batafsil qarang; "Ilohiy mo'jizalar". Toshkent, "Cho'lpon", 1995, 26 -bet.) Kishilarimizda, xususan, yoshlarda milliy g'oyani iymon-e'tiqod darajasida shakllantirish talab etiladiki, bu murakkab vazifaning bajarilishida dalillash mantiqiy usuli eng muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Chunki har qanday g'oya, qarashlarning chin, haqiqatligi dalillab berilgandagina ular kishilarning ishonch, e'tiqodiga, faoliyatining motivi, maqsadiga aylanadilar. Isbotlash va rad etish dalillashning mantiqiy asosini tashkil etadi. Bunda faqat mantiqiy jihat hisobga olingani holda dalillashning boshqa (ijtimoiy, psixologik, lingvistik) omillari fikran soqit qilinadi. Shuning uchun u yoki bu qarash, g'oyalar, garchi mantiqan asoslanib berilsa-da, kishilarning e'tiqodlariga aylanmasligi mumkin va, aksincha, mantiqan asoslanmagan bilimlar kishilar amaliy faoliyatlari uchun dasturilamal sifatida amal qilish mumkin.

**2-mavzu: Isbotlashning tuzulishi: tezis, asoslar (argumentlar),  
demonstratsiya (isbotlash usuli) (2 soat)**

**AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI**

|                                      |  |
|--------------------------------------|--|
| <i>Tinglovchilar soni:</i>           | <i>Vaqt: 2 soat.</i>   |
| <i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>  | Ma'ruza – anjuman  |
| <i>Ma'ruza rejasi</i>                | Reja:<br>1. <i>Isbotlash va rad etishning umumiy tavsifi.</i><br>2. <i>Isbotlash va rad etishning turlari.</i><br>3. <i>Fikrni asoslashda uchraydigan xatolar.</i>   |
| <i>O'quv mashg'ulotining maqsadi</i> | “Argumentlash nazariyasi va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi” darslari qiziqarli va tinglovchiga boy axborot beradigan bo‘lishiga yordam beradigan ulublar juda ko‘p. Lekin ular orasida falsafaning eng sinalgan va eng qadimiy uslubi bo‘lgan “suqrotcha baxs”ga hech qaysi uslub yeta olmaydi. Zero aynan shu uslub dialektik fikrlash uslubidir va aynan shu uslub dunyoga Suqrot, Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino kabi ko‘plab mutafakkirlarni yetishtirgan. Ayni shu uslub Platon dialoglarida aks etgan va hozirgacha insoniyat yetuk mutafakkirlarini kamolotga yetkazishda davom etmoqda. Bu uslubni yaxshi bilish uchun mazkur dialoglarni chuqur o‘rganish kerak. |

|   |  |
|---|--|
| <p><i>Pedagogik vazifa:</i><br/>- Bugungi kunda ularning o‘zbek tilidagi tarjimasi amalga oshirilgani esa ishimizni yanada yengillashtirdi. Bu uslub seminarada emas, balki faqat ma’ruzalar vaqtida o‘kaziladi. Bunda o‘qituvchi Suqrotning, tinglovchilar esa Suqrotning suhbatdoshi rollarini o‘ynaydilar. Mazkur metodni mashq orqaligina namoyish etish mumkin. Shuning uchun bu yerda ushbu uslubga boshqa to‘xtalmaymiz;</p> | <p>o‘quv faoliyatining natijasi:<br/>Sharq – jahon sivilizatsiyasining markaz-laridan biri ekanligini yoritadi.</p> <p>Qadimiy Sharq, Misr va Bobildagi falsafiy fikrlardan misollar keltiradi va taqqoslaydi.</p> <p>Hind falsafasi: vedalar va upanishadalar, jaynizm, hinduizm va buddizm xaqida gapirib beradi.</p> <p>Qadimgi Xitoy falsafasi: Konfutsiy va Lao Szi, konfutsiylik va daosizm g‘oyalarining asosiy mazmunini gapirib beradi.</p> |
| <p><i>O‘qitish usullari va texnikasi</i></p>  | <p>Ma’ruza-anjuman, bahs-munozara, taqdimot texnikasi</p>  |
| <p><i>O‘qitish vositalari</i></p>   | <p>Ma’ruza matni, lazerli proyektor, kompyuter texnologiyasi ma’ruzachilar tomonidan tayyorlangan ko‘rgazmalar.</p>  |
| <p><i>O‘qitish shakli</i></p>   | <p>Kollektiv ish</p>   |
| <p><i>O‘qitish shart-sharoitlari</i></p>  | <p>Texnik vositalar bilan ta’minlangan, o‘qitish usullarini qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘quv xona.</p>  |
| <p><i>Monitoring va baholash</i></p>  | <p>Kuzatish, og‘zaki nazorat.</p>  |

### Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi

| Ish jarayonlari vaqti    | Faoliyatning mazmuni   |            |
|--------------------------|--|------------|
|                          | O‘qituvchi   | Tinglovchi |
| Tashkiliy bosqich.<br>(3 | 1.1. Ma’ruza mavzusi bo‘yicha doklamlarning mavzularini avvalgi darsda beradi (1-Ilova). |            |

|  |   |  |
|--|---|--|
| <p>daqiq)</p>  | <p>1.2. Berilgan mavzularning fanni o'zlashtirishdagi dolzarbligini tushuntiradi.</p> <p>1.3. Ma'ruzani o'rganish uchun adabiyotlar ro'yxatini tavsiya qiladi.</p> <p>1.4. Doklad mavzularini xamda xar bir mavzu bo'yicha opponent va taqrizchilarning erkin tanlovini tashkil etadi.</p> <p>1.5. Dokladchilarga tanlangan referat bo'yicha reja tuzish vazifasini beradi. Ularga maslaxatlar o'tkazadi.</p> <p>1.6. Guruxdagi qolgan tinglovchilarga ma'ruza matnini o'rganib dokladchilar uchun savollar tuzishni vazifa qiladi (2-Ilova).</p> <p>1.7. Baxolash tizimi bilan opponent va taqrizchilarni tanishtiradi. Dokladchilar bilan chiqish shakli va reglamentni muxokama qiladi(3-Ilova).</p> <p>1.8. Referatlar mazmuni bilan tanishadi.</p> |  |
| <p>1 bosqich. O'quv mashg'ulotga kirish (5 daqiqa)</p> | <p>1.1 Mavzuni va uning maqsadi, rejalashtirilgan o'quv natija-larni ko'rgazmali ravishda slayd yoki kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan elektron o'quv-uslubiy majmuani taqdim etgan xolda tanishtiradi.</p> <p>1.2 Ma'ruza-anjumanni baxs-munozara shaklida o'tilishini e'lon qiladi va baxolash mezonlarini ekranga chiqarib qo'yadi (4-Ilova).</p>  |  |
| <p>2 boskich. Informat sion (axborot) (60 daqiqa)</p>  | <p>2.1. Dokladchilarning chiqishla-rini tashkil etadi.</p> <p>2.2. Doklad mazmuni bo'yicha kollektiv muxokamani tashkil etadi va ilg'or tinglovchilar bilan kollektiv muxokama jarayonini yo'naltiradi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- savollar beradi (2-ilova)</li> <li>-dokladning asosiy qismlarini aniqlashtiradi.</li> <li>-dokladda aytilgan gaplarga qiziqish uyg'otadi.</li> </ul>   | <p>2.1. Ishtirokchi tinglovchi dokladini o'qiydi. Taqrizchidok ladning yutuq va kamchilik-larini aytadi. Opponentlar o'z fikr-larini bildirib savollar</p> |

|   |  |   |
|---|--|---|
|   | <p>-doklad mazmuniga aloxida e'ti-bor qaratadi.</p> <p>-doklamlarning e'tiborli joy-larida ularni to'xtatadi va kollektiv muxokamani tashkil etadi.</p> <p>-xar bir doklad qisqacha umum-lashtiriladi.</p> | <p>beradi.</p> <p>2.2. Tinglovchilar jamoa bo'lib doklad maz-munini muxokama qiladilar, baxsla-shadilar.</p> <p>2.3. Mavzu bo'yicha munozaralarni ekspert-lar baxolaydilar.</p> |
| <p>3 bosqich. Yakuniy bosqich (12 daqiqa)</p> | <p>Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qiladi.</p> <p>3.2. Tinglovchilarga baxolash nati-jasini e'lon qiladi. Natijalarga izox beradi.</p> <p>3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi(5-Ilova).</p>  | <p>Ekspertlar:</p> <p>1.Dokladchilar, oppo-nentlar va retsenzent-larning faoliyatiga baxo beradilar.</p> <p>2. Ballarni qo'shib baxo chiqaradilar</p> <p>O'UMga qarang</p>      |

Isbotlash, uning tarkibi va turlari. Isbotlash deb berilgan hukmning chinligi boshqa chin hukmlar yordamida asoslanuvchi mantiqiy usulga aytiladi. Bunda berilgan hukmning chinligi keltirilgan dalil- hukmlarning chinligidan mantiqan keltirib chiqariladi. Isbot uch tarkibiy elementdan tashkil topgan bo'ladi: tezis, asoslar(argumentlar), namoyish etish - isbotlash usuli. Tezis (grekcha thesis- qoida, fikr) -bu chinligi asoslanishi talab etiladigan muhokamadir. Tezis sifatida nazariy va amaliy ahamiyatga molik muammoviy hukmlar olinadi. Bunday ahamiyatga ega bo'lmagan, shuningdek, aksiomatik tarzdagi muhokamalarni isbotlashning keragi bo'lmaydi. Masalan: "Baliq suvda yashaydi", «Amudaryo-Markaziy Osiyodagi daryo» hukmlarini tezis sifatida qabul qilib bo'lmaydi. Agar ularni "Okun balig'i chuchuk suvda yashaydi», «Amudaryoning suvi yil sayin kamayib bormoqda» hukmlariga aylantirsak, ular tezis maqomatini oladi. Tezis isbot etishning bosh elementi hisoblanadi, chunki isbotlashning so'nggi maqsadi- berilgan tezisning chinligini asoslashga qaratilgan bo'ladi. Tezisni aniq ifodalash, ilgari surish, va

uni asoslay bilish mantiqiy fikr yuritishning muhim sharti hisoblanadi. Muhokama yuritishdagi noaniqlik, mavhumlik, ziddiyatlilik ko'pgina hollarda ana shu shartning buzilishi natijasi o'laroq sodir bo'ladi. Ifodalanyotgan fikr mazmuni va muhokama tizimida tutgan mavqeiga ko'ra tezis bosh va ikkinchi darajali bo'ladi. Bosh tezis — bu muhokama tizimidagi isbot etilishi talab etiladigan asosiy fikr bo'lib, uning mazmuni ikkinchi darajali tezislarning asoslanishi orqali ochiladi. Ikkinchi darajali tezis deb bosh tezisga bo'ysunuvchi va chinligi mustaqil tarzda asoslanishi talab etadigan muhokamaga aytiladi. Ikkinchi darajali tezislar muayyan, kontseptsiya, nuqtai-nazarlarning asoslanishida ilgari suriladi. Va bunda ular bosh tezisni asoslash uchun xizmat qiladi.

1. Iqtisodiyotimizni muvaffaqiyatli isloh etishning eng muhim natijasi bo'lmish mustahkam makroiqtisodiy barqarorlikka erishildi.

2. Milliy valyutamiz, so'mimiz mustahkamlandi.

3. Xususiy lashtirish jarayoni chuqurlashdi va kengaydi.

4. Mo'ljallangan investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Muhokama yuritishda bosh tezisni belgilash va undan ikkinchi darajali tezislarni keltirib chiqarish isbot etish jarayonining zaruriy shartidir.

Dalil (lotincha argumentum) mantiqiy asos- tezisning chinligini asoslovchi muhokamalardir. Dalilda tezisda ifodalanyotgan natija, oqibatning mantiqiy asosi ko'rsatiladi. Masalan: "Aristotel`-dualist faylasuf" (tezis), "Chunki u moddiy va ruhiy substantsiya (javhalarni) teng ahamiyatga ega bo'lgan ibtidolar deb hisoblaydi". (argument). Isbotlashda argument vazifasini amaliyotda aniqlangan bilimlar o'taydi.

Shunga ko'ra faktlar, tariflar, qoidalar, aksioma, postulatlar, ilmiy nazariyalar argumentlar sifatida keltiriladi. Faktlar-bu chinligiga hech qanday shak-shubha bo'lmagan bilimlardir. Rus fiziologi P.P.Pavlov faktlarning ilmiy bilishdagi roli haqida shunday deb yozgan: "Faktlar olim uchun havodir. Usiz parvoz qilish mumkin emas". Faktlar ashyoviy, raqamli (statistik ma'lumotlar) va boshqa shakllarda bo'ladi. Faktlar inkor etishda ham muhim dalil hisoblanadi. Isbotda berilgan tezisning chinligi ko'pincha inkor - rad orqali ko'rsatiladiki, bunda asosan faktlarga murojat etiladi. Bu haqida keyinroq to'xtalamiz.

Aksioma (grekcha axioma-shuhbasiz), postulat (lotincha postulatum -talab darajasi) o'zgarmas haqiqat darajasidagi bilimlardir. Shuning uchun ulardan isbot etishda asosiy dalillar sifatida qo'llaniladi. Aksioma, postulatlar amaliyotda qaytaqayta sinab ko'rilgan, umumiy qoida sifatida qabul qilingan bilimlardir. Har bir fan o'z aksioma, postulatlariga ega bo'lib, (masalan, matematikada aksiomalar vazifasini chinligi isbotlangan formulalar, geometriyada teoremlar o'taydi) ular vositasida yana yangi formula va teoremlar hosil qilinadi. Ijtimoiy fanlar sohasida kishilik tarixi taraqqiyotining barcha etaplarida sinalgan va umumiy qonuniyat maqomatini olgan tamoyillar aksiomalar sifatida qabul qilinadi. Masalan: "Bozor iqqisodi-jamiyat tarakqiyotining bosh omili", degan tamoyil aksiomatik xarakteriga ega bo'lib, u bugungi kunda sobiq sotsialistik mamlakatlar o'zlarining

taraqqiyotini mazkur tamoyil asosida amalga oshirmoqdalar. Isbotlash usuli – demonstratsiya tezis bilan argumentlar o’rtasidagi mantiqiy aloqadan iborat. U xulosa chiqarish shaklida bo’ladi, ya’ni tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqan keltirib chiqariladi. Isbotlashning ikki turi mavjud: bevosita isbotlash, bivosita isbotlash. Bevosita isbotlashda tezisning chinligi to’g’ridan-to’g’ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bo’lgan hukmlardan foydalanilmaydi. Tezis ko’p hollarda yakka hodisani ifoda qilib keladi va ma’lum bir umumiy bilimdan, masalan, qonundan argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi. Masalan, «O’zbekiston – mustaqil davlatdir», degan hukm (tezis)ning chinligi «O’zbekistonning mustaqil davlat deb e’lon qilinishi, uning xalqaro miqyosda e’tirof etilishi» kabi asoslar yordamida isbotlanadi. Bivosita isbotlashda esa tezisning chinligi unga zid bo’lgan hukmning (antitezisning) xatoligini ko’rsatish orqali asoslanadi. Antitezis qanday shaklda ifodalangan bo’lishiga qarab apagogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash farq qilinadi. Apagogik isbotlash tezis (a) va antitezis ( – a ) o’rtasidagi munosabatga asoslanadi. Masalan, «Materiya harakatsiz mavjud emas», degan hukmning chinligini asoslash uchun unga zid bo’lgan «Materiya harakatsiz mavjud», degan hukm olinadi.

Apagogik isbotlashda antitezis topilib (1-bosqich), vaqtincha chin deb qabul qilinadi va undan ma’lum bir natija keltirib chiqariladi (2-bosqich), so’ngra bu natijalarning xatoligi ko’rsatiladi (3-bosqich) va demak, tezisning chinligi isbotlanadi. Masalan, «Materiya harakatsiz mavjud», degan hukm chin bo’lsa, «Moddiy predmetlar strukturasi mavjud», degan fikr (antitezisdan kelib chiqqan natija) ham chin bo’ladi. Bizga ma’lumki, moddiy predmetlar tarkibsiz (uni tashkil qiluvchi elementlar va ularning o’zaro aloqasiz) mavjud emas. Demak, «Materiya harakatsiz mavjud», degan fikr xato, shu tariqa «Materiya harakatsiz mavjud emas», degan fikrning chinligi asoslanadi. Ayiruvchi isbotlashda tezis sof ayiruvchi hukmning (kuchli diz’yunksiyaning) bir a’zosi bo’lib, uning chinligi boshqa a’zolarining (antitezisning) xatoligini ko’rsatish orqali asoslanadi. Masalan, «Jinoyatni yo A, yo V, yo S shaxslar sodir etgan», degan fikr tekshirilib, «Jinoyatni V shaxs ham, S shaxs ham sodir etmagan»ligi aniqlanadi va shu tariqa «Jinoyatni A shaxs sodir qilgan», degan hukmning chinligi asoslanadi. Bu misolda ayiruvchi isbotlash ayiruvchi – qat’iy sillogizmni inkor etib, tasdiqlovchi modusi bo’yicha qurilgan. Ayiruvchi isbotlashda barcha muqobil variantlar to’liq olingandagina xulosa chin bo’ladi, ya’ni tezis isbotlanadi.

3. Raddiya. Rad etish usullari. Raddiya – isbotni buzishga qaratilgan mantiqiy amal. Birorta fikrning chinligini rad etish ayni paytda unga zid bo’lgan fikrning xatoligini ko’rsatishdan iborat bo’lganligi uchun raddiyani isbotlashning xususiy ko’rinishi, deb hisoblash mumkin. Raddiya ham isbotlash kabi tezis (rad qilinishi lozim bo’lgan hukm), argumentlar (tezisni rad qiluvchi hukmlar) va demonstratsiya (rad etish usuli) dan tashkil topgan bo’ladi. Raddiya birorta masalani muhokama qilish, ya’ni bahs, munozara jarayonida uchraydi. Bahs qatnashchilaridan biri



ma'lum bir tezisni ilgari surib, uni himoya qilsa (proponent), boshqasi unga qarshi chiqadi (opponent). Hal qilinmagan, munozarali masalalar bo'yicha olib boriladigan bahslar polemika hisoblanib, unda qarama-qarshi tezislar asoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi. Raddiya uch xil usul bilan amalga oshiriladi: I Tezisni rad etish II Argumentlarni rad etish III Demonstratsiyani rad etish. I. Tezisni rad etish. Tezisni rad etishning quyidagi usullari mavjud: 1.Faktlar orqali rad etish. Bu eng ishonchli va samarali usuldir. Bunda bo'lib o'tgan voqealar, statistik ma'lumotlarga asoslanib tezis rad etiladi. Masalan, «Sovet davrida O'zbekiston to'laqonli mustaqil respublika bo'lgan», degan tezisni rad etish, ya'ni uning noto'g'ri ekanligini isbotlash uchun tarixiy faktlarga asoslanamiz. O'sha davrda respublika rahbariyati birorta muhim masalani Moskvaning ruxsatisiz hal qila olmaganligiga dalillar keltirib, tezisni rad etamiz. 2.Tezisdan kelib chiqadigan natijalarning xatoligini (yoki ziddiyatli ekanligini) ko'rsatish orqali rad etish. Bunda tezisdan kelib chiqadigan natijalarning chin emasligi asoslab beriladi. Bu usul «bema'nilikka olib kelish», deb ataladi. Rad etilayotgan tezis vaqtincha chin deb tan olinadi, undan kelib chiqadigan natijalar aniqlanib, bu natijalarning haqiqatga zid, noto'g'ri ekanligi isbotlanadi. Chin asosdan xato natija kelib chiqmaydi, aks holda bu bema'nilik bo'ladi. «Bema'nilikka olib kelish» usulining formulasi quyidagicha  $(a \rightarrow b) \rightarrow ((a \rightarrow b) \rightarrow a)$  3.Tezisni antitezisni isbotlash orqali rad etish. Rad etilayotgan tezisga zid bo'lgan yangi tezis (antitezis) olinadi va isbotlanadi. Uchinchisi istisno qonuniga muvofiq, antitezisning chinligidan tezisning xatoligi keltirib chiqariladi. Ne-ne madrasayu masjidlar, oliy koshonalarni qurgan, ne-ne olimu fuzalolarning boshini silagan, Qur'oni karimni yod bilgan inson yovuz bo'lmaydi. Qonxo'r odam «Kuch – adolatda», deyishi mumkinmi?» II.Argumentlarni rad etish. Tezisni isbotlash uchun opponent tomonidan keltirilgan argumentlar tanqid qilinib, ularning xatoligi yoki tezisni isbotlash uchun etarli emasligi aniqlanadi. Argumentlarning xatoligi tezisning ham xato ekanligini isbotlamaydi, bunda tezis chin bo'lishi ham mumkin: Argumentlarni rad etish orqali tezisning isbotlanmaganligi asoslab beriladi. III.Isbotlash usulini tanqid qilish orqali rad etish. Rad etishning bu usulida isbotlashda yo'l qo'yilgan xatolar aniqlanadi. Bunda rad etilayotgan tezisning chinligi uni asoslash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasligi asoslab beriladi. Isbotlash usulida yo'l qo'yilgan xato aniqlanganda tezis rad etilmaydi, uni qayta isbotlash talab qilinadi. Rad etishning yuqorida ko'rsatilgan usullari ko'pincha birgalikda, bir-birini to'ldirgan holda qo'llanadi. 4. Isbotlash va rad etish qoidalari, ular buzilganda kelib chiquvchi mantiqiy xatolar Tezisga aloqador qoidalar: 1. Tezis mantiqan aniq va ravshan bo'lishi kerak. Bu qoida buzilsa, isbotlash yoki rad etish o'zining aniq predmetiga ega bo'lmay qoladi, uni amalga oshirishga urinish behuda ish hisoblanadi. 2. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida boshidan oxirigacha o'zgarmasligi kerak. Bu qoida buzilsa, «tezisni almashtirish» degan xato kelib chiqadi. Argumentlarga nisbatan qoidalar: 1. Tezisni asoslash uchun keltirilgan argumentlar chin hukmlar bo'lishi va bir-biriga zid bo'lmasligi lozim.

2. Argumentlar tezisni asoslash uchun etarli bo'lishi kerak. 3. Argumentlar tezisdan mustaqil holda chinligi isbotlangan hukmlar bo'lishi lozim. Isbotlash usulining qoidasi: 1. Tezis argumentlardan mantiqiy tarzda kelib chiqadigan xulosa bo'lishi lozim. Buning uchun isbotlash yoki rad etishda xulosa chiqarish qoidalariga rioya qilish zarur. Isbotlash va rad etish qoidalarining buzilishi mantiqiy xatolarga olib keladi va ular uch turga bo'linadi: I. Isbotlanayotgan tezisga aloqador xatoliklar: 1. Tezisni almashtirish. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida o'zgarishiga shart, degan qoidaning buzilishi tezisning almashtirilishiga sabab bo'ladi. Tezis ataylab yoki bilmasdan boshqa tezis bilan almashtiriladi va bunda yangi tezis isbotlanadi yoki rad etiladi. Tezis mazmunining torayishi yoki kengayishi ham bahs jarayonida tezisning o'zgarishiga olib keladi. Masalan, respublikamiz taraqqiyoti uchun milliy mafkura, milliy g'oyaning ahamiyati to'g'risidagi tezisni isbotlash davomida umuman jamiyatga mafkura kerakmi yoki yo'qmi, degan masalani isbot etishga harakat qilinsa, unda tezisning mazmuni kengayib ketadi va tezis almashinadi. 2. Insonning shaxsiy sifatini bahona qilib tezisni almashtirish. Bahs jarayonida mavzudan chetga chiqib, opponentning shaxsiy, ijtimoiy hayoti, yaxshi fazilatlari yoki kamchiliklari xususida fikr yuritib, shu asosda tezisni isbotlangan yoki rad etilgan, deb ta'kidlash tezisning almashinishiga sabab bo'ladi. Bunday xatoga ataylab yo'l qo'yiladi. Tinglovchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir qilish orqali isbotlanmagan tezisning chin deb qabul qilinishiga urinish ham tezisni almashtirish hisoblanadi. 3. Ortiqcha yoki kam isbotlashga urinish natijasida tezisning almashinishi. Fikr ortiqcha isbotlansa, berilgan tezis o'rniga undan kuchliroq tezisni isbotlashga harakat qilinadi. Agar A hodisadan V kelib chiqsa, lekin V hodisadan A kelib chiqmasa, unda A hodisani ifodalovchi tezis V hodisani ifodalovchi tezisdan kuchliroq bo'ladi. Masalan, «A shaxs birinchi bo'lib janjalni boshlamagan» degan tezis (V) o'rniga, «A shaxs umuman janjal bo'lgan erda yo'q edi» degan tezisni (A) isbotlashga harakat qilinadi. Ikkinchi tezisni isbotlab bo'lmaydi, chunki A shaxsning janjalda qatnashganligini ko'rgan guvohlar bor.

II. Argument (asos)larga taalluqli xatolar: 1. Asoslarning xatoligi. Tezis isbotlanganda yoki rad etilganda xato argumentlarga chin deb asoslanish natijasida ataylab yoki bilmasdan mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, qadimgi grek faylasufi Fales o'z ta'limotini hamma narsa suvdan paydo bo'lgan, degan fikrga asoslanib yaratgan. 2. Asoslarni avvaldan taxminlash shaklidagi xato. Tezis isbotlanmagan argumentlarga asoslansa, bunday argumentlar tezisning chinligini isbotlamaydi, balki tezisning chinligi taxminlanadi, xolos. 3. «Aylanma isbot etish» deb nomlanuvchi xato. Tezisning chinligi argumentlar orqali, argumentlarning chinligi tezis orqali isbotlansa mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, «So'zning qudrati fikr bilan o'lchanadi», degan tezisni «Fikrning qudrati so'z bilan o'lchanadi», deb isbotlasak, yuqorida aytilgan xatoga yo'l qo'yiladi.

### 3-mavzu: *Isbotlash turlari (2 soat)*

#### AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

|  |  |
|--|--|
| <i>Tinglovchilar soni:</i>   | <i>Vaqt: 2 soat.</i>   |
| <i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>  | Ma'ruza – anjuman  |
| <i>Ma'ruza rejasi</i>  | Reja:<br>1. <i>Bevosita isbotlash.</i><br>2. <i>Bilvosita isbotlash.</i><br>3. <i>Rad etish</i>  |
| <i>O'quv mashg'ulotining maqsadi</i>   | “Argumentlash nazariyasi va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi” darslari qiziqarli va tinglovchiga boy axborot beradigan bo‘lishiga yordam beradigan ulublar juda ko‘p. Lekin ular orasida falsafaning eng sinalgan va eng qadimiy uslubi bo‘lgan “suqrotcha baxs”ga hech qaysi uslub yeta olmaydi. Zero aynan shu uslub dialektik fikrlash uslubidir va aynan shu uslub dunyoga Suqrot, Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino kabi ko‘plab mutafakkirlarni yetishtirgan. Ayni shu uslub Platon dialoglarida aks etgan va hozirgacha insoniyat yetuk mutafakkirlarini kamolotga yetkazishda davom etmoqda. Bu uslubni yaxshi bilish uchun mazkur dialoglarni chuqur o‘rganish kerak. |
| <i>Pedagogik vazifa:</i><br>- Bugungi kunda ularning o‘zbek tilidagi tarjimasini amalga oshirilgani esa ishimizni yanada yengillashtirdi. Bu uslub seminarida emas, balki faqat ma’ruzalar vaqtida o‘kaziladi. Bunda o‘qituvchi Suqrotning, tinglovchilar esa Suqrotning suhbatdoshi rollarini o‘ynaydilar. Mazkur metodni mashq orqaligina namoyish etish mumkin. Shuning uchun | o‘quv faoliyatining natijasi:<br>Sharq – jahon sivilizatsiyasining markaz-laridan biri ekanligini yoritadi.<br><br>Qadimiy Sharq, Misr va Bobildagi falsafiy fikrlardan misollar keltiradi va taqqoslaydi.<br>Hind falsafasi: vedalar va upanishadalar, jaynizm, hinduizm va buddizm xaqida gapirib beradi.<br>Qadimgi Xitoy falsafasi: Konfutsiy va Lao Szi, konfutsiylik va daosizm g‘oyalarining asosiy mazmunini gapirib beradi.   |

|  |  |
|--|--|
| bu yerda ushbu uslubga boshqa to'xtalmaymiz; |  |
| <i>O'qitish usullari va texnikasi</i>        | Ma'ruza-anjuman, bahs-munozara, taqdimot texnikasi   |
| <i>O'qitish vositalari</i>                   | Ma'ruza matni, lazerli proyektor, kompyuter texnologiyasi ma'ruzachilar tomonidan tayyorlangan ko'rgazmalar. |
| <i>O'qitish shakli</i>                       | Kollektiv ish  |
| <i>O'qitish shart-sharoitlari</i>            | Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan o'quv xona.                 |
| <i>Monitoring va baholash</i>                | Kuzatish, og'zaki nazorat.   |

### Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

| Ish jarayonlari vaqti            | Faoliyatning mazmuni  |            |
|----------------------------------|---|------------|
|                                  | O'qituvchi  | Tinglovchi |
| Tashkiliy bosqich.<br>(3 daqiqa) | <p>1.1. Ma'ruza mavzusi bo'yicha doklamlarning mavzularini avvalgi darsda beradi (1-Ilova).</p> <p>1.2. Berilgan mavzularning fanni o'zlashtirishdagi dolzarbligini tushuntiradi.</p> <p>1.3. Ma'ruzani o'rganish uchun adabiyotlar ro'yxatini tavsiya qiladi.</p> <p>1.4. Doklad mavzularini xamda xar bir mavzu bo'yicha opponent va taqrizchilarning erkin tanlovini tashkil etadi.</p> <p>1.5. Dokladchilarga tanlangan referat bo'yicha reja tuzish vazifasini beradi. Ularga maslaxatlar o'tkazadi.</p> <p>1.6. Guruxdagi qolgan tinglovchilarga ma'ruza matnini o'rganib dokladchilar uchun savollar tuzishni vazifa qiladi (2-Ilova).</p> <p>1.7. Baxolash tizimi bilan opponent va taqrizchilarni tanishtiradi. Dokladchilar bilan chiqish shakli va reglamentni muxokama qiladi(3-Ilova).</p> |            |

|   |  |  |
|---|--|--|
|   | 1.8. Referatlar mazmuni bilan tanishadi.   |  |
| 1<br>bosqich. O'quv<br>mashg'ulotga<br>kirish<br>(5<br>daqiq) | 1.1 Mavzuni va uning maqsadi, rejalashtirilgan o'quv natija-larni ko'rgazmali ravishda slayd yoki kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan elektron o'quv-uslubiy majmuani taqdim etgan xolda tanishtiradi.<br>1.2 Ma'ruza-anjumanni baxs-munozara shaklida o'tilishini e'lon qiladi va baxolash mezonlarini ekranga chiqarib qo'yadi (4-Ilova).  |  |
| 2<br>bosqich.<br>Informat<br>sion (axborot)<br>(60<br>daqiq)  | 2.1. Dokladchilarning chiqishla-rini tashkil etadi.<br>2.2. Doklad mazmuni bo'yicha kollektiv muxokamani tashkil etadi va ilg'or tinglovchilar bilan kollektiv muxokama jarayonini yo'naltiradi.<br>- savollar beradi (2-ilova)<br>-dokladning asosiy qismlarini aniqlashtiradi.<br>-dokladda aytilgan gaplarga qiziqish uyg'otadi.<br>-doklad mazmuniga aloxida e'ti-bor qaratadi.<br>-dokladlarning e'tiborli joy-larida ularni to'xtatadi va kollektiv muxokamani tashkil etadi.<br>-xar bir doklad qisqacha umum-lashtiriladi. | 2.1.<br>Ishtirokchi tinglovchi dokladini o'qiydi.<br>Taqrizchidok ladning yutuq va kamchilik-larini aytadi.<br>Opponentlar o'z fikr-larini bildirib savollar beradi.<br>2.2.<br>Tinglovchilar jamoa bo'lib doklad maz-munini muxokama qiladilar, baxsla-shadilar.<br>2.3. Mavzu bo'yicha munozaralarni ekspert-lar baxolaydilar. |

|   |   |   |
|---|---|---|
| <p>3 bosqich.<br/>Yakuniy bosqich<br/>(12 daqiqa)</p> | <p>Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qiladi.<br/>3.2. Tinglovchilarga baxolash nati-jasini e'lon qiladi. Natijalarga izox beradi.<br/>3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi(5-Ilova).</p> | <p>Ekspertlar:<br/>1.Dokladchilar, oppo-nentlar va retsenzent-larning faoliyatiga baxo beradilar.<br/>2. Ballarni qo'shib baxo chiqaradilar<br/>O'UMga qarang</p> |
|---|---|---|

Isbotlash usuli (demonstratsiya) bilan bog'liq xatolar. 1. «Yolg'on (soxta) isbotlash». Agar tezis uni isbotlash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasa, mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Bunda tezisga aloqador bo'lmagan argumentlarga asoslaniladi. Masalan, «A shaxs yomon odam», degan tezis «Tunda yomon odamlargina ko'chada yuradi», «A shaxs ko'chada tunda yuribdi» degan argumentlar bilan asoslansa, fikr yuzaki (soxta) isbotlangan bo'ladi. 2. Shartlangan fikrdan shartlanmagan fikrga o'tish. Muayyan vaqt, munosabat doirasida chin bo'lgan (shartlangan) fikrni, doimiy, o'zgarimas chin fikr deb qabul qilish natijasida mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. 3. Xulosa chiqarish qoidalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan xatolar: a) deduktiv xulosa chiqarishda uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bu haqda deduktiv xulosa chiqarish mavzusida batafsil ma'lumot berilgan; b) induktiv xulosa chiqarishda uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bular «shoshib umumlashtirish» va «undan keyin, demak, shuning uchun», deb ataluvchi xatoliklardir. Masalan, bir-ikki talabning darsga mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lishini umumlashtirib, «hamma talabalar mas'uliyatsiz», deb ta'kidlash xatodir; v) analogiyada uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bular «yolg'on analogiya» bilan bog'liq xatolardir. Unda tasodifiy belgining zaruriy deb olinishi, faqat birgina o'xshash belgiga asoslanishi yoki mutlaqo taqqoslab bo'lmaydigan hodisalarning o'zaro taqqoslanishi natijasida fikrda chalkashliklar yuzaga keladi. Mantiqiy xatolar tafakkur qonunlarini buzish, xulosa chiqarish qoidalariga amal qilmaslik natijasida yuzaga keladi. Mantiq tarixida isbotlash jarayonida ataylab (qasddan) xatoga yo'l qo'yuvchilar – sofistlar, ularning ta'limoti esa sofizm (grek. – ayyorlik) deb ataladi. Fikr yuritish jarayonida bilmasdan mantiqiy xatoga yo'l qo'yilsa, paralogizm deyiladi. Chinligini ham, xatoligini ham birday isbotlash mumkin bo'lgan fikrlar esa paradoks deb ataladi. Dalillarga doir koidalaretarli asos qonunining talablari bilan belgilanadi. Bu shu bilan izohlanadki, isbot va rad etish bu berilgan muhokamaning chin yoki xatoligini asoslashdir. 1. Dalillarchinligi amaliyotda

aniqlangan bilimlar bo'lishi zarur. Xato dalillar bilan tezisni isbot va rad etib bo'lmaydi. Mazkur qoidaning buzilishi ikkita mantiqiy xatolikka olib keladi: "asosiy yanglishish" va "asosni oldindan payqash". "Asosiy yanglishish" (lot: *egzog tundamentaeis*) xatoligining mohiyati shundaki, keltiriladigan dalillar xato, noto'g'ri bo'ladi. Masalan, Klavdiy Ptolomey (eramizgacha 90-160 yillar) dunyoning tuzilishi haqidagi qarashlarini "Quyosh er atrofida aylanadi", "er harakatsizdir", degan dalillar bilan asoslaydi. "Asosni oldindan payqash" (lotincha *petitio principii*) shunday mantiqiy xatolikka, unda ayrim taniqli, nomdor shaxslarning (avtoritetlarning) fikrlari, hali to'lasincha tasdiqlanmagan faktlar, kishilar orasida yurgan mish-mish gaplar dalillar sifatida keliriladi.

2. Dalillar tezisni etarli darajada asoslay olmog'i zarur. Mazkur qoidaning buzilishi "kelib chiqmaydi", degan (lot. *pop sequitur*) degan mantiqiy xatolikka olib keladi. Bunda keltiriladigan dalillar muayyan darajadagi chin bilimlar bo'lsada, lekin ular tezisni to'liqasoslab beraolmaydi. Masalan: Hozirgi paytda kechayotgan jahon- iqtisodiy inqirozning sabablarini ayrim G'arb mutaxassis, ekspertlari asosan moliya-bank tizimida yo'l qo'yiladigan nuqson, kamchiliklardir, deb asoslashga harakat qilmoqdalar. Lekin mazkur inqirozni keltirib chiqargan boshqa bir qancha omillari borligini Prezidentimiz ko'rsatib beradi. 42 3. Dalillarning chinligi mustaqil, tezisga bog'liq bo'lmagan holda isbot etiladigai bo'lishi kerak. Ushbu qoidaning buzilishi natijasida "fikrning bir doirada aylanishi" (lot. *circulus itjosus*) degan mantiqiy xatolik yuzaga keladi. Ushbu xatolikning mohiyati tezisniig dalillardan, dalillarning esa tezisdan keltirib chiqarishligi bilan izohlanadi Masalan, "Feyrebax- materialist" degan tezis "Materializm idealizmga muqobil falsafiy oqim. Feyerbax ana shu oqim vakilidir" tarzida asoslaniladigan bo'lsa, fikrning bir doirada aylanishiga yo'l qo'yilgan bo'ladi. Materializmning falsafiy oqim sifatidagi tamoyillari ko'rsatilgan paytdagina mazkur tezis mustaqil isbot etilgan bo'ladi. Isbotlash usuliga(namoyish etishga) oid qoidalar. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, isbotlash usuli dalillarning tezis bilan mantiqiy bog'lanishi usuli bo'lib, mazkur bog'lanish xulosa chiqarish shaklida bo'ladi. Shunga ko'ra xulosa chiqarishning umumiy va xususiy qoidalari namoyish etishga ham oid qoidalar hisoblanadi. Masalan, "Ehtimol" so'zi mustaqil so'zdir", degan tezisni: "Agar so'zlar mustaqil bo'lsa, unda gap bo'lagi bo'lib keladi. "Ehtimol" so'zi gap bo'lagi o'rnida keladi", degan dalillar bo'yicha isbot etib bo'lmaydi. Chunki bunda shartliqat'iy xulosa chiqarishning "natijani tasdiqlashdan asosni tasdiqlashga o'tish mumkin emas" degan qoidasi buzilgan. Isbotlash usulida xulosa chiqarish qoidalariga amal qilmaslik asosan ikki xil mantiqiy xatolikka yo'l qo'yishga olib keladi. 1. Juz'iylikning xususiyatini umumiylikka ko'chirish, ya'ni asoslardan shoshilib xulosa chiqarish. 2. Asosdagi atamalarning kengaytirilishi (lot.: *quaternio terminorum*). Birinchi xil xatolik "mantiqiy kvadrat" bo'yicha chiqariladigan xulosa qoidasi, ya'ni bo'ysunuvchi juz'iy hukmlarning chinligidan bo'ysundiruvchi umumiy hukmlarning chinligi keltirib chiqarmaslik kerak, degan qoida buzilganda, shuningdek,

to'liqsiz induksiya qo'llanilganda ro'y beradi. Bunga misol qilib Gidlyan va Ivanov degan kimsalarning 80-yillarning oxirlarida Respublikamizdagi ba'zi tumanlardagi paxta tayyorlash davlat rejasini to'ldirish masalasi bilan bog'liq kamchiliklarni aniqlash asosida "o'zbeklar ishi" degan tuhmat bilan xalqimizning nomini qora qilmoqchi bo'lganliklarini keltirish mumkin. Bunda ular ba'zi rahbarlarning bu boradagi aybini butun bir xalqning aybi sifatida ko'rsatishga harakat qilgan edilar.

Namoyish etishdagi ikkinchi xatolikka asoslardagi atamalarning hajman kengaytirilishi yoki toraytirilishi, turli ma'noda qo'llanishi natijasida yo'l qo'yiladi. Masalan, "fan" tushunchasi shu tarzda qo'llanilganda muhokama yuritishda shunday xatolik kelib chiqadi. Bunda muhokama yuritish quyidagicha bo'lishi mumkin: 1. Fan ijtimoiy ong shaklidir. Kosmologiya- fandır. Demak, kosmologiya ijtimoiy ong shaklidir. 2. Fan-ijtimoiy ong shakli. San'at- ijtimoiy ong shakli. Demak, san'ag fandır. Ushbu muhokama xulosalari xatodir, chunki kosmologiya ijtimoiy hayotga aloqasi bo'lmagan ilm sohasidir. Shuningdek, san'at fandan farq qiladigan ijtimoiy ong shaklidir. Isbotlash va inkor etish jarayonida u yoki bu mantiqiy xatolikka bilmagan holda va qasddan, anglashilgan tarzda yo'l qo'yiladi. Paralogizm. (yunon. rralogismost- noto'g'ri mulohaza) muhokama yuritishda anglamasdan, bexosdan yo'l qo'yiladigan xatolikdir. Bunday xatolik mantiqiy qonun-qoidalarining buzilishi tufayli ro'y beradi. Xalqimiz avval-azaldan sermulohazalik, teran mushohada yuritishni kishining eng muhim fazilati sifatida baholab kelganlar. "Oldin o'yla, keyin so'yla", "etti o'lchab bir kes", "O'ylamay gapirgan og'rimasdan o'ladi", "Ovsar do'stdan ziyrak dushman afzal" kabi xalq maqollari shu bois yaratilgandır. Sofizm (yunon. sophisa-ayyorlik) mantiqiy hiyla bo'lib, bunda uydurma, yolg'onlar chin, haqiqat tarzida ko'rsatiladi. Bunda sofistlar mantiqning qonun, qoidalari va usullaridan ustakorlik bilan foydalanadilar. Bundan ko'zda tutilgan maqsad-o'z muxoliflarini qasddan mantiqiy xatolikka, ziddiyatli fikr yuritishgayo'l qo'ydirishdir. Bu o'rinda qadimgi grek sofistlarining mulohazalaridan ayrim namunalar keltiramiz. "Bu kuchukning bolalari bor, demak, u ota. Ammo bu sening kuchuging, Demak, u sening otang. Sen uni urayotirsan, demak, sen o'z otangni urayotirsan". "O'g'ri yomon (keraksiz) narsani olishni istamaydi. Yaxshi narsani olish yaxshidir. Demak, o'g'ri yaxshilik istaydi." va hakoza. Sofizmning asosiy tamoyillari dastlab qadimgi Gretsiyadagi "dialektik maktab" vakillari- Protogor, Georgiy, Prodik va boshqalar tomonidan ishlab chiqiladi. Ular falsafaning asosiy maqsadi haqiqatni anglash, bunga esa bahsdialog asosida erishiladi, degan printsipga tayanadilar. Lekin bu printsip keyinchalik unutiladi va "bahs bahs uchun", degan tamoyilga aylanadi. Sofizmning asosiy tamoyillari keyinchalik dogmatizm (grekcha -gidogma-aqida, qaror), eklektika ( grekcha eklektikos -tanlamoq) deb ataladigan oqimlarning yuzaga kelishida asos bo'lib xizmat qiladi. Paradoks (grekcha rara -qarshi va doxa-fikr) ziddiyatli mulohaza bo'lib, u bir paytning o'zida ham chin, ham xato fikr sifatida anglashiladi. Mazkur ziddiyatni formal mantiq vositalari bilan hal qilib



bo'lmaydi. Masalan, mantiq ilmida eramizgacha IV asrda yashagan qadimgi grek. faylasufi, miletlik evbulid tomonidan ilgari surilgan "Yolg'onchi" nomi bilan ataladigan paradoksn olib qaraylik.

Bir kishi shunday deydi: "Men yolg'on gapirayotirman". Xo'sh u yolg'on gapirayotirmi, yoki rost? "U ham rost, ham yolg'on gapirdi", deb aytish mumkin. Darhaqiqat, u agar aldayotgan, yolg'on gapirayotgan bo'lsa, demak, u yolg'onchi. Agar u aldamayotgan bo'lsa, ya'ni yolg'on gapirayotganligini tan olayotgan bo'lsa, uning gapi rostdir. Shuningdek, "bu hukm xatodir", desak, agar u haqiqatdan xato bo'lsa, xato, xatoligi chin bo'lsa chindir. Paradokslarning sababi shuki, muhokamalardagi atama (sub'ekt va predikat) larning hajm va mazmuni noaniq bo'ladi. "Men yolg'on gapirayotirman" muhokamasini olib qaraylik. Bunda "yolg'on gapirish" tushunchasining mazmuni noaniqdir. Chunki u kishining nima haqida yolg'on gapirayotganligi noma'lumdir. Agar bu aniq ko'rsatiladigan, konkretlashtiriladigan bo'lsa, mazkur muhokamaning hech qanday paradoksligi qolmaydi. Masalan, kimdir: "Men Oy erning tabiiy yo'ldoshi desam, xato (yolg'on) gapirgan bo'laman" desa, haqiqatdan mavjud narsani inkor etayotganligini e'tirof etishi ma'nosida uning fikri chindir. Lekin u: "Men Oy erning tabiiy yo'ldoshi, deb yolg'on gapirayotirman", deb aytsa, uning fikri xatodir. Chunki u mavjud reallikni inkor etmoqda. "Bu hukm xatodir", degan mulohazani ham xuddi shu tarzda- uning atamalarini hajm va mazmun jihatidan konkretlashtirilsa, u holda paradokslilik bo'lmaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, qadimdanoq faylasuflar paradokslarning sababini aniqlashga va ularni hal etishning mantiqiy usullari ustida bosh qotirganlar. Masalan, stoiklik mantiqshunos Xrisipp (eramizgacha 281-208 yillar) "Yolg'onchi" paradoksiga bag'ishlab uchta risola yozadi. Rivoyatlarga ko'ra qadimgi grek mantiqshunoslari Diodor Kronos va Filet Kosskiylar ushbu paradoks echimi bilan butun umr shug'ullanadilar va bunga erisha olmagach, hayotlarini o'z jonlariga qasd qilish bilan tugatadilar. Hozirgi paytda paradokslarni echishning ba'zi usullari topilgan bo'lib, ular asosan dialektik mantiq tamoyillariga tayaniladi. Paradokslar fan sohasidagi antinomialarni (grekcha anti- qarama-qarshi, homos- qonun) hal etishga yo'naltiradi va shu jihatdan bilishda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki antinomialar fikr yuritishdagi ziddiyatlar bo'lib, uning echimi bilish jarayoni tarakqiyotining muhim omili hisoblanadi. Mazkur ziddiyatlar esa dialektik mantiq tamoyillari asosida hal etiladi. Masalan, quyidagi antinomialarni formal mantiqning nozidlik va uchinchisi mustasno qonunining talablari bo'yicha hal etib bo'lmaydi. 1) Olamning vaqtda boshlanishi bor va u fazoda chegaralangan. Olamning vaqtda boshlanishi yo'q va u fazoda chegaralanmagan. 2) Narsa, hodisalar doimiy o'zgarishda. Narsa, hodisalar nisbiy barqarorlikda, o'zgarishsiz majud.

#### 4-mavzu: Mantiqiy paradoks. Ilmiy muammo tushunchasi (2 soat)

#### AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI

|   |  |
|---|--|
| <i>Tinglovchilar soni:</i>  | <i>Vaqt: 2 soat.</i>   |
| <i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>   | Ma'ruza – anjuman  |
| <i>Ma'ruza rejasi</i>   | Reja:<br><ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mantiqiy paradoks tushunchasi</li> <li>2. Mantiqiy tahlil va uning strukturasi</li> <li>3. Ilmiy muammo tushunchasi</li> </ol>  |
| <i>O'quv mashg'ulotining maqsadi</i>  | “Argumentlash nazariyasi va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi” darslari qiziqarli va tinglovchiga boy axborot beradigan bo‘lishiga yordam beradigan ulublar juda ko‘p. Lekin ular orasida falsafaning eng sinalgan va eng qadimiy uslubi bo‘lgan “suqrotcha baxs”ga hech qaysi uslub yeta olmaydi. Zero aynan shu uslub dialektik fikrlash uslubidir va aynan shu uslub dunyoga Suqrot, Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino kabi ko‘plab mutafakkirlarni yetishtirgan. Ayni shu uslub Platon dialoglarida aks etgan va hozirgacha insoniyat yetuk mutafakkirlarini kamolotga yetkazishda davom etmoqda. Bu uslubni yaxshi bilish uchun mazkur dialoglarni chuqur o‘rganish kerak. |
| <i>Pedagogik vazifa:</i><br>- Bugungi kunda ularning o‘zbek tilidagi tarjimasi amalga oshirilgani esa ishimizni yanada yengillashtirdi. Bu uslub seminar emas, balki faqat ma’ruzalar vaqtida o‘kaziladi. Bunda o‘qituvchi Suqrotning, tinglovchilar esa Suqrotning suhbatdoshi rollarini o‘ynaydilar. Mazkur metodni mashq orqaligina namoyish etish | o‘quv faoliyatining natijasi:<br>Sharq – jahon sivilizatsiyasining markaz-laridan biri ekanligini yoritadi.<br><br>Qadimiy Sharq, Misr va Bobildagi falsafiy fikrlardan misollar keltiradi va taqqoslaydi.<br>Hind falsafasi: vedalar va upanishadalar, jaynizm, hinduizm va buddizm xaqida gapirib beradi.<br>Qadimgi Xitoy falsafasi: Konfutsiy va Lao Szi, konfutsiylik va daosizm g‘oyalarining asosiy mazmunini gapirib beradi.   |

|  |  |
|--|--|
| mumkin. Shuning uchun bu yerda ushbu uslubga boshqa to'xtalmaymiz; |  |
| <i>O'qitish usullari va texnikasi</i>                              | Ma'ruza-anjuman, bahs-munozara, taqdimot texnikasi   |
| <i>O'qitish vositalari</i>   | Ma'ruza matni, lazerli proyektor, kompyuter texnologiyasi ma'ruzachilar tomonidan tayyorlangan ko'rgazmalar. |
| <i>O'qitish shakli</i>   | Kollektiv ish  |
| <i>O'qitish shart-sharoitlari</i>                                  | Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan o'quv xona.                 |
| <i>Monitoring va baholash</i>                                      | Kuzatish, og'zaki nazorat.   |

### **Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi**

| Ish jarayonlari vaqti            | Faoliyatning mazmuni  |            |
|----------------------------------|---|------------|
|                                  | O'qituvchi  | Tinglovchi |
| Tashkiliy bosqich.<br>(3 daqiqa) | <p>1.1. Ma'ruza mavzusi bo'yicha doklamlarning mavzularini avvalgi darsda beradi (1-Ilova).</p> <p>1.2. Berilgan mavzularning fanni o'zlashtirishdagi dolzarbligini tushuntiradi.</p> <p>1.3. Ma'ruzani o'rganish uchun adabiyotlar ro'yxatini tavsiya qiladi.</p> <p>1.4. Doklad mavzularini xamda xar bir mavzu bo'yicha opponent va taqrizchilarning erkin tanlovini tashkil etadi.</p> <p>1.5. Dokladchilarga tanlangan referat bo'yicha reja tuzish vazifasini beradi. Ularga maslaxatlar o'tkazadi.</p> <p>1.6. Guruxdagi qolgan tinglovchilarga ma'ruza matnini o'rganib dokladchilar uchun savollar tuzishni vazifa qiladi (2-Ilova).</p> <p>1.7. Baxolash tizimi bilan opponent va taqrizchilarni tanishtiradi. Dokladchilar bilan chiqish shakli va reglamentni muxokama qiladi(3-Ilova).</p> |            |

|   |  |   |
|---|--|---|
|   | 1.8. Referatlar mazmuni bilan tanishadi.   |   |
| 1 bosqich. O'quv mashg'ulotga kirish (5 daqiqa) | 1.1 Mavzuni va uning maqsadi, rejalashtirilgan o'quv natija-larni ko'rgazmali ravishda slayd yoki kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan elektron o'quv-uslubiy majmuani taqdim etgan xolda tanishtiradi.<br>1.2 Ma'ruza-anjumanni baxs-munozara shaklida o'tilishini e'lon qiladi va baxolash mezonlarini ekranga chiqarib qo'yadi (4-Ilova).  |   |
| 2 bosqich. Informat sion (axborot) (60 daqiqa)  | 2.1. Dokladchilarning chiqishla-rini tashkil etadi.<br>2.2. Doklad mazmuni bo'yicha kollektiv muxokamani tashkil etadi va ilg'or tinglovchilar bilan kollektiv muxokama jarayonini yo'naltiradi.<br>- savollar beradi (2-ilova)<br>-dokladning asosiy qismlarini aniqlashtiradi.<br>-dokladda aytilgan gaplarga qiziqish uyg'otadi.<br>-doklad mazmuniga aloxida e'ti-bor qaratadi.<br>-dokladlarning e'tiborli joy-larida ularni to'xtatadi va kollektiv muxokamani tashkil etadi.<br>-xar bir doklad qisqacha umum-lashtiriladi. | 2.1. Ishtirokchi tinglovchi dokladini o'qiydi. Taqrizchi dokladning yutuq va kamchilik-larini aytadi.<br>2.2. Tinglovchilar jamoa bo'lib doklad maz-munini muxokama qiladilar, baxslashadilar.<br>2.3. Mavzu bo'yicha munozaralarni ekspert-lar baxolaydilar. |
| 3 bosqich. Yakuniy bosqich (12 daqiqa)          | Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qiladi.<br>3.2. Tinglovchilarga baxolash nati-jasini e'lon qiladi. Natijalarga izox beradi.<br>3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi(5-Ilova).   | Ekspertlar:<br>1.Dokladchilar, oppo-nentlar va retsenzent-larning faoliyatiga baxo beradilar.<br>2. Ballarni qo'shib baxo chiqaradilar<br>O'UMga qarang   |

## REJA:

1. Muammo va uning tafakkur jarayonida tutgan o'рни

2. Faraz (gipoteza) va uning turlari

Muammo va uning tafakkur jarayonida tutgan o'рни Bilishning maqsadi qayd qilingan hodisalarning mohiyatini tushuntirishdan iborat. Buni hamma vaqt ham mavjud tasavvurlar, printsiplar yordamida amalga oshirib bo'lmaydi. Bilish jarayonida ma'lum bir ziddiyatlar, birinchi navbatda, mavjud bilimlarimizning erishgan darajasi bilan yangi bilish vazifalarini hal qilish zaruriyati o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi, muammoli vaziyat paydo bo'ladi. Bunday ziddiyatlar, ayniqsa, kundalik hayotimizda murakkab vazifalarni hal qilish, fanda esa tub burilishlar davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida vujudga keladigan juda ko'p muammolarni echish uchun yangicha yondashish taqozo etiladi. Masalan, tabiatshunoslik fanida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida radioaktivlik hodisasining qayd qilinishi, elektronning kashf etilishi, nurlanishning kvant xususiyatga egaligining asoslanishi va shu kabi kashfiyotlar natijasida muammoli vaziyat vujudga kelgan. Uning mohiyatini tabiatshunoslikning, birinchi navbatda, fizikaning mavjud qonun va printsiplarining yangi qayd qilingan hodisalarni tushuntirish uchun etarli emasligida, deb bilmoq zarur. Shuni ham aytish kerakki, ilmiy bilishda muammoli vaziyatni fan taraqqiyotining ichki ehtiyojlari ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, hozirgi paytda fanda sinergetika g'oyalari va metodlarini tushuntirish, matematikada aksiomatikaning imkoniyatlari va qo'llanish sohalarini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni hal qilish zaruriyati bunga misoldir. Demak, muammoli vaziyat mavjud ilmiy tasavvurlar bilan qayd qilingan yangi faktlar o'rtasidagi ziddiyatning paydo bo'lishi yoki ana shu ilmiy tasavvurlar etarli darajada tizimga solinmaganligi, yaxlit bir ta'limot sifatida asoslanmaganligi natijasidir. Mana shundan kelib chiqib, muammoli vaziyat bilish taraqqiyotining turli bosqich va bo'g'inlarida olam hamda uni bilish haqidagi mavjud tasavvurlarni, bilish metodi va vositalarini o'zgartirishning ob'ektiv zaruriyatidan iborat, deyish mumkin.

Muammoni qo'yish va hal etish Muammoli vaziyatni tahlil qilish yangi muammoni yuzaga keltiradi. Muammo – javobi bevosita mavjud bilimda bo'lmagan va echish usuli noma'lum bo'lgan savoldir. Shuning uchun ham muammoni qo'yish va hal qilish mavjud bilimlarni qayta ishlash, ba'zi hollarda esa, hatto, ular doirasidan chetga chiqishni, yangicha echish usuli, metodlarini qidirib topishni taqozo etadi. Qanday muammolarni ilgari surish va muhokama qilish xususiyatini amaliy faoliyatimiz va bilishimiz ehtiyojlari belgilab beradi. Muammoni muvaffaqiyatli hal qilishning zarur shartlaridan biri uni to'g'ri qo'yish va aniq bayon qilishdan iborat. To'g'ri qo'yilgan savol, V. Geyzenberg aytganidek, muammoni echishning yarmidan ko'prog'ini tashkil etadi.

Muammoni to'g'ri qo'yish uchun muammoli vaziyatni aniq tasavvur qilishning o'zi etarli emas. Buning uchun muammoni hal qilishning turli xil usullari va vositalarini ham oldindan ko'ra bilish kerak. Muammolarni qo'yishda kishilarning hayotiy tajribasi, bilimlari va qobiliyati muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Odatda, ko'p hollarda yangi muammolar ilmiy bilishning u yoki bu sohasining yirik mutaxassislari, boy tajribaga ega va chuqur bilimli olimlar tomonidan ilgari suriladi hamda ular ba'zan uzoq yillar davomida tadqiq qilinadi. Buni, masalan, milliy g'oya va milliy mafkurani yaratish muammosining qo'yilishi va tadqiq etilishi misolida ko'rish mumkin. Muammoli vaziyatni tahlil qilishga turli xil tomondan yondashish mumkin bo'lganligi uchun ham hal qilinishi lozim bo'lgan vazifa turli xil muammolar tarzida bayon qilinishi mumkin. Bunda ba'zi muammolar asosiy vazifani ifoda qilsa, ba'zilari bu vazifaning ayrim tomonlarini aks ettiradi va shuning uchun ham juz'iy xususiyatga ega bo'ladi. Ko'p hollarda bir-biri bilan bog'lanib ketgan mana shunday juz'iy muammolar hal qilingandan keyingina asosiy muammoni aniqroq bayon qilish va echish imkoniyati vujudga keladi. Muammolarni to'g'ri qo'yish va bayon qilish ularni echishdan kam ahamiyatga ega emas. Muammoni to'g'ri qo'yish uchun uning ilmiy bilish taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyatini to'g'ri baholash, uni hal qilishning metodlarini topish zarur. Bu amalda qo'yilishi mumkin bo'lgan turli xil muammolar ichidan eng muhimi va to'g'risini tanlab olishni bildiradi. Muammoni tanlash ma'lum bir darajada tadqiqotning umumiy yo'nalishi va xususiyatlarini belgilab beradi. Oxir-oqibatda qaysi muammoni qo'yish amaliy faoliyatimiz ehtiyojlariga bog'liq. Chunki faqat amaliy faoliyatdagina kishilarning ehtiyojlari va maqsadlari bilan ularni hal qilish vositalari o'rtasidagi ziddiyat yaqqol namoyon bo'ladi, ilmiy izlanish predmeti aniqlanadi va shu asosda bilish oldiga konkret vazifalar qo'yiladi

Ilmiy muammo, odatda, ma'lum bir nazariya doirasida vujudga keladi Nazariya keyinchalik ilgari surilishi mumkin bo'lgan muammoni umumiy holda belgilash va uni to'g'ri tanlashga yordam beradi. Shuningdek, har bir muammo ma'lum bir nazariya yordamida hal qilinadi. Ba'zi hollarda esa muammo mavjud nazariyani modifikatsiya qilish va muammoni echishga moslashtirishni talab qiladi. Muammoni echish uchun quyidagi dastlabki tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi: a) mavjud nazariyalar doirasida tushuntirib bo'lmaydigan fakt va hodisalarni aniqlash; b) muammoni hal qilish g'oyalari va metodlarini tahlil qilish hamda ularga baho berish; v) muammoni hal qilish turi, maqsadi, olingan natijani tekshirish yo'llarini belgilash; g) muammoning negizi bilan uni echish uchun ilgari surilgan g'oyalar o'rtasidagi aloqaning xususiyatlarini ko'rsatish. Bu dastlabki ishlar amalga oshirilgandan keyin bevosita muammoni echishga kirishiladi. Shuni alohida qayd qilib o'tish kerakki, muammoning echilishi nisbiy xususiyatga ega. Boshqacha aytganda, muammoning mutlaq to'la echimini topish qiyin. Chunki o'rganilayotgan hodisaning barcha tomonlarini qamrab olib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ilmiy izlanish davomida yangi muammolar vujudga kelishi mumkin bo'lib, u mavjud

muammoni boshqacha talqin qilishni taqozo etadi. Bunga misol qilib I. N`yuton tomonidan jismlarning o'zaro tortishishi muammosining qo'yilishini ko'rsatish mumkin. Butun olam tortishish qonunini kashf qilib, u faqat tortishuvchi jismlar o'rtasidagi miqdoriy aloqalarnigina topganligini uqtirib o'tgan edi. A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi jismlarning o'zaro tortishishi muammosini boshqacha talqin qiladi va bu muammo haqidagi tasavvurlarimizni ma'lum bir darajada kengaytiradi. Jismlarning o'zaro tortishishining tabiati, amalga oshish mexanizmi hozirgacha to'la ochib berilmagan. Boshqacha aytganda, muammo uzil-kesil hal bo'lmagan. Ba'zi hollarda muammolarning echimini uzoq vaqtgacha topib bo'lmaydi. Masalan, rak kasalining sababini o'rganish bilan bog'liq muammo hozirgacha to'la hal bo'lmagan. Bu, albatta, ayrim muammolar butunlay echimiga ega emas, degan fikrni bildirmaydi, balki ularni mavjud metodlar, vositalar yordamida echib bo'lmaslikni ko'rsatadi xolos, va shu tariqa echishning yangi vositalarini qidirib topishga undaydi. Demak, muammo hal qilinmaguncha ilmiy izlanish davom etadi. MUAMMO- bu ijtimoiy ehtiyoj natijasi o'laroq yuzaga keladigan masalalar ko'lami bo'lib, ularning echimi muayyan soha uchun nazariy va amaliy ahamiyatga molik bo'ladi. Muammo shunga ko'ra quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan masaladir. 1. Mavjud qoida, usullar bilan bevosita hal qilib bo'lmaydi. 2. Hal etilishi ba'zi nazariya va qarashlarni (kontseptsiyalarni) yangicha talqin etish, o'zgartirish, aniqlik kiritishni taqozo etadi. 3. Hal etilishi fan-texnika, ijtimoiy hayot sohasida tub o'zgarishlarni va shunga muvofiq yangi muammolarni yuzaga keltiradi. Muammolar birdaniga anglab olinmaydi, ularning nazariy masala sifatida shakllanishi muayyan vaqt - davrni o'z ichiga oladi. Bu pirovardida mavjud ba'zi nazariya, kontseptsiyalarni o'zgartirishni taqozo etadi. Masalan, kishilar sababchisi bo'lgan hozirgi ekologik muammolar o'tgan asr oxirlaridan boshlangan bo'lib, faqat asrimizning ikkinchi yarmidan boshlab uning hal etilishi zarurligi anglab olindi. Bu esa «Biz tabiatdan xayr-ehson kutib o'tirmaymiz, uni o'z xohishimiz bilan o'zgartiramiz», degan moddiyunchilik qarashni bekor qilishga olib keldi. Muammolarning muayyan masalalar-tizimi sifatida ifodalanish shakli savol hisoblanadi. Darhaqiqat, muammolar o'z mohiyatiga ko'ra u yoki bu tarzda qo'yilgan savollar bo'lib, ular zaruran o'z javobini, echimini talab etadi. Mantikda savol deb hal etilishi zarur bo'lgan masalaga doir fikrga aytiladi. Savol so'roq gaplarda ifodalanadi, lekin har qanday so'roq gaplar mantiqiy savolni ifodalamaydi. Barcha muayyan nazariy va amaliy ahamiyatga molik muammoga javob topishga qaratilgan so'roq gaplarga mantiqiy savol hisoblanadi. Savol muammoni ifodalash va uni hal etishga qaratilgan bilishning shakli bo'lib, metodologik ahamiyatga egadir. Barcha fanlar bilimlar tizimi sifatida o'z muammolarini qo'yish orqali rivojlanadiki, ular mantiqiy savollar tarzida ifodalanadi. Masalan, falsafaning azaliy muammolari «Olamning asosida nima yotadi?», «Vaqt va fazo nima?», «Inson kim, uning mohiyatini nima tashkil etadi?» degan savollar tarzida tuziladi. Va ana shu savollarga berilgan javoblarga ko'ra falsafiy oqim, ta'limotlar yuzaga keladi. O'zbekistonning kelajagi ana

shunday savollarga qanday javob berishimizga bog'liq. Bular quyidagilardir: xavfsizlikni qanday saqlab qolish lozim?, Barqarorlikni qanday ta'minlash darkor? Taraqqiyot yo'lidan sobitqadam rivojlanishiga nimalar hisobiga erishish mumkin? Bular strategik muammolar bo'lib har qanday mustaqil davlat eng avvalo, ana shu muammolarga e'tibor berib kelgan va bundan buyon ham e'tibor berajak».46 Savol bilish jarayonida muammo, gipotezalarni ilgari surishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun oddiy muhokama yuritish hamda ilmiy tadqiqot ishlarida mantiqiy savolga murojaat etiladi. Mantiqiy savol– bu inson bilimidagi ikkilanish, noaniqliklarni bartaraf etishga hamda tadqiq etilayotgan ob'ektlar haqida to'liq bilim olishga qaratilgan fikrdir. Savollar tuzulishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: echimga doir va to'ldirishga doir savollar. Qo'yilgan muammolarning hal etilish yo'llarini aniqlashga qaratilgan savol echimga doir savol hisoblanadi.

Muammolar o'z miqyosi va ahamiyatiga ko'ra turli darajalarda bo'lib, har xil usul, yo'llar orqali echiladi, shulardan uch xilini ko'rsatish mumkin: 1. Mavjud nazariya, g'oya, qarashlar doirasida echiladigan muammolar. Mazkur muammo turi echimi ijtimoiy hodisalarni hal etishda keng qo'llaniladi. Masalan, bugungi kunda milliy istiqlol g'oyasini kishilarimizning qalbi va ongiga singdirish muammosi kun tartibidagi dolzarb vazifa hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun esa, eng avvalo, «G'oya nima, uning qanday turlari bor?», «G'oyaning kishi qalbi va ongiga ta'sir ko'rsatish, singdirishning qanday vosita, usullari bor?» degan savollarni ko'ndalang qo'yishni va ularga batafsil, ilmiy javoblar topish talab etiladi. 2. Bir qator nazariyalar orqali amalga oshiriladigan muammolar echimi. Masalan, mamlakatimizda o'ziga xos modeldagi fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish muammosining echimi shu haqidagi mavjud ta'limotlar doirasida talqin qilinadi, chunki bunda fuqarolik jamiyati haqidagi qarashlar, ta'limotlarga tayanilgandir.

Muayyan qoidalarga amal qilinadigan paytdagina muammolar echimi usuli bilish shakli vazifasini o'taydi. Bular: 1. Savol odob doirasida ig'vogarliksiz, to'g'ri qo'yilishi kerak. 2. Aniqlovchi savollarning al'ternativ javoblarni nazarga olish lozim. 3. Savol qisqa, lo'nda va aniq bo'lishi kerak.

Murakkab ayiruvchi savollarda barcha al'ternativalar ko'rsatib o'tilishilozim. 5. Savol ritorik tarzda tuzilmasligi zarur. Chunki ritorik savollar fikrpredmetining xususiyatini o'ziga xos tasdiq tarzida ifodalovchi fikr shaklidir Mantiqiy savollar, ayniqsa, ta'lim-tarbiya jarayonida muhim rol o'ynaydi. Chunki o'quvchi, talabalarni fan asoslarini o'rganishga jalb etish, qiziqtirishning zarur sharti bo'lgan darslarda muammoviy vaziyatlarni yuzaga keltirishi mantiqiy savollarni tuzish orqali amalga oshiriladi. Faraz(gipoteza) va uning turlari Muammolarning echimi qanday usulda bo'lmasin, faraz-gipotezalarni ilgari surishni talab etadi. Gipoteza (yunoncha hypothesis-faraz, taxmin) bilish jarayoni, muammolarni hal etishda yuzaga keladigan ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan ehtimolli fikr bo'lib, tadqiq etilayotgan hodisaning sababi,



xususiyatlarini aniqlashga qaratilgai bo'ladi. Faraz fikr shakli sifatida quyidagi belgilarga ega: 1. Bilish taraqqiyotning shakli ekanligi. Barcha fanlar sohasida bilmaslikdan (nisbiy bilimdan) bilishga, mutlaq haqiqatga o'tish jarayoni farazlarni ilgari surish va ularning chin yoki xatoligini asoslash tarzida kechadi. 2. Hodisalarning sabab va oqibat bog'lanishlarini aniqlash, mavjud faktik materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish bo'yicha ilgari surilishligi, shu ma'noda faraz- bu har qanday taxmin bo'lmasdan, muayyan ilmiy asosga ega bo'lgan ehtimolli bilimlardir. Z.Farazlarning amaliyotda tasdiqlanishi yangi bilimlarni hosil qiladi va uning negizida yana boshqa ilmiy taxminlar ilgari suriladi. 4. Farazlarni ilgari surishni mantiqiy asosini analogiya bo'yicha xulosa chiqarish tashkil etadi. Tadqiq ob'ektiga ko'ra faraz ikki turga ajratiladi: umumiy va xususiy. Umumiy faraz deb muammo darajasidagi tabiiy va ijtimoiy hodisalarning sabab va oqibat bog'lanishlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy taxminga aytiladi. Akademik A.G.Oparin (1894-1980) tomonidan ilgari surilgan erda hayotning paydo bo'lishi haqidagi, shuningdek, Quyosh tizimidagi planetalarning kelib chiqishi, erdan boshqa planetalarda organik materiyani borligi va boshqa shu kabi ilmiy taxminlar umumiy farazlar hisoblanadi. Xususiy faraz ayrim narsa-hodisalarning yuzaga kelishi, xususiyatlari haqidagi ilmiy taxmindir. Har bir fan sohasida tadqiq etilayotgan ob'ekt bo'yicha u yoki bu tarzda taxminlar qilinadiki, ular o'z ko'lami va ahamiyatiga ko'ra xususiy farazlar sanaladi. Masalan, mediklar bedavo kasalliklarini sababini aniqlash bo'yicha farazlarni olg'a suradilar va shu bo'yicha tadqiqot ishlari olib boradilar. Sud-tekshiruv ishlarida keng qo'llaniladigan versiya-taxminlar tuzishda ham mantiqiy faraz tamoyillariga tayaniladi. Farazlarning ishonchli ilmiy nazariyalarga aylanishida mantiqiy tasdiqlash (isbotlash) usuli muhim rol o'ynaydi. Farazning mantiqiy tasdiqlash usuli-bu uning asosiy mazmunini natija sifatida dedukativ yo'l bilan keltirib chiqarish va uni keyinchalik faktlar bilan solishtirish, tajriba, eksperimentlar o'tkazish, ya'ni induktiv metodlar vositasida asoslashdir.

Bunga misol kilib Quyosh sistemasida Neptun planetasining kashf etilishini keltirish mumkin. Noma'lum planeta haqidagi gipoteza I.Keplerning planetalar harakati orbitasi va butun dunyo tortilish qonuni asosida ilgari suriladi va keyinchalik tadqiqotchilar tomonidan ushbu planetaning Quyosh tizimidagi o'rni (Quyoshdan 4500 mln. km uzoqlikdaligi, diametri- 30100 km, atmosfera tarkibi  $SN_4 N_2$ ) aniqlanildi. Nazariy tadqiqotlarning maqsadi empirik tadqiqot davomida o'rnatilgan faktlarni tushuntirish, bashorat qilish va sistemalashtirishga imkon beradigan qonun va printsiplarni aniqlashdan iborat. Metodologiyada "faraz"- "gipoteza" atamasi ikki ma'noda ishlatiladi: 1) Bilimning mavjudlik shakli sifatida muammolilik, ishonchsizlikni ifodalashi; 2) G'oyalarni tushuntirib beruvchi, shakllantiruvchi va asoslovchi metod sifatida qonun, nazariyalarni o'rnatishga eltuvchi yo'l Gipoteza strukturasi bilan tanishish bu metod to'g'risida yaxshi tasavvur beradi. Faraz bilish metodi sifatida bir qancha bosqichlardan iborat bo'ladi. 1) ilgari surilgan taxminga taalluqli faktlar, empirik dalillar

bilan tanishish; 2) o'rganilayotgan hodisalar sabablarini induktiv metodlar bilan aniqlash; 3) ilgari surilgan farazni unga daxldor boshqa farazlar bilan takqoslash va ehtimolga yaqinini tanlash; 4) ilgari surilgan farazni tajribada, eksperimental empirik tekshirib ko'rish va induktiv va deduktiv metodlar yordamida uning chin yoki xatoligini ko'rsatish. Fanlardagi, ayniqsa, aniq fanlardagi ilmiy nazariyalar, kashfiyotlar gipoteza bosqichlarining yakuniy xulosalari hisoblanadi. Gipoteza uslubining umumiy tuzilishi tamoyillarini yaxshi bilish fan rivojiga xizmat qiladigan farazlarni ilgari surish va ularning chin xatoligini aniqlashga yordam beradi.

Nazariya ilmiy bilimlar tizimi bo'lib, faraz-gipotezalar negizida shakllanadi. Nazariya- bu chinligi, haqiqatligi ilmiy jihatdan to'liqasoslangan va amaliyotda tekshirilgan, tasdiqlanilgan, tizimlashtirilgan bilimlar majmuidir. Har qanday fanlar nazariyalarga tayanadi. Nazariyada tadqiq etiladigan ob'ektlar, modellar, ya'ni ideallashtirilgan tarzda aks ettiriladi. Bunda mavhum atama, tushuncha, formulalar hosil qilinadi. Ob'ektlarni ideallashtirish ijtimoiy fanlarda ham qo'llaniladi. Masalan, falsafa, iqtisodiy nazariya fanlari eng umumiy tushuncha- kategoriyalar bilan ish ko'radilar.

Masalan: «makon», «zamon», « borliq", «harakat», «qiymat», «tovar» va boshqalar. Nazariyalar o'zida bilimlarni qay darajada, usulda umumlashtirish, ideallashtirish xarakteriga ko'ra deduktiv va nodeduktiv (induktiv) turlarga ajratiladi. Deduktiv nazariyalar mavjud nazariya, aksioma, qoidalar asosida shakllanadigan ilmiy bilimlar tizimidir. Masalan, I.Kepler (1571-1630) planetalar harakati(orbitasi)ga doir qonunlarini butun dunyo tortilish "qonuniga tayangan, undan kelib chiqqan holda kashf etadi.

Mantiq bilimlarni tizimlashtirishda metod vazifasini o'taydi. Bilimlarning tizimliliigi - bu eng avvalo ularning g'oyat aniq, lo'nda ta'riflarda ifodalanishi bilan izohlaniladiki, bu tafakkurning qonun, shakllari va barcha mantiqiy usullarga qat'iy rioya qilishni talab etadi. Har bir nazariya, qonun mohiyatan mantiqiy xulosa chiqarishning yakuni bo'lib, ular ilmiy ta'riflarda ifodalanadi. Mantiq fanining bilish jarayonida tutgan yo'li, nazariy-metodologik funktsiyasi bugungi fan-texnika, axborot texnologiya davrida yanada oshib bormoqtsa. Eng muhimi - mantiq ilmi hozirgi globallashuv davrida fan, texnika yutuqlarini gumanistik maqsadlar uchun yo'naltirishga, ma'naviyatni anglab olishiga xizmat qiladigan fan maqomatini olmoqda.

### ***Mashqlar***

1. Quyidagi mulohazani tahlil qilib, muammoning mohiyati, shakllanishi va yechilish usulini tushuntirib bering:

«Bir masalani men o'ta muhim deb hisoblayman. Totalitarizmning u yoki bu shaklining mavjud bo'lishi muqarrar, degan fikrni biz tez-tez eshitib turamiz. O'z aqli va bilimi tufayli o'zlarining aytganlariga javob berishi kerak bo'lganlarning ko'pchiligi

totalitarizmdan qutulib bo'lmaydi, deb ta'kidlaydilar. Ular bizdan quyidagilarni so'rashadi: nahotki, biz demokratiya abadiy bo'lishi mumkin deb hisoblaydigan sodda odamlarmiz; nahotki, uning davlat tuzilishining o'tkinchi shakllaridan biri ekanligini tushunmaymiz? Ular, demokratiya totalitarizmga qarshi kurashda uning metodlaridan foydalanishga majbur va buning oqibatida totalitarizmga aylanib qoladi, deb aytadilar. Boshqa hollarda ular, bizning industrial tizimimiz bundan buyog'iga ijtimoiy rejalashtirishsiz mavjud bo'la olmaydi, deb ta'kidlaydilar va bunda ijtimoiy-iqtisodiy tizim zaruriy tarzda ijtimoiy turmushni tashkil etishning totalitar shakllarini qo'llashni taqozo etadi, degan xulosa chiqaradilar.

Bunday argumentlar to'g'riga o'xshab ko'rinishi mumkin. Lekin bunday masalalarni hal etishda ehtimollik (to'g'riga o'xshab ko'rinish) ishonchli maslahatchi bo'la olmaydi. Haqiqatda esa, bunday juz'iy masalalarni muhokama qilishga, qandaydir bir ijtimoiy fan bunday payg'ambarona uzil-kesil bashorat qilishi mumkinmi, degan metodologik savolga javob bermasdan turib, kirishib bo'lmaydi. Kelajak odamzod uchun nima tayyorlab qo'yibdi, degan savolga mas'uliyatsizlarcha bildirilgan g'ayritabiiy so'zlardan boshqa yana nimalarni ham eshitishimiz mumkin, axir?!

Mana, ijtimoiy fanlarning metodi muammosi qaerda paydo bo'ladi! U qandaydir tarixiy bashoratni asoslash uchun keltirgan juz'iy faktlarni tanqid qilishga qaraganda fundamentalroq bo'lgan masaladir». (K.Popper. Otkrytoe obshchestvo i yego vragi. M., 1992, s.31–32).

2. Quyidagi matnni mantiqiy tahlil qilish asosida gipotezaning mohiyatini tushuntirib bering:

«Atomning planetar tuzilishi to'g'risidagi faraz uning asosida qator faktlarni, xususan, Mendeleevning kimyoviy elementlar davriy jadvalini tushuntirish mumkin bo'lgandan keyingina oddiy tasmoldan gipotezaga aylandi. Ungacha mazkur jadval kimyoning empirik qonuni bo'lib sanalar edi. Mendeleev kimyoviy elementlarni ularning atom og'irligining ortib borishi hamda fizika xossalarining o'zgarishi asosida joylashtirdi. Atomning planetar modelining yaratilishi kimyoviy elementlarning jadvalda joylashishiga fizik ma'no berishga va talqin qilishga olib keldi. Kimyoviy elementning jadvaldagi tartib raqamini uning yadrosidagi musbat zaryadlari soniga teng ekanligi ma'lum bo'ldi» (Yu.V.Ivlev. Mantiq. M., 1998, s.241).

3. Quyidagi matnda ilmiy nazariyaning qaysi turi tarkibining shakllanishi va rivojlanishi haqida fikr bildirilayotganligini toping va uni sharhlab bering:

«Fizika tafakkurning taraqqiy etib boruvchi sistemasidan iborat bo'lib, uning negizi o'tkazilgan tajribalar natijalarini induksiya metodlari yordamida umumlashtirish yo'li bilan emas, balki erkin fikrlash asosida yaratiladi. Tizimning chinligini asoslash mavjud aksiomalardan kelib chiqadigan teoremlarning hissiy tajribada qo'llanilishiga

tayanadi; bunda teorema va tajribaning o'zaro munosabatini faqat intuitiv tarzda tushunish mumkin. Mazkur tizimning evolyutsiyasi uning mantiqiy asoslari soddaligining tobora ortib borishi yo'nalishida kechadi. Maqsadga yaqinlashish uchun biz mantiqiy asosning tajriba ko'rsatmalaridan borgan sari uzoqlashayotganini, asoslar bilan ulardan keltirilib chiqariladigan hamda hissiy tajribalar bilan doimo solishtirib turiladigan teoremlar orasidagi fikr yo'lining uzayib va qiyinlashib borishini tan olishimiz kerak» (A.Eynshteyn. Fizika i real'nost'. M., 1965, s.59).

### ***Takrorlash uchun savollar***

1. Muammoli vaziyat nima?
2. Muammoning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Muammoni to'g'ri qo'yish va hal etishning qanday shartlari mavjud?
4. Gipotezaning mohiyati nimada va uning qanday turlari mavjud?
5. Nazariyaning tarkibi qanday?
6. Nazariya bilish jarayonida qanday vazifalarni bajaradi?
7. Nazariyaning qanday turlari mavjud?

### ***Tayanch tushunchalar***

Muammo, muammoli vaziyat, muammoni qo'yish, muammoni hal etish, gipoteza, ishchi gipoteza, nazariya, aksiomatik nazariyalar, formal sistemalar.

## GLOSSARIY

### MANTIQ TERMINLARINING QISQACHA LUG'ATI

**A** – (lot. Affirmo) – «tasdiqlayman» so'zining birinchi unli harfi bo'lib, formal mantiqda umumiy tasdiq hukmi simvolik ravishda ifodalanadi.

**¬A** (inkor A) – Matematik mantiqda murakkab mulohaza bo'lib, bu mulohaza, «A xato bo'lgandagina to'g'ri bo'ladi va aksincha, A to'g'ri bo'lganda xato bo'ladi» degan fikrning simvolik ifodasidir. Masalan, bu predmetni oqligi xato bo'lsa, uni oq degan fikrning to'g'riligi xatodir, agar bu predmetning oqligi to'g'ri bo'lsa, uni oq degan fikrning xatoligi haqiqat emas. Bu mulohaza «A emas» yoki qaerda A xato bo'lsa, «A to'g'ri emas» deb o'qiladi.

**¬¬A** (qo'sh inkor A) – matematik mantiqda ikki marta inkorni anglatib, inkorni inkor tasdiqni bildiradi.  $A \equiv \neg\neg A$  (ikki marta inkor  $A \equiv A$  ga tengdir deb o'qiladi). Masalan, «Bu kishi ilg'or emas degan gap to'g'ri emas», degan fikrdan «bu kishi ilg'or» degan fikr kelib chiqadi.

**A∨A** – matematik mantiqda uchinchi mustasno qonunining simvolik ifodasidir. «A yoki A emas» deb o'qiladi.

**Absolyut aynanlik** – metafizik filosofiyada ishlatiladigan termin bo'lib, bu ta'limotga ko'ra predmet hamma vaqt o'z-o'ziga tengdir. Bu printsip antologik nuqtai nazardan voqelikka ziddir. Chunki narsa va hodisalar har doim rivojlanib turadi. Demak, narsalar o'z-o'ziga teng bo'lmay qoladi.

**Abstraksiyalash** (lot. Abstractio – uzoqlashuv, mavhumlik) – tushuncha hosil qilishning muhim usullaridandir. Abstraksiyalash yordami bilan buyum va hodisalarning muhim xususiyatlarini fikran ajratamiz va ularni buyumlar, hodisalarning ikkinchi darajali va ahamiyati kam xususiyatlardan chetlashtiramiz.

**Abstrakt tushuncha** – buyumlarning ayrim belgilari munosabatlarini fikran ajratib, tushunchada aks ettirilishi. Masalan, «botirlik», «tozalik» kabi.

**Absurd** – (lot. bema'ni, behuda) – biror tezisni isbotlashda uchraydigan mantiqiy xato. Bunday xato (redictio ad absurdum) biror mantiqqa zid bo'lgan bema'ni hulosaga kelish deb ataladi.

**Avtomatik mantiq** – matematik mantiqning maxsus soxasi bo'lib, diskret boshqarish sistemasi haqidagi ta'limotni beradi.

**Agnostitsizm** (grek. a – yo'q, gnosis – bilish, bilib bo'lmaydigan) dunyoni bilib bo'lmaydi, degan ta'limot bo'lib, bu ta'limotga ko'ra inson narsalarning mohiyatini bilishga, ular haqida aniq bilimga ega bo'lishga qodir emasdir.

**Ajratib ko'rsatuvchi hukm** – ma'lum belgi faqat o'sha predmetga tegishli ekanini ko'rsatadigan hukm.

**Aylantirish** (lot. abversio) bevosita hulosa chiqarish bo'lib, bunda tasdiq hukm inkorga yoki inkor tasdiq hukm holiga keltiriladi. Aylantirish natijasida hukmning sifati o'zgaradi.

**Ayiruvchi (diz'yunktiv) hukm** – bir necha hukmlar yoki (v) bog'lovchi orqali murakkab hukmni tashkil etadi. Bu ikki xil: qat'iy ayiruvchi hukm va oddiy ayiruvchi ko'rinishda bo'ladi.

**Ayiruvchi (diz'yunktiv) sillogizm** – katta asos ayiruvchi hukmdan, kichik asos va hulosa esa qat'iy hukmdan iborat bo'ladi. Bu ikki xil modusdan iborat.

**Ayniyat qonuni (lot. Lex indentitatis)** formal mantiqning asosiy qonunlaridan bo'lib, bu qonunga ko'ra muhokama jarayonida ma'lum predmet to'g'risidagi fikr xajm jixatidan barqaror muayyanlikni saqlashi kerak. Bu qonun fikrni aniq ifodalash talab qiladi. Muhokamada har bir tushuncha aynan bir ma'noda ishlatilmog'i lozim. Uning formulasi  $A=A$  dir.

**Aksioma** (grek. axioma – qabul qilingan holda) – ma'lum nazariyani isbotlash uchun keltiriladigan isbotsiz qabul qilingan tushunchalardir. Mantiqda aksioma isbotsiz qabul qilingan haqiqat ma'nosida ishlatiladi. Hozirgi zamon ilmiy tekshirish shlarida aksiomatik metod juda katta ahamiyatga ega. U ilmiy nazariyalarning deduktiv hulosalari chiqarish yordamida tashkil topish sullaridan biri. SHuning uchun «deduktiv metod» va aksiomatik metod ko'pincha aynan tushunchalar sifatida ishlatiladi.

**Al'ternativa (lot. Alternare – almashmoq, navbat bilan qilmoq)** – mumkin bo'lgan qarama – qarshi ikki yoki bir necha holdan tanlab olish zaruriyati. antiqda ayiruvchi hukmning har bir qismi al'ternativa bo'la oladi.

**Analiz va sintez** (grek. Analysis – ajratish, bo'lish va qo'shish, birlashtirish) **Analiz** shunday bir mantiqiy usuldirki, uning yordami bilan buyumlar, hodisalar fikran qismlarga bo'linadi. Sintezda esa qismlar fikran birlashtirilib, bir butun holiga keltiriladi.

**Analogiya** (grek. Analogia – o'xshashlik, moslik) – ikki buyumning bir yoki bir necha belgilarning o'xshashligidan boshqa belgilarning ham o'xshashligi to'g'risida hulosa chiqarishdir.

**Antitezis** (grek. Antithesis – qarama – qarshi qo'yish) – tezisga qarama–qarshi bo'lgan tezis.

**Apagogik isbot** (grek. Apagoge – hulosa, apagogos – buruvchi, chiqaruvchi) – vositali isbotning bir turi bo'lib, tezisning to'g'riligi bevosita argumentdan (asosdan) keltirilib chiqarilmaydi, balki unga qarshi bo'lgan tezisning (antitezisning) xatoligini isbotlash orqali dastlabki tezisning to'g'riligi isbotlanadi.

**Apodeyktik hukm yoki zaruriy hukm** (grek. Apodeiktikos – ishonarli, aniq) – predikat va sub'ektdagi belgini zaruriy tasdiqlaydi yoki inkor qiladi. Bunday hukmlar narsa va hodisalar o'rtasidagi zaruriy munosabatni aks ettiradi.

**Apologetika** (grek. Apologio – himoya, himoya nutqi) – biror nutqni yoki fikrni himoya qilish (Apoloqiya ham ana shundan kelib chiqadi).

**Argument** (lot. Argumentum – isbot asosiy) tezisni isbotlash uchun keltiriladigan fikrlar. Bunday fikrlarning to'g'riligi praktikada isbotlangan bo'lishi kerak.

**Argument ad hominem** – insonga doir degan xatoni lotin tilidagi ifodasi. Biror tezisning isboti uchun ob'ektiv voqelikda isbotlangan fikrlarni keltirish yo'li bilan emas, balki mazkur odamning ijobiy yoki salbiy tomonini ko'rsatish orqali isbotlashdir.

**Assertorik hukm – mavjudlik hukmi** (lot. Assero - tasdiqlayman) – qat'iy hukmning bir turi bo'lib, predikat sub'ektdagi belgining mavjudligini tasdiqlaydi yoki inkor qiladi. Bu hukmda predikatlarda u yoki bu belgining mavjudligini yoki mavjud emasligi qayd qilinadi, halos.

**Atributiv hukm** (lot. Atributum – belgilanilgan, bo'linilgan, qo'shilgan) – predikatda sub'ektga xos sifat va xususiyatlarini aks ettiruvchi hukm.

**Aforizm** (grek. Aphroismos – qisqa hikmatli so'z) – u yoki bu fikrni qisqa, aniq va ishonarli, tugallangan shaklda bayon etishdir. Bunday fikrlar murakkab narsalarning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Biroq, aforizm formal logik nuqtai nazardan tushuncha ta'rifi bo'la olmaydi.

**Affirmativ hukm** (lot. Affermo - tasdiqlayman) – tasdiqlovchi hukmlar (umumiy tasdiq, juz'iy tasdiq, bu hukm ba'zida affirmatik hukm deb ham yuritiladi).

## **B**

**Barbara** – sillogizmni birinchi figurasining, birinchi modusini (AAA) ifodalovchi belgi.

**Bevosita hulosa chiqorish** – bir asosdan chiqarilgan hulosa.

**Birga bo'ysunish** - tushunchalar o'rtasidagi munosabat.

**Bir doirada aylanaverish** (lot. Circulus vitiosus) – isbotdagi yetarli asos qonunini buzish natijasida kelib chiqadigan mantiqiy xatodir.

**Birlashtiruvchi isbot** – to'liq induksiya yo'li bilan qilinadigan isbotga aytiladi. Bunda tezisning isboti uchun butun asoslar birlashgan holda amalga oshiriladi. Unda har bir asos mustaqil isbotlangan bo'ladi.

**Butun va bo'lak** – ob'ektiv olamdagi narsa va hodisalarning o'zaro aloqasini, predmet va ularning elementlari o'rtasidagi munosabatni ko'rsatuvchi falsafiy kategoriya.

**Bo'lish qoidalari** – formal mantiqda tushunchalarni bo'lishning quyidagi qoidalari:

- 1) bo'lish teng hajmli (mutanosib) bo'lmog'i kerak;
- 2) bo'lishning bir va muhim asosi bo'lmog'i kerak;
- 3) bo'linmalar bir – birini istisno qilmog'i kerak;
- 4) bo'lishda sakrash bo'lmasligi kerak.

## V

**Versiya** – (lot. Versio – aylantirish, boshqa shaklga keltirish; frantsuzcha –versio – tarjima, izohlab berish) – biron fakt, hodia va voqeaning bir-biridan farq qiladigan bir necha turini turlicha tahminiy izohlashga aytiladi. Versiya xususiy gipotezaning bir turidir.

**Vositasiz va vositali isbot** – isbotlash usuliga ko’ra isbotlar vositasiz va vositaliga bo’linadi. Vositasiz isbotda tezisning to’g’riligi bevosita asoslar (dalillar) dan kelib chiqadi. Vositali isbotda esa tezisning to’g’riligi antitezisning xatoligini tasdiqlash yo’li bilan asoslab beriladi. Masalan: Aning jinoyat qilmaganligini isbotlash uchun «fuqaro A. jinoyat qilgan» degan tezisning xatoligini isbotlash asosida birinchi tezisning to’g’riligini asoslaymiz. Bu ikki xil bo’ladi: apogogik vositali isbot (q), ayiruvchi vositali isbot. Ayiruvchi vositali isbotda bir necha imkoniyatdan bittadan qolgani xato ekanini isbotlash yo’li bilan tezis asoslab beriladi.

## G

**Genezis** (grek. Genesis – kelib chiqish) ma’lum predmetlar hodisalar va ular to’g’risidagi fikr hamda mulohazalarning paydo bo’lishi, shakllanishi, tug’ilishi.

**Genetik metod** – predmet hodisalarning kelib chiqishi va rivojlanishini tahlil qilish asosida tadqiq etish usuli.

**Genetik ta’rif** – ta’riflanayotgan buyumning kelib chiqishini ko’rsatadigan ta’rif.

**Gipoteza** – (grek. Hupotesis – asos, printsip, faraz) – hali isbotlanmagan nazariy fikr, faraz. Gipoteza ma’lum natijalarni tug’dirgan sabab haqida qilingan farazdir. Gipotezani ilgari surish, asoslash va isbolash–ilmiy bilishning rivoji uchun zarur metoddir. Gipotezaning nazariyaga aylanishi uchun uni tekshirish kerak. Gipotezani tekshirish natijasida: a) uning ehtimolligi ortadi; b) haqiqatligi isbotlanadi, nazariyaga aylanadi; v) gipoteza rad etiladi. Barcha nazariyalar gipoteza bosqichini bosib o’tadi. Gipoteza praktikada isbotlangandan so’ng ishonarli nazariyaga aylanadi.

**Gipotetik – deduktiv metod** – ilmiy tekshirish usuli bo’lib, bu usul vositasi bilan dastavval o’rganilayotgan predmet haqida bir necha gipoteza keltiriladi. Keltirilgan gipotezalar asosida deduktiv yo’l bilan hulosa chiqariladi. Bu metod boshqa metodlar bilan (analiz, sintez, induktiv va b.) birga qo’llanilgandagina ahamiyatli bo’ladi.

**Gnoseologiya** (grek. Gnosis – bilim, logos - ta’limot) – bilish nazariyasi, filosofiyaning muhim sohasi:

**generalisatio** – (lot.) yakkadan umumiyga qarab umumlashtirishdir;

**genus praximum** – (lot.) eng yaqin jins;

**gratis dictum** – (lot.) behuda aytilgan, chunki argumentlari yo’q, shunga ko’ra asoslanmagan;



**grosso modo** – (lot.) taxminan, umumiy tarzda bayon qilmoq.

## D

**Deduktiv isbot** (traditsion mantiqda) isbotning shakllaridan bo'lib, ayrim, yakka hukmlardan iborat bo'lgan tezisning umumiy qoidalariga asoslanib isbotlash usulidir.

**Deduktiv hulosa** -umumiy chin asoslardan shu umumiylikka kiruvchi xususiylik va yakkalik haqida yangi bilim beruvchi xulosa shakli.

**Deduktsiya** (lot. Deducio – hulosa chiqarish) – keng ma'noda hulosa chiqarishning asosiy usullaridan va tadqiqot metodlaridan biri.

**Dezinformatsiya** – noto'g'ri axborot berish, odamlarni chalg'itirish, yolg'on xabar tarqatish.

**Deklorativ** (lot. decloratio – ariza, izohlash) umumiy qoidaga asoslangan, biroq konkret asoslarga ega bo'lmagan umumiy tarzda fikr.

**Demagog** (gr. demagogos) – siyosat sohasida yolg'on va'dalar bilan halq ommasida oldida ommaviy bo'lishga tirishuvchi siyosatdon.

**Demagogiya** – halq ommasiga yolg'on va'dalar bilan ularning hissiyotiga ta'sir etish orqali siyosatda muayyan maqsadlarni amalga oshirish usuli.

**Demonstratsiya** (lot. demonstratio - ko'rsatish) – isbotlash jarayoning tarkibiy qismi bo'lib, isbotlash usulini, ya'ni isbotlashning qanday amalga oshirilishini ifodalaydi.

**Deontik mantiq** – normativ tilning mantiqiy tuzilishini o'rganadigan mantiq. SHuningdek, u normativ tushunchalar haqidagi ta'limot hamdir. Deontik mantiq modallik mantiqsining bir qismi sifatida ham qaraladi. U mantiq «albatta», «ruxsat etilgan», «befarq», «ta'qiqlangan» kabi xususiyatlarning funktsiyalarini o'rganadi. Deontik mantiq buyruq formasidagi ifodalarni o'rganadi.

**Deontik modallik** – «albatta», «ruxsat», «baribir» kabi modallik usullarini o'z ichiga olgan fikrlarga harakteristika berishdan iborat. Deontik modallik huquqshunoslik, etika kabi fanlarning ham o'rganish ob'ektidir.

**Destruktiv dilemma** (lot. destructivus – ruxsat beruvchi) – Oddiy va murakkab ko'rinishda bo'ladi.

**Determinizm va indeterminizm** (lot. determinare – belgilash, aniqlash) – hodisalarning zamonda o'zaro aloqadorligining harakteri haqidagi qarama–qarshi nuqtai nazarlar. Determinizm hodisalar o'rtasida umumiy qonuniyatli aloqa borligini e'tirof etadi. Indeterminizm qonuniyatli aloqa borligini inkor etadi.

**Definitsiya** (lot. definitio - ta'rif) – tushunchani ta'riflash.

**Dialektika** (grek. Dialegomai – suhbat olib borayotibman, muhokama qilayotibman) – rivojlanish to'g'risidagi falsafiy kontseptsiya. Voqelik hodisalari ularning ichki rivojida, ziddiyatlar takozasi bilan yuz beradigan o'z harakatida deb o'rgatadigan bilish nazariyasi va metodi.

**Dialektik mantiq** – tafakkur harakatining umumiy qonunlari va formalari

haqidagi fikr bilan ob'ektiv reallikni bilish yo'llari to'g'risidagi, ya'ni falsafiy kategoriyalarning o'zaro aloqadorligini tatdiq etadigan fandır.

**Dilemma** (grek. di – ikki marta; lemma – gap, ikqilangan gap) – shartli-ayiruvchi sillogizmning shakllaridan biri.

**Diskussiya** (lot. discussio – tekshirish, tahlil qilish) – birorta muammoni muhokama qilish, u bo'yicha bahs qilish, tortishuv, munozara qilish.

**Dissident** (lot. dissident – ixtilof, ko'nmaslik) – ixtilofchi, buzg'unchi.

**Distant** – logik qarama – qarshilik (lot. distatio - oraliq) bir predmet, hodisa to'g'risida aytilgan fikrga bir necha vaqt o'tgandan so'ng qarama-qarshi fikr aytish.

**Dixotomik bo'lish** (grek. dichia – va, home – ikki qismga ajratish) – tushunchalarning hajmini ikkita bir-biriga zid bo'lgan qismga mantiqan bo'lish.

**Dogma** (grek. dogma – fikr, ta'limot) – qanday konkret sharoitda qo'llanilishidan qat'i nazar tanqid ko'zi bilan tekshirilmay, ko'r-ko'rona qabul qilinaveradigan, o'zgarmas qoida, aqida.

**Dominant** (lot. dominatio - hukmron) – hukmron g'oya, biron narsaning bosh, sababi, asosiy tomoni.

**Dictum de omni et nulla** (lot.) Sillogizm aksiomasining lotincha qisqartirilgan formulasi. Tarjimasi: hamma narsa to'g'risida aytilgan va hech nima. To'la matni: sinfga mansub hamma predmetlar to'g'risida tasdiqlanib yoki inkor qilinib aytilgan fikr, shu sinfga kiruvchi ayrim predmetlarga ham tegishlidir.

**Dictum factum** (lot.) – aytilgan, demak bajarilgan.

**Disrepant facta cum dictis** (lot.) dalillar so'zlarga mos kelmaydi.

**Displicuit nasus tuns** (lot.) – ob'ektiv emas, balki biror kishiga qarshi sub'ektiv baho berishish (so'zma-so'z tarjimasi: sening basharang yoqmaydi).

**Divicio** (lot. ) – bo'lish.

**Dostus cum libro** (lot. tili bilan fikrlovchi) – mustaqil holda fikr aytishga qo'rquvchi odam

**Dubium** (lot.) – ikkilanish, shubha.

## E

Ye – lotincha Nego – inkor qilaman so'zining birinchi unli harfi bo'lib, umumiy inkor hukmning simvolik ifodasidir.

**Etarli asos qonuni** (lot. Lex rationis determinantis siue sufficientis) formal mantiq qonunlaridan biri bo'lib, unga ko'ra har qanday chin fikr isbotlangan bo'lishi kerak, to'g'riligi isbotlangan boshqa bir fikrga asoslanishi kerak.

**Eadem aberrare cnorda** (lot.) xatoni yana o'sha joydan takrorlash kerak emas.

## **J**

**Jins** – bir sinfga kiruvchi predmetlarning mantiqiy tavsifi bo'lib, bu sinf o'z ichiga boshqa tur sinflarni qamrab oladi. Masalan: daraxt tushunchasi mevali va mevasiz daraxtlarga nisbatan jins bo'lib, unga kiruvchi “mevali”, “mevasiz” lar daraxtning turlaridir.

**Jins va tur tushunchalar** - shunday tushunchalarki, ularda hajmi katta tushuncha unga bo'ysunadigan hajmi kichik tushunchaga nisbatan jins va aksincha, hajmi kichik tushuncha u bo'ysunuvchi hajmi katta tushunchaga nisbatan tur tushuncha bo'ladi.

**Juz'iy gipoteza** – gipotezaning turi bo'lib, u ayrim olingan faktlar asosida tahlil qilinadi. Ammo bunda ayrim hodisalarning sababi tahlili beriladi, holos. SHunga ko'ra u hodisalarning sababini ochib beruvchi umumiy ilmiy gipotezadan farq qiladi.

**Juz'iy hukm** - sinfga mansub predmetlar yoki ular belgilarining bir qismi to'g'risida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr. Masalan: Ba'zi talabalar havaskorlik to'garagiga qatnashadi.

**Juz'iy inkor hukmi** – miqdor jihatidan juz'iy, sifat jihatdan inkor hukmdir. Uning formulasi: Ba'zi S – P emas. Ba'zi guruhlarda o'zlashtirmaydigan talabalar yo'q. Lotin tilida «O» harfi bilan belgilanadi (Nego –inkor qilaman so'zining ikkinchi unli harfi).

**Juz'iy tasdiq hukm** - miqdor jihatdan juz'iy, sifat jihatidan tasdiq hukmdir. Uning formulasi: «Ba'zi S – P dir». Lotin tilida «I» harfi bilan belgilanadi (affirmo) – tasdiqlayman so'zining ikkinchi unli harfi.

## **Z**

*ZARURIY HULOSA CHIQRISH - DEDUKTIV HULOSA CHIQRISHNING BOSHQACHA NOMI. UNDA ASOS BO'LIB KELUVCHI HUKMLARDAN HULOSA MUQARRAR RAVISHDA KELIB CHIQADI. HULOSA ASOSLARDA IMLITSIT TARZDA MAVJUD BO'LIB, O'SHA ASOSLARDAN NATIJA O'Z – O'ZIDAN KELIB CHIQADI.*

*ZARURIY HUKMDA PREDMET VA UNING BELGILARI MUQARRAR RAVISHDA TASDIQLANADI YOKI INKOR QILINADI.*

*ZIDDIYATSIZLIK QONUNI (LOT. LEX CONTRADICTIONIS) FORMAL MANTIQNING ASOSIY QONUNLARIDAN BO'LIB, U QUYIDAGICHA IFODALANADI: AYNI BIR PREDMET HAQIDA AYTLGAN IKKI O'ZARO BIR –BIRINI ISTISNO ETUVCHI FIKRLAR AYNI BIR VAQTNING O'ZIDA VA AYNAN BIR NISBATDA BIRDANIGA TO'G'RI BO'LISHI MUMKIN EMAS. MASALAN: «POMIR – BALAND TOG'». «POMIR – PAST TOG'». BULAR BIRDANIGA TO'G'RI BO'LISHI MUMKIN EMAS. UNING FORMULASI:  $A \wedge A$  EMAS.  $(A \wedge \bar{A})$ .*

## **I**

**I** – lotincha affirmo – tasdiqlayman so'zining ikkinchi unli harfi bo'lib, u juz'iy

tasdiq hukmni simvolik ifodalaydi.

**Ideal** – (grek. – idea – tarz, obraz, tushuncha) – kamolot, ayrim kishi, guruh, sinfning intilishi va xatti-harakatini biron-bir narsada namuna qilib belgilaydigan oliy maqsad. Ideal matematik mantiqda ma’nosi bo’lmagan (juda bo’lmaganda bir elementga ega bo’lgan) to’plam bo’lib, grekcha  $\Delta$  harfi bilan belgilanadi.

**Idealizatsiya** - ilmiy tadqiqot usuli bo’lib, bu usul maxsus abstrakt ideallashtirilgan ob’ektlar tuzishda ifodalanadi. Bu usul ob’ektlarni «sof shaklda» o’rganish maqsadida qurilgan fikriy konstruktsiyalardan iborat bo’lib, u real holda uchramaydi, ammo o’zining biron timsoliga ega: Masalan: geometriyada «nuqta», fizikada «absolyut qattiq jism» kabi va hokazo.

**Ideologiya** – (grek. idia - tarz, obraz, tushuncha va ta’limot) – ijtimoiy qarashlar va g’oyalar sistemasi. Unga siyosiy, huquqiy, ahloqiy, falsafiy, estetik, diniy ateistik qarashlar kiradi. U ijtimoiy ongning bir qismi bo’lib, ijtimoiy borliq asosida vujudga keladi va rivojlanadi.

**Idrok** – ayrim buyum va hodisalarni yaxlit holda aks ettiradigan psixik protsess.

**Ijobiy mantiq** – hozirgi zamon noklassik mantiq oqimi bo’lib, fikrlash jarayonida inkor etish amalini qo’llamaydi. Uning o’rniga implikatsiya, kon’yunktsiya, diz’yunktsiya va ekvivalentlilikni ishlatadi.

**Ijobiy va salbiy tushuncha** – tushunchalarning mazmun jihatdan turlari bo’lib, ijobiy tushunchada predmet o’zida mavjud belgi orqali fikrlansa, salbiy tushuncha o’zida yo’q belgi yordamida ifodalanadi.

**Izchillik** – mantiqiy tafakkurning asosiy shartlaridan biri bo’lib, fikrlash jarayonida tartiblilikni talab qiladi, ya’ni fikr oddiydan murakkabga qarab, yoki aksincha yuritiladi.

**Izchillik bilan bo’lish** – tushunchani bo’lishning asosiy sharti bo’lib, bo’lishda sakrash bo’lmasin, tartib bilan amalga oshsin deb ko’rsatadi.

**Ilmiy induktsiya** – induktiv hulosa chiqarishning bir turi bo’lib, bunda biror turkumdagi buyumlarning ayrimlarining muhim xususiyatlarini, sababiy bog’lanishlarini tekshirish asosida ularning hammasi to’g’risida hulosa chiqariladi.

**Implikatsiya** (lot. implicite – uzviy bog’langan) – mantiqda ikki oddiy hukmning bog’lanishi natijasida hosil bo’ladigan murakkab fikr. U «Agar, u holda» bog’lovchilari bilan ifodalanadi. Simvolik belgisi  $A \rightarrow V$ .

**Implitsit** (lot. implicite - noaniq) – predmetlarning noaniq, yashirin mazmunining ifodasi. Bunday yashirin tushunchalar tilda mustaqil ifodaga ega emas, biroq o’sha narsa

nazarda tutiladi, anglashadi, ular tovush ifodasiga ega bo'lsada, bevosita fikrni bildirmaydi, balki kontekst vositasida ifodalanadi.

**Individ** (lot. individuum - bo'linmas) – ayrim bo'linmaydigan yakka, mustaqil mavjudod individ deyiladi. U yakka tushuncha ma'nosida ham ishlatiladi. Tushunchalarni chegaralash natijasida bo'linmas yakka tushunchalarga kelamiz. Bu so'z yakka shaxsga nisbatan, shuningdek, matematik mantiqda esa ayrim predmet, ob'ektlarni qisqacha ifodalashda ham ishlatiladi.

**Induktiv isbot** – isbotning alohida bir turi bo'lib, undagi tezis umumiy hukmlardan, asoslar esa juz'iy hukmlardan iborat bo'ladi.

**Induktiv mantiq** – mantiqning muhim bir bo'limi bo'lib, unda ayrim asoslardan umumiy hulosalar chiqarish mexanizmi o'rganiladi. Matematik mantiqda esa to'liq bo'lmagan axborotdan ehtimollik ko'rinishida hulosa chiqarishga aytiladi.

**Induktiv hulosa chiqarish** – q. induksiya.

**Induksiya** (lot. inductio – juz'iydan umumiylikka) – hulosa chiqarishning asosiy usullaridan va tadqiqot metodlaridan biri. Induktiv hulosa chiqarish bilimning juz'iy muhokamalardan (hukmlardan) umumiy mulohazalarga, qoidalarga qarab harakat qilishidir. To'liq va to'liqsiz induksiya mavjuddir.

**Inkor modus** – shartli va ayiruvchi sillogizmning inkor modusi.

**Inkor hukm** – biror predmetda biror belgining mavjudligini rad etadigan hukm.

**Isbot** – biror fikrning to'g'riligini amaliy tajribada ilgari chinligi tasdiqlangan boshqa bir to'g'ri fikr vositasi bilan asoslab berish. Har qanday isbot 3 qismdan iborat bo'ladi: Tezis, asos (argument) va isbotlash usuli (demonstratsiya).

**Isbotlash qoidalari:** isbot to'g'ri bo'lishi uchun amal qilish zarur bo'lgan qoidalar: Ular tezisning argumentlarining va isbotlash usulining qoidalarini o'z ichiga oladi.

## Y

**Yo'ldosh o'zgarishlar metodi** – hodisalarning sababli bog'lanishini tekshirishning induktiv metodlaridan bo'lib, bu metod bo'yicha, agar bir hodisaning yuzaga kelishi har safar unga yo'ldosh bo'lgan ikkinchi hodisani zaruran yuzaga keltirsa, demak bu hodisaning birinchisi ikkinchisining sababidir.

## K

**Katta termin** – sillogizmning katta asosda joylashgan termin bo'lib, u hulosa ning predikatidir.

**Kategoriya** – (grek. kategoria – ta'rif berish, fikr aytish) – ob'ektiv reallikdagi

hodisalarning asosiy xususiyat va qonunlarini aks ettiradigan va davrning ilmiy – nazariy muhitni, tafakkurning xarakterini belgilab beradigan umumiy tushunchalar. Formal mantiqda esa u umumlashtirishning chegarasi bo'lib hisoblanadi

**Kelib chiqmaydi** - (lot. non sequitur) – isbotdagi xatolardan biri bo'lib, bunday xato yetarli asos qonunini buzish natijasida kelib chiqadi. Bu xatoning mohiyati shundan iboratki, tezisning isboti uchun keltirilgan asoslar to'g'ri, chin bo'lsa - da, biroq u tezisning isboti uchun yetarli emas. SHuning uchun bu «asoslardan tezisning chinligi kelib chiqmaydi» deb ataladi. «Kimki ko'p isbotlashga intilsa, u hech narsani isbotlamaydi» (lot. qui nimium probat, nihil probat) – isbotdagi xatolardan bo'lib, isbot jarayonida tezisning isboti uchun juda ko'p asoslar keltirilib, bu asoslar tezisning isboti uchun yetarli bo'libgina qolmay, balki ortiqcha hisoblanadi.

**Kichik termin** – sillogizmning kichik asosida joylashgan tushuncha bo'lib, u xulosaning sub'ekti bo'lib keladi.

**Klassifikatsiya** – (lot. classis – turkum, facio - bajaraman) predmetlarni muhim belgilarga qarab turkumlash. Bunda predmetlar bir – biriga o'xshashligi va farqiga qarab sinflarga bo'linadi va joylashtiriladi. U tabiiy va sun'iy, ilmiy va yordamchiga bo'linadi.

**Konstruktiv mantiq** – hozirgi zamon matematik mantiq'ining oqimlaridan biridir. Bunda u voqelikni konstruktsiya qilish asosida o'rganadi.

**Kontrast** – (frantsuz contracte – keskin qarama - qarshilik) – biror narsa hodisa o'rtasidagi keskin farq, qarama – qarshilik.

**Kuzatish** – bevosita idrok qilish orqali narsa va hodisalarni qanday bo'lsa, shundayligicha tabiiy asosda o'rganish metodi. Kuzatish o'zining aktivligi, maqsadga qaratilganligi bilan oddiy idrokdan farq qiladi.

## L

**Lemmatik xulosa** – (grek. lemma - taxmin) – shartli-ayiruvchi sillogizm.

**Logitsizm** – mantiqning matematika uchun hal qiluvchi deb qarovchi oqimdir. U oqim tarafdorlari matematikani mantiq tushunchalari bilan izohlash mumkin deb qaraydilar. Logitsizm tarafdorlari mantiq bilan matematikani ikki fan deb emas, balki bir fanning rivojlanishidagi ikki bosqich deb qaraydilar. Ingliz faylasufi B. Rasel, nemis matematigi va faylasufi G. Fregelar uning asoschilaridir.

**Logomaxiya** – (grek. logos – so'z, maxe - bahs) so'zning ma'nosini aniqlamasdan turib bahs yuritish. Terminlarning ma'nosini bilmasdan yoki aniqlamasdan turib bahs qilinganda ikki tomon ham haq bo'lib chiqishi mumkin. CHunki bahslashuvchi tomonlar bahs mavzusi uchun bir so'z ma'nosining boshqa – boshqa tomonlarini olgan bo'lishlari mumkin.

## M

**Mantiq** – (grek. logos – so'z, fikr, nutq, aql) tafakkur qonunlari va shakllari

haqidagi fandır. Mantiqning predmeti tafakkurdir.

**Mantiqiy kvadrat** – hukmlar o'rtasidagi munosabatni esda saqlab qolish uchun foydalaniladigan ko'rgazmali diagramma.

**Mantiqiy semantika yoki semantik mantiq** – (grek. semanticas – anglatuvchi, bildiruvchi) – mantiqning muhim bir tarmog'i bo'lib, tushuncha, hukmda ifodalangan so'zlar ma'nosini o'rganadi.

**Mantiqiy xato** – tushuncha, hukm, hulosa chiqarish, isbotlash jarayonida tafakkur qonuni va shakllarini buzish natijasida kelib chiqadigan xato.

**Mantiqiy qarama – qarshilik** – fikrlash jarayonida nozidlik qonunini buzish asosida kelib chiqadigan chalkash muhokama.

**Mantiqiy qonunlar** – to'g'ri tafakkur qonunlari.

**Mantiq qonunlari** – inson tafakkuriga xos qonunlardir. Mantiq qonunlari ob'ektiv olamning inson ongidagi in'ikosidan iboratdir. Formal mantiqning to'rtta asosiy qonuni bor: ayniyat, nozidlik, uchinchi istisno, yetarli asos qonunlari. Bu qonunlar to'g'ri fikrlashning zaruriy shartidir.

**Matematik mantiq** – matematikaning bir yo'nalishi bo'lib, u fikrlash jarayonini o'rganishga matematik metodni qo'llaydi. Matematik mantiq formal mantiq rivojining yangi bosqichi bo'lib, u an'anaviy mantiqdan so'ng mustaqil soha bo'lib maydonga keldi.

**Modus** (lot. modus – usul, o'lchov) formal mantiqda sillogizm figuralaridagi hukmlarning miqdor va sifat jihatdan birlashgan turlari tushuniladi.

**Murakkab hukm** – Mantiqiy bog'lovchilar orqali ikki va undan ortiq oddiy qat'iy xukmlardan tashkil topgan xukm. Murakkab hukmlar ayiruvchi, birlashtiruvchi, shartli va ekvivalent bo'ladi.

**Muhim belgi** – predmet va hodisalarning mavjudligi uchun zarur bo'lgan belgidir.

**Mantiqiy kvadrat** – hukmlar o'rtasidagi munosabatni esda saqlab qolish uchun yaratilgan ko'rgazmali diagramma

## N

**Natija** – asosdan zaruriy ravishda kelib chiqadigan fikr. SHartli hukm qismlaridan biri: shartli aytilgan qism asos, shart asosida vujudga keladigan qism natijadir. Bir necha hukmdan chiqarilgan hulosa ham natija deyiladi.

**Nego** – lotincha «inkor qilaman» degan so'z bo'lib, birinchi unli harfi (E), muminkor hukmning, ikkinchi unli harfi esa (O) juz'iy inkor hukmining simvolik ifodasi.

**Neologizm** (grek. neos – yangi, logos so'z) – tilda yangi so'zlarning paydo bo'lishi. Bu so'zlar inson amaliy faoliyati, ilmiy bilimlarining rivojlanishi asosida paydo bo'ladi.

**Nom** – predmet, hodisa, jarayonlarning tildagi ifodasi. Nom yakka predmetlarni (Toshkent, Al- Xorazmiy), bir guruh predmetlarni (halq, o'rmon), hodisa va jarayonlarni

(tinchlik, sezgi) aks ettirishi mumkin. Nom problemi bilan mantiqda G. Frege batafsil shug'ullangan.

**Nominal ta'rif** – (lot. definitio nominalis) – tushunchada ifodalangan so'zning ma'nosini aniqlash. Nominal chetdan kirgan so'zlarning ma'nosini aniqlash, ilmiy aylanmaga yangi terminlar kiritish uchun ham ishlatiladi.

**Nomuhim belgi** – predmetning mavjudligi uchun zarur bo'lmagan belgi.

**Non causa pro causa** – (lot. Uning so'zma-so'z tarjimasi: “Sababdan emas, sabab uchun” demakdir). Bu “Ketma-ket kelgan narsalarning barchasi sabab va oqibat bo'ladi” degan xatoning lotincha nomi. Masalan: kun tundan keyin keladi. Lekin bundan tunning sababi ekan degan ma'no aslo kelib chiqmaydi.

## O

**O** – lotincha «Nego» (inkor qilaman) so'zining ikkinchi unli harfi bo'lib, u juz'iy inkor hukmi simvolik tarzda ifodalaydi.

**Ob'ekt** (lot. objectum - predmet) – ayni paytda ongimizdan tashqarida unga bog'liq bo'lmagan, bizning ongimiz predmeti bo'lgan narsa va hodisalar.

**Ob'ektiv mantiq** – ongimizdan tashqarida bo'lgan reallikning rivojlanishi, aloqasi, munosabati. Sub'ektiv mantiq ana shu ob'ektiv olamning inson ongidagi in'ikosidir.

**Ob'ektiv reallik** – inson ongidan tashqarida turuvchi tabiat, jamiyat, butun moddiy dunyo va uning turli tomonlari, insonning o'zi, anglash qobiliyati, uning tabiat va boshqa odamlar bilan munosabati.

**Ob'ektiv haqiqat** – bizning bilimlarimizning ongimizdan tashqarida mavjud bo'lgan mazmuni bo'lib, uning voqealikka mos, adekvat kelishidir. Haqiqatning mazmuni esa bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir.

**Oddiy hukm** – bir sub'ekt va predikatdan iborat bo'lgan hukm.

**Ommaviy induksiya** – to'liqsiz induksiyaning bir turi bo'lib, u oddiy kuzatish yo'li bilan kundalik hayot tajribasi asosida chiqarilgan hulosalar hisoblanadi. Bu induksiyada narsalarning ichki mohiyati asosida emas, balki bevosita ko'zga tashlanib turgan belgilar asosida hosil qilinadi. SHuning uchun u zid hollar uchramagan taqdirdagina to'g'ri bo'ladi.

**Omonimlar** – shakllan bir xil, ammo mazmunan bir necha tushunchani ifodalovchi so'zlar.

**Operator** – simvol yoki simvollar kombinatsiyasi bo'lib, u mantiqiy shakl hosil qilish uchun ishlatiladi.

**Ostensiv ta'riflash** – (lot. ostendere - ko'rsatmoq) predmetni bevosita ko'rsatish orqali ta'riflash.



## P

**R** - lotincha praedicatum – kesim so'zining birinchi unli harfi bo'lib, u hukm predikatining simvolik ifodasidir. Sillogizm hulosa ning predikati bo'lib kelgani uchun katta termin ham R harfi bilan belgilanadi.

**Paradoks** (grek. para – qarshi va doxa - fikr) – kutilmagan, odatdan tashqari ajoyib fikr bo'lib, ma'lum hukmron va kundalik hayot fikrlariga, xatto rosmi fikrga qarama-qarshi bo'lgan mulohazadir. Formal mantiqda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki hulosa bo'lib, ularning har ikkalasi chin (to'g'ri) yoki xato deb qaraladigan fikrga paradoks deyiladi.

**Predikat** (lot. praedicatum - kesim) – hukmda predmetga xos belgini ifodalaydi. Predmetdagi belgini mantiqiy bog'lovchilar orqali tasdiqlab yoki inkor qilib ko'rsatadi.

**Petitio principii** (lot.) – tezisning isboti uchun keltirilgan asos, to'g'ri, chin, yetarli bo'lsa – da, uning isboti uchun yana qo'shimcha isbot qilish talab qilinadigan dalillar keltirish asosida kelib chiqadigan xatoning lotincha nomi bo'lib, “asosni oshirib yuborish” xatosi deb ataladi.

**Ponendo tollens** – (lot.) – ayiruvchi – qat'iy sillogizmning «tasdiqlash yo'li bilan inkor qilish» modusining lotincha nomi.

**Ponens** (lot.) – shartli sillogizmning “tasdiq” modusining lotincha nomi.

## R

**R** (lotincha Relatio) – munosabat so'zining birinchi harfi bo'lib, hukmlar o'rtasidagi munosabatning simvolik ifodasidir. Hukmlar o'rtasidagi munosabatning formulasi quyidagicha:  $a R b$  (a va b hukmi o'rtasida R munosabat bor deb o'qiladi).

**Raddiya** – biror tezisning noto'g'riligi yoki asossizligini isbotlaydigan mantiqiy usul.

**Ratsionalizm** – (lot. rationalis - aqliy) – bilish nazariyasida aqlni haqiqiy bilimning birdan bir manbai deb hisoblovchi oqim.

## S

**S** (lotincha Subjectum) – sub'ekt so'zining birinchi harfi bo'lib, u hukmdagi mantiqiy eganing simvolik ifodasidir. Sillogizm da hulosa sub'ekti kichik termin ham S harfi bilan ifodalanadi.

**Sabab va oqibat** – (lot. causa - sabab) – boshqa bir hodisani zaruran vujudga keltiruvchi sabab natijasida yuzaga kelgan boshqa hodisa oqibat deb ataladi.

**Signal** – (lot. Signum - belgi) – ma'lum ma'lumot beruvchi shartli belgi.

**Sillogizm** – (grek. Sullogismos – hisoblab chiqarmoq) – hulosa chiqarishning deduktiv usuli bo'lib, unda ikki qat'iy hukmdan yangi bir qat'iy hukm – hulosa hosil

qilinadi. Bunda o'rta termin asoslarni mantiqan bog'laydi, kichik va katta terminlar bog'lanib, hulosa hosil qiladi.

**Sillogizm aksiomasi** – «Buyumlarning butun turkumi to'g'risida nimaiki tasdiqlanib (yoki inkor qilinib) aytilsa, shu turkumdagi ayrim bir bo'lak to'g'risida ham tasdiqlab (yoki inkor qilib) aytiladi».

**Sillogizm tarkibi** – ikki asos va hulosa, uch termindan iborat.

**Sillogizm figurasi** – o'rta termin joyini almashtirish yo'li bilan sillogizmning turli shakllarini hosil qilishdan iborat bo'lgan mantiqiy usul. O'rta termin o'rnini almashtirish yo'li bilan to'rt xil figura hosil bo'ladi.

**Simvolika** – ma'lum ob'ekt, shuningdek, fikr, g'oya, hissiyotni ifoda etuvchi belgilar sistemasi.

**Simvolik mantiq** – ma'lum fikrlar va uning shakllarini, munosabatini, terminlari, predikati va sub'ektlarining yolg'on yoki chinligi, mantiqiy funksiyalarini belgilar sistemasi bilan ifodalab o'rganuvchi ta'limot. U simvolik tarzda quyidagicha ifodalanadi:

1. Propozitsional o'zgaruvchilar: p, q, r.

2. Mantiqiy bog'lovchilar:

$\wedge$  - kon'yunktsiya (va)

$\vee$  – diz'yunktsiya (yoki)

$\dot{\vee}$  – qat'iy diz'yunktsiya

$\rightarrow$  - implekatsiya (agar ... u xolda)

$\neg$  - inkor (yo'q, to'g'ri emas)

$\equiv$  - ekvivalentlik (tenglik)

3.  $\forall$  – umumiylik kvantori

$\exists$  - mavjudlik kvantori

4. Texnik belgilari: ( — so'l qavs, ) — o'ng qavs va b.

**Sorit** – murakkab sillogizmning turi bo'lib, oldingi asosning predikati keyingi asosning sub'ekti bo'lib, boraveradi. Hulosada esa birinchi asosning sub'ekti oxirgi asosning predikati bo'lib chiqadi.

**Sofizm** – (grek. Sophisma – o'ylab chiqarilgan, mug'ambirlik) – mantiq qonuni va qoidalarini bila ko'ra turib, ularni qasddan buzish. Sofistlar fikrni shakl jihatidan to'g'ri deb qarasarlar – da, fikrlashdagi xatoni haqiqat, chin deb qaraydilar. Ular ko'pincha so'zlarning turli ma'noliligidan foydalanib, nisbiylikni mutloqlashtiradilar. Biroq sofistlar, qadimgi Gretsiyada dialektikani rivojlantirishda «so'z ustasi» o'qituvchilari sifatida katta rol o'ynagan.

**Sub'ekt** (lot. Subjectum) – hukmning mantiqiy egasi bo'lib, fikr qaratilgan buyumni bildiradi. Falsafada dunyoni biluvchi shaxs ma'nosida ham ishlatiladi.

**Sxolastika** (grek. Schole – maktab, lot. Scholasticus - maktabiy) – hayotdan ajralgan, predmetsiz, havoyi, ma’nosiz fikrlashdir. O’rta asrlarda diniy – falsafiy ta’limotni sxolastika deb atashgan.

## T

**Tafakkur** – voqelikni abstraktlashtirib va umumlashtirib bilishdan iborat bo’lgan insonning aqliy, nazariy faoliyati.

**Tafakkur shakllari** – ob’ektiv olamdagi eng umumiy jarayonlarning aks etishi asosida paydo bo’lgan amaliy fikrlashning tuzilishi. U tushuncha, hukm, hulosa chiqarish va hokazolardan iborat bo’ladi.

**Tafovut metodi** – hodisalarning sababli bog’lanishini tekshirishning induktiv metodlaridan biri. U quyidagicha ifodalanadi: agar hodisa bir holda yuz bersa – yu, ikkinchi holda tafovut qilsa, demak, xuddi shu holatning o’zi hodisaning sababidir.

**Taqqoslash** – buyum va hodisalarning bir – biriga o’xshashligi va farqini aniqlashga qaratilgan mantiqiy usul.

**Ta’riflash** – mantiqiy usul bo’lib, bu usul vositasida tushunchalarning mazmuni ochib beriladi. Ta’rifning tuzilishi ikki asosiy qismdan: aniqlovchi va ta’riflovchi tushunchalardan iborat bo’ladi.

**Ta’riflashga o’xshash mantiqiy usullar** –1) ko’rsatish; 2) tasvirlash; 3) tavsiflash; 4) o’xshatish; 5) tafovutlash; 6) taqqoslash.

**Tezis** (grek. thesis – holat, tasdiq) – chinligi isbotlanishi lozim bo’lgan fikr.

**Termin** (lot. terminus – oxiri, chegara) – I. So’z va so’zlar birikmasi: masalan, «arxitektura», «atom» terminlari. Belgilar va ularning birligi ham termin bo’lishi mumkin. Termin odatda tushunchaning aniq qat’iy nomi ma’nosida ishlatiladi.

II. Hukm va sillogizmda ishtiroq etgan tushunchalar termin deb ataladi. Hukmda sub’ekt (S), predikat (R) terminlari bor. Sillogizmda katta (R), o’rta (M), kichik (S) terminlar mavjud.

**Traditsion mantiq** – Arastuning mantiqiy ta’limotiga asoslanadi. Arastu sillogizm nazariyasiga asos solgan. Hulosa chiqarishning deduktiv metodini ishlab chiqdi. Ingliz faylasufi F. Bekon (1561 – 1626 yillar) esa induktiv metodni ishlab chiqadi. SHunday qilib traditsion mantiq vujudga keladi. Bu mantiqni rivojlantirishga juda ko’p mutafakkirlar hissa qo’shganlar.

**Trixotomiya** (grek. triha – uchga, toma - maydalash) – tushunchalar hajmini uchga bo’lish. Matematik mantiqda va aksiomatik nazariyada to’planning trixotomik aksiomasi mavjud.

**To’liq induktsiya** – induktiv hulosa chiqarishning turi bo’lib, bunda ma’lum bir hodisaning barcha hollarini to’la ravishda o’z ichiga oladigan asoslardan umumiy hulosa chiqariladi.

**To’liqsiz induktsiya** – induktiv hulosa chiqarishning turi bo’lib, u tekshiriladigan

hodisaning barcha hollarini emas, balki ayrim hollarinigana o'z ichiga oladi va ayrim predmetlarni ifodalagan asoslardan hulosa chiqaradi.

**Tushuncha** – predmetlarning umumiy va muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli.

**Tushunchalarning asosiy turkumlari** – tushunchalar hajmiga va mazmuniga qarab turkumlarga bo'linadi. Hajmiga ko'ra yakka va umumiy tushunchalarga bo'linadi. Mazmuniga qarab: konkret va abstrakt, nisbatdosh va nisbatsiz, musbat va manfiy tushunchalarga bo'linadi.

**Tushunchalarni bo'lish** – mantiqiy usul bo'lib, bu usul yordamida tushunchalarning hajmi uni qism (tur) larga ajratish yo'li bilan aniqlanadi.

**Terminum major** (lot.) – katta termin

**Terminum medius** (lot.) – o'rta termin

**Terminum minor** (lot.) – kichik termin

**Terminum non datur** (lot.) – uchinchi kerak emas (uchinchi mustasno qonunining lotincha nomi).

## U

**Uchinchi istisno qonuni** - mantiqning asosiy qonunlaridan bo'lib, u quyidagicha ifodalanadi. Bir – biriga zid bo'lgan ikki fikrdan biri hamisha to'g'ri (chin) bo'lib, ikkinchisi xatodir, uchinchi bo'lishi mumkin emas. Uning formulasi: A yoki V, yoki V emas AVA

## F

**F** – lotincha – **Falsitus** – xato (yolg'on) so'zining birinchi harfi bo'lib, u matematik mantiqda xato aytilgan fikrni simvolik tarzda ifodalaydi.

**Falsafa** (grek. phileo – sevaman va sophia - donolik) dunyoni tafakkurning borliqqa bo'lgan munosabati asosida o'rganuvchi ta'limot bo'lib, u insonning jamiyatdagi roli, uning dunyoqarashi to'g'risida bahs yuritadi.

**Formallashtirish** – ilmiy bilish metodi bo'lib, ma'lum ob'ektning mazmunini uning, shakli orqali ifodalanadi.

**Formallashtirilgan til** - formal mantiqda ishlatiladigan sun'iy tildir. Sun'iy til - belgilari sistemasidan iborat bo'lib, bu sistemalar ma'noni aniq va to'liq ifodalash uchun ishlatiladi. Gap tilda mustaqil semantik ma'noga ega va tugal fikrni anglatadi, to'liq til belgisini ifodalaydi.

Predikatlar mantiq'i tilining simvolik ifodasi quyidagicha:

1) a, v, s, ... – yakka, atoqli yoki tavsifiy predmetlarning nomi ifodalangan simvollar – predmetli o'zgarmas (konstant) deb ataladi.

2)  $x, u, z, \dots$  – predmetlarning umumiy nomini ifodalovchi simvollar, predmetli o'zgaruvchanlik deb ataladi.

3)  $R^1, Q^1, R^1, R^2, Q^2, R^2, \dots R^n, Q^n, R^n, \dots$  – predikorlarni ifodalovchi simvollar (indekslar predikatlarni joyini ko'satadi: 1 – bir joyli; 2 – ikki joyli;  $n$  – ko'p joyli) ularni predikat o'zgaruvchanligi deyiladi.

4)  $R, q, r, \dots$  propozitsion o'zgaruvchanlik – gapni ifodalanishini bildiruvchi simvollar.

5)  $\forall, \exists$  - fikrlarning miqdoriy harakteristikasini ifodalovchi simvollar – kvantor deb ataladi. ( $\forall$  - umumiylik kvantori: «hamma», «har qanday», «hamma vaqt» kabilarda ifodalanadi.  $\exists$  - mavjudlik kvantori: «ba'zi», «bo'ladi», «uchraydi», «mavjud» kabilarda ifodalanadi).

6) Mantiqiy bog'lovchilar:

kon'yunktsiya (birlashtiruvchi) -  $\wedge(a \wedge b)$ ;

diz'yunktsiya (ayiruvchi) -  $\vee(a \vee b)$ ;

implikatsiya (agar ... u holda)  $\rightarrow(a \rightarrow b)$ ;

ekvivalent (tenglik)  $\approx(a \equiv b)$ ;

Inkor –  $\neg(\neg a)$ .

**Formula** – (lot. Formula – shakl, qoida) – ma'ulm belgilarda fikrlash jarayoning qonun va qoidalarini izchil ravishda qisqa bayon etishdir. Formula fikrlash jarayoni to'g'risida aniq ma'lumot beradi. Mantiqda formulalar juda ko'p qo'llaniladi.

**Fallacia accentus** – (lot.) ikki ma'noli talaffuz qilishdan kelib chiqadigan mantiqiy xato.

**Fallacia accidentis** – (lot.) predmetlarning muhim belgilarini nomuhim belgilariga aralashtirib yuborish natijasida kelib chiqadigan mantiqiy xato.

**Falsum** (lot.) – yolg'on, aldash

**Fata** (lot.) – taqdir

**Forte** (lot.) – tasodif, ehtimol.

## E

**EVM** – elektron hisoblash mashinasi terminining qisqartirilgan nomi bo'lib, hisoblash texnikasining muhim tushunchasidir.

**Evrastika** (grek. heurisko - topish) – yangilikni izlash qonuniyati bilan shug'ullanadigan fan sohasi bo'lib, u yoki bu muhim muammoni hal qilishning qulay tomonlarini izlash bilan shug'ullanadi.

**Eeop tili** – metafora va turli obrazlar, kinoya va qochirmalar orqali achchiq haqiqatni aytish (qadimgi Gretsiyada yashagan filosof Eeop nomi bilan yuritiladigan termin).

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ – 637- sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4732-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

### III. Maxsus adabiyotlar:

1. Falsafa. Axmedova M. Taxriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
2. Mamashokirov S. Tahriri ostida. Falsafa. -T.: Sharq, 2005.
3. A.Mamanov. Milliy mentalitet: xususiyatlar va omillar, S.: «Zarafshon» - 2015.- 155 b.

4. Abdulla Sher. Axloqshunoslik / Darslik. -Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010 y.
5. Abdulla Sher. Estetika. / Darslik. -Toshkent: O‘zbekiston, 2015 y.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri.-T.:Yangi asr avlodi, 2016.- 318 6
7. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y.i dr.Sovremenniye obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
8. B.Husanov. Boshqaruv etikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2017.
9. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
10. Bozarov D. Sinergetik paradigma. -T.: Tafakkur, 2010. -1606.
11. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
12. J.Rumiy. Ichindagi ichingdadur.-T.: Yangi asr avlodi, 2016.-272 b.
13. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.YE.Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
14. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s.
15. Izzetova E., Pulatova D. Filosofiya. -T.: Sharkshunoslik, 2012. 340-6
16. Ishmuhammedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
17. L.A.Muhammadjonova, D.O.Ortiqova, F.A.Abidjanova, G.K.Masharipova. Professional etika va etiket.Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018 y.
18. L.Muhammadjonova,F.Abidjanova Etiket. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2018 y.
19. M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoye posobiye. Rizograf imeni Nizami. 2018 g.
20. Muslimov N.Ava boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
21. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. O‘quv qo‘llanma - T.: Universitet, 2017.

22. Oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida. [https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3.\\_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf](https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf)
23. Otamurodav S. Globallashuv va millat. - T.: Yangi asr avlodi. 2008.
24. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.-T.: "TKTI" nashriyoti, 2019 y.
25. Xayitov Sh., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. -T.: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
26. Shermuxamedova H.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.
27. Shermuxamedova N.A. Borlik va rivojlanish falsafasi.-T.: Noshir, 2013,720 b
28. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2017. 460-6.
29. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.
30. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: Moliya, 2003.
31. Mamashokirov S. Tahriri ostida. Falsafa. -T.: Sharq, 2005.
32. Nurmatova M., Muhammadjonova L. Ma'naviyatning axloqiy asoslari. // O'quv qo'llanma. Toshkent: Universitet, 2013.

#### **IV. Internet saytlar**

33. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
34. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
35. <http://bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
36. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet
37. <https://philpapers.org/> - mejdunarodnaya filosofskaya poiskovaya sistema po knigam, statyam, jurnalam, naxodyashimsya v otkrytom dostupe
38. <https://plato.stanford.edu/> - Stenfordskaya entsiklopediya filosofii.  
<https://elibrary.ru/> - krupneyshiy rossiyskiy informatsionno-analiticheskiy portal (v tom chisle) v oblasti filosofii
- 36.<http://ziyonet.uz> – Ziyonet ta'lim portali.
- 37.<http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi rasmiy veb-sayti.
- 38.<http://lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi rasmiy veb-sayti.
- 39.<http://senat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati rasmiy veb-sayti.
- 40.<http://uza.uz> – O'zbekiston Milliy axborot agentligi portali.
- 41.<http://huquqburch.uz> – Huquqiy axborot portali.